В когнитивной лингвистике понимание связано с мышлением в форме общих знаний. Концепт - это совокупность действий, мировоззрений и идей, принадлежащих определенной культуре. Любое произведение искусства является результатом мысленных связей с национальным концептуальным полем, а анализ концептов означает определение национальной идентичности определенного народа. В статье уделено особое внимание понятию современного языкознания, приводятся лингвистические данные о понятии «отец», а также общие выводы из научных мнений. Стилистические и прагматические особенности концепта «отец» раскрываются на примере народного эпоса «Равшан».

Ключевые слова: Концепт, лингвокультурология, прагматика, психоллингвистика, языковая личность, лингвопоэтика, понимание, стилистика.

THE CONCEPT OF “FATHER” IN UZBEK LINGUISTICS (BASED ON THE EXAMPLE OF THE EPIC “RAVSHAN”)

Annotation

In cognitive linguistics, understanding is associated with thinking in the form of general knowledge. A concept is a set of activities, worldviews and imaginations belonging to a certain culture. Any work of art is the result of mental relations with the national conceptosphere, and the analysis of concepts means revealing the national identity of a certain people. The article pays particular attention to the concept of modern linguistics, linguistic data on the concept of “father”, and general conclusions from scientific opinions are presented. The stylistic and pragmatic features of the concept of “father” are revealed in the example of the folk epic “Ravshan”.

Key words: Concept, linguoculturology, pragmatics, psycholinguistics, linguistic personality, linguopoetics, understanding, stylistics.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari sanalgan lingvokulturologiya, pragmalingvistika, psixolingvistika, kognitivlingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika kabilar lisoniy birlikni umumiy va individual tarzda tahlil etib, tilni turli aspektlarda o‘rganmoqda. Jahon tilshunosligi inson omili nuqtayi nazardan lingvistik izlanishlarni olib borar ekan, zamon va makon qonuniyatlarini ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi. Zero bugungi takomillashib borayotgan davr, insonning “sun‘iy intellekt” tizimiga oid vositalar bilan muloqoti tilshunoslik ilmiga yangicha qarashni, ilmiy tadqiqotning yangicha ko‘rinishlarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Lingvistika sohasidagi mana shunday yangi tadqiqotlardan sanalgan lingvokulturologik va pragmatic tahlillar antroposentrik qarashlarning amaliy ifodasi sanaladi. Bugungi kun ilmiy tadqiqotlari bir soha doirasidagina emas, bir necha soha uyg‘unligida hamkorlikni zarurat deb bilmoqda. Xususan, konsept terminining turli zamonaviy yo‘nalishlarda talqin etilishi natijasida bu kabi lingvistik birliklarning mazmun doirasi ham kengaydi. Dunyo ilm-fani doirasida o‘rganilyotgan konseptlar xalq tafakkuri, bilimi, ijtimoiy o‘rni, psixikasini ochib berishda muhim sanaladi. Har

qanday konsept milliy- madaniy, kognitiv-psixik mahsuldir. Konsept kognitivlingvistika va lingvomadaniyatshunoslikning asosiy birligi sifatida tushuncha va ma‘no terminlari bilan ma‘nodoshlik hosil qilsa-da, o‘ziga xos farqli jihatlariga egaligi bilan ajralib turadi. Kognitivtilshunoslikda konsept tafakkurdagi jami bilimlar ko‘rinishida assotsiyatsiyalanadi. Konsept muayyan madaniyatga tegishli bo‘lgan faoliyat, dunyoqarash va tasavvurlar jamlanmasidir.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida “konsept”, “konseptosfera” terminining zamonaviy sohalar doirasida faol qo‘llanilib kelinyotgani qator ilmiy ish va tadqiqot materiallaridan ma‘lumdir. Askoldov S.A., Karasik V.I., Maloxova S.A., Stepanov Y.S., Demyankov V.Z., Yashenko T.A., Axmedova D.X kabilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va yaratilgan monografiyalardan ma‘lumki, konsept mazmun doirasi keng va har bir millat o‘ziga xos konseptosferaga egadir.

O‘zbek tilshunosligida ham keying yillarda “konsept” termini ommalashdi va tadbiiq etildi. Ushbu konsept termini bilan aloqador lingvokulturologik va lingvokognitiv ilmiy ishlardan oydinlashadiki, hali bu sohalar doirasida jiddiy

tadqiqotlar soni yetarlicha emas. Ammo o'zbek tilshunosligida konsept mohiyatini ochishga qaratilgan matn va uslub masalalariga doir ilmiy materiallar va manbalar talaygina. B.Yo'ldoshev, N. Turniyozov, Sh. Safarov, A.Mamatov, S.Karimov, X.Doniyorov, N.Mahmudov, M.Yo'ldoshev, M.Hakimov, I.Mirzayev kabi tilshunos olimlar tadqiqotlari va ilmiy ishlari fikrimiz isboti sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Konsept (lot.conceptual: ma'no, mazmun, tushuncha) – inson ongining ruhiy zahiralari va mental birliklarni hamda uning tajribasi, bilimni aks ettiradigan ma'lumotlarni izohlash uchun xizmat qiluvchi atama; xotira, mental so'zlar va miya bilan bog'liq faol birlik, inson ruhiyatida aks etgan olam manzarasining konseptual tizimi, ya'ni shaxsning dunyo obyektlariga oid tasavvurlari, o'ylari, taxminlari, bilimlari haqidagi ma'lumotlardir [1].

Tahlil va natijalar. O'zbek tilining izohli lug'atida "ota" so'zining o'nga yaqin ma'nolari keltirilgan bo'lib, avvalo, "farzandli, bola-chaqali er kishi (o'z bolalariga nisbatan) ma'nosi ifodalangan. Bundan tashqari ota so'zi kasb (ota kasbim- temirchilik), yurt(u endi ota yurtiga qaytadi), erga murojaat (Otasi, o'g'lingizga qarang), yoshiulg' kishigamurojaat (ota, otaxon, sizga majlis ma'qulmi?), o'g'il bolalarni erkalatish (otam qani meni!), biror ishga asos slogan kishini nazarda tutish (Qodiriy romanchilik otasi), mehribon rahnamo (U yurtga ota bo'ldi) va el - yurt boshchisi ma'nolarida ham ishlatilib, xalq leksikasida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz lug'at boyligida ota so'zining turli variantlari mavjud bo'lib, bular: dada, ada, padar kabilar bo'lib, turli uslub doirasida faol qo'llaniladi. Dada va ota so'zlari ma'no jihatdan teng bo'lsa-da, uslubiy jihatdan qo'llanish doirasi nihoyatda farq qiladi. Shuningdek, dada aniq ma'no ifodalasa, ota umumlashgan mazmunda qo'llaniladi, ya'ni ota deganda bobo, Yoshi ulug' kishi nazarda tutilishi mumkin. Dada so'zida ham shunday holat kontekstida kuzatiladi: qaynotaga murojaat etishda kelin (yoki kuyov) shu so'zni ishtirok etuvchilarga bog'liq tarzda qo'llaydi.

Ma'lumki, har bir insonning jamiyatda bitta dadasi bo'lsa-da, ba'zan qaynotalarga nisbatan ham aynan dada so'zi ishlatiladi. Shunday paytlarda-jon qo'shimchasi orqali asosiy nazarda tutilgan shaxs anglashiladi. Ota so'zi dada ma'nosida ayrim sheva vakillari tilida saqlanib qolgan. Tarixiy, badiiy manbalardan bu so'zning onaga qarama- qarshi ma'noda ishlatilganining guvohi bo'lamiz. Dada so'zi esa bugungi kunda faol bo'lib, so'zlashuv uslubida keng qo'llaniladi. Dada va ota so'zlari yonma-yon ishlatilishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Kelib chiqishi o'g'uzcha bo'lgan dada so'zining ota ma'nosida X-XI asrlarda ham mavjud bo'lishiga qaramay, "Boburnoma" asaridan ma'lumki, bu davrada biy tili va uslubida ota so'zi yetakchilik qilgan. Shuningdek "Boburnoma"da doda, xondoda so'zlari ham ifodalangan. Ota so'zi ma'nosi kengayishida ham dada so'zining qo'llanish doirasi ortishi sabab bo'lgan bo'lib, ota so'zi turli ko'chma, uslubiy ma'nolarda ham ishlatilmoqda. Manbalarda ko'rsatilishicha, uyg'ur adabiy tilida ham, ayniqsa, maqollarda ko'proq ota, jonli so'zlashuvda esa dada so'zi qo'llanadi. Tuman va qishloq shevalarida sal boshqacharoq holatni ko'ramiz, jumladan, Izbosgan tumanida ota// dada// aka// paralleli uchratilsa, qo'rg'ontepa tumanida dada so'zining ota va onaning otalari (bobolar) ma'nosini ifodalashi ham kuzatiladi [2,89]. Ayrim sheva vakillari ota ma'nosida aka so'zini, bobo ma'nosida ota so'zini ishlatishadi (Xorazm). Toshkent shahri hududida esa doda so'zi bobo ma'nosini ifodalab, dada ma'nosida ada so'zi ishlatiladi. Badiiy uslubda, ayniqsa, she'riyatda ota so'zi o'rnida ato, oto shakllari ham uchrab bu qofiya talabi, aruz qoidalariga xos tarzda ishlatiladi. Stillistik maqsadda ham ota so'zi o'rnida dada, ada, oto yoki padari buzrukvor so'zlari qo'llanilib, so'zlovchining turli modal munosabatini ham ifodalaydi. Ota o'rnida qo'llanilgan dada so'zining shevaga xos deda variant ham uchrab, badiiy

asarlarda qahramonning qaysi hudud vakili ekanligini tasvirlash maqsadida qo'llaniladi. Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy, Payariq, Qo'shrabot, Nurabot, Kattaqo'rg'on, Ishtixon tumanlarida (qishloq aholisi shevasida ko'proq) ota so'zi oldidan katta so'zini qo'llash orqali bobo ma'nosi ifodalanadi: kattaota, kattata, kattaata shaklida. Akdemik Sh. Shoabdurahmonov Toshkent shevasi haqida fikr bildirib, dada so'zining bobo ma'nosini ifodalashini ham qayd etgan [3]. Voha xalqi nutqida ota so'zining ota shevaga xos shakli ham uchraydi.

Badiiy asarlarda, xususan, xalqdostonlarida ota so'zining xalqimiz madaniy- ma'naviy qiyofasi, tarixiy an'alariga muvofiq ishlatilishi kuzatiladi. Ota konseptining xalqimiz xalq og'zaki ijodidagi qo'llanilishi xalqimiz xos milliy- madaniy, kognitiv xususiyatlarni ham namoyon etadi. Zero o'zbek xalqida ota konsepti xulq- atvor, milliy mental munosabatlar zahirida shakllangan.

O'zbek xalq dostonlaridan biri-"Ravshan" dostonida ota konseptining pragmatik ifodalanishiga e'tibor qaratsak:

Otang keldi sening so'zing olmoqqa,

Ko'nglidagi sirni bayon qilmoqqa,

Shu sababli mehmon keldim uyingga:

Hasan man o'zingni quad qilmoqqa.

Bu she'r bandidan ayonki, Go'rog'li o'z niyatiga yetish maqsadida o'zining ota ekanligini eslatmoqda. Bu misrada ota so'zi har qanday ulug', keksa kishi ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, keying misrada boshliq, rahnomo ma'nosida qo'llanilgan:

Yetti yoshda olib keldim o'zingni,

Qo'limda ko'p yedingosh-u tuzimni,

Otang keldi bolam, o'zingga sovchi,

Ravshanga ber bolam Gulnorday qizingni!

Oxirgi bandda esa ota so'zi dada so'zi o'rnida qo'llanilib, farzandli er kishi ma'nosini ifodalagan. Zero xalqimizda shunday naql bor: "Ota rozi- Xudo rozi".

Otangning farzandim, tilin olinglar.

Hasanman o'zingni quad qilayin

Ravshangaber Gulnordayqizingni

Yovmitning eliga to'ylar berayin.

Ushbu murojaat shaklidagi she'rga Avazning she'riy javobi keltirigan bo'lib, Avazxonning otasiga munosabatiga orqali farzandning qonunan, tabiatan bitta bo'ladigan otasiga emas, sovchi, boshliq, keksa kishi ma'nosidagi otaga fikri qaratilganining guvohi bo'lamiz.

Ota, javobingni berdim, jo'nagin!

Bundan keyin sovchi bo'lib kelmagin!

Har kimni tengiga qo'sh-da, vallamat,

Menga bunday tuzsiz so'zni demagin!

Ushbu she'riy matnda keltirilgan vallamat so'zi ota ma'nosini ifodalab, pragmatik mazmuni yuzaga chiqargan. Vallamat orqali ham ota, ham Go'rog'liga munosabat ifodalangan. Ushbu dostonida bosh qahramontilidan "ota", "otajon", "Jonim ota" leksik birliklarining ishlatilishi ham pragmatik maqsadni ko'rsatadi. Bu orqali Ravshanning mehri, alami, iltimosi bilan bir qatorda uning xarakteri, psixikasi ham ochiq ko'rsatiladi:

Jonim ota, aytolmayman uyalib,

Bolang ketar endi boshini olib

Jon ota, alamim ko'pdir so'rmagin

Bekravshan jo'nadi safarga tolib.

Javobber, otajon yorga boraman,

Yor deyman-u nomus orga boraman

Ota, sendanoq fотиha tilayman,

Shirvon elda Zulxumorga boraman.

Doston so'ngida ham ota konsepti o'zbek xalqiga xos g'ururi baland, mard, oriyatli farzandli er kishi ma'nosida ishlatiladi, shuningdek, barcha otalarga xos mehr- muhabbat kabi umumshaxsiy tuyg'u ko'rsatiladi:

Uyquda bog'ladi nozik qo'limni,

Sog'indim otajon, Chambilelimni,
Tor zindonda "vo ota" deb yig'ladim
Ko'rdingmi, otajon, mening holimni?

Ushbu misralarda Ravshanning otasiga sog'inchi, mehri ifoda etilishi bilan bir qatorda otasi Hasanxonning jasur, mard va mehribon ota ekanligi ham anglashiladi.

Subyektiv baho formalari erkalash mazmunidan tashqari ardoqlash, qadrlash ma'nolarini ham ifodalab, Ravshanning g'o'r va tajribasiz bo'lsa-da or- nomusli yigit ekanligini ko'rsatadi:

Yo'lingda intizor bo'ldim, otajon
Baloga giriftor bo'ldim, otajon
Dushmanga xor-zor bo'ldim, otajon
Bir ko'rmoqqa xumor bo'ldim, otajon.

Shuningdek, ushbu dostonida ota so'zi o'rnida mehribonim leksemi ishlatilgan. Hasanxonning uzoq yo'lni qisqa fursatda bosib o'tib uni qutqargani kelgani unda yuksak otalik mehri bor ekanligini ko'rsatadi. Dostonida ota konsepti xalq milliy ruhida namoyon bo'ladi [4].

Xulosa. Badiiy asarlar xalqimizning chinakam xazinasini bo'lib, ota kabi so'zlarning turli tuman variantlarini xalqimizdan olib, pardoqlab xalqimizga taqdim etadi. Har qanday badiiy asar milliy konseptosferaga ega mental munosabatlar natijasidir. Zero konseptlarni tahlil qilish bu ma'lum bir xalq milliy o'ziga xosligini ochish demakdir. Ota

konsepti bizning xalqimiz tafakkurida biz yuqorida sanagan ma'nolarda assotsiatsiyalanadi. Bugungi kunda tilshunslar filologik tadqiqotlarni poetik asarlar doirasida olib borishi ham lingvistik, ham badiiy bilimlarning ortishiga sabab bo'lmoqda. Zero bu ikki fan ajralmas, hamkorlikdagi sohadir. Har qanday konseptni yuzaga chiqishi psixik, kognitiv jarayondir. Konsept orqali xalq madaniyati, xalq madaniyati orqali esa konsept tanglashiladi. Har qanday konsept tarixan tarkib topgan qarashlar, mental munosabatlar va mushtarak g'oyalar samarasidir. Ravshan dostoni tahlilidan anglashiladiki, ota konsepti rang- barang leksemalarda ifoda etilib, xalqimizga xos milliy madaniy, mental xususiyatlarni ifoda etadi. Otani ulug'lash, qadrlash va rozi qilish kabi tamoyillar konseptosferani to'ldirib turadi. Ushbu dostonida Hasanxonning kuchli, jasur, mard va or-nomusli kishi ekanligi ota konsepti orqali yorqin ochib berilgan. Demak, haqiqiy otaga xos bo'lgan xususiyatlar: mehribonlik, jasurlik va or-nomusli bo'lishlikdir. Ota konsepti umumbashariy mazmun ifodalasa-da, o'zbek xalqida bolalikdanoq shakllanadigan milliy xulq- atvor normalari bilan bog'langan tushunchadir.

O'zbek tilshunosligida konsept va konseptosfera bilan bog'liq qilinishi kerak bo'lgan tadqiqotlar hali talaygina. Bu kabi tadqiqotlar natijasida tilimiz xazinasini yanada jilolanadi va taniladi.

ADABIYOTLAR

1. Кубрякова Е.С. и др. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: изд-во МГУ, 1996. – С. 97-99.
2. Mamatov A. O'zbek tili leksikologiyasidan materiallar. -T. 2009. - 65 b.
3. Adabiyot (7-sinf darslik). Toshkent, 126-152-bet.
4. Majitova S. The lexical subtleties of some letters of arabic alphabet in gazelles of Djami. International Journal of Science and Research (IJSR), INDIA, Volum 7. 2018/5.
5. Majitova S.J., Aminova D.Sh. The linguistic significance of the father concept. Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595).
6. <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/9094>



Shamsiya ATOYEVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti,

E-mail: atoyevashamsiya31@gmail.com

CONTENTS OF TAZKIRA "MAJOLIS UN-NAFOIS" AND "HASHT BEHISHT"

Annotation

This article is about the structure and content of Alisher Navoi's "Majolis un-nafois" and "Hasht Behisht" of Sahiy Bey, the founder of Ottoman Turkish tazkirnavis. In the course of the research, we will get acquainted with the internal structure of both works, mainly with the content of the preface and preliminary meetings of the sources.

Key words: Tazkira, tradition of tazkira, poets, assembly, class, paradise, analysis.

"MAJOLIS UN-NAFOIS" VA "HASHT BEHISHT" TAZKIRALARINING MAZMUN-MUNDARIJASI

Annotatsiya

Ushbu maqola Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" va Usmonli turk tazkirnavisligining asoschisi Sahiy Beyning "Hasht behisht" tazkiralari strukturasi va mazmun-mundarijasi xususida. Tadqiqotda davomida har ikkala asarning ichki tuzilishi, asosan, manbalarning muqaddima va dastlabki majlislarining mazmun-mohiyati bilan tanishib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Tazkira, tazkirachilik an'anasi, shoirlar, majlis, tabaqa, behisht, tahlil.

СОДЕРЖАНИЕ ТАЗКИРЫ «МАЖОЛИС УН-НАФОИС» И «HASHT BEHISHT»

Аннотация

В данной статье речь идет о структуре и содержании «Мажолис ун-нафоис» Алишера Навои и «Хашт беҳишт» Сахий-бея, основателя османско-турецкого тазкирнавеса. В ходе исследования мы познакомимся с внутренней структурой обеих работ, главным образом с содержанием предисловия и предварительных собраний источников.

Ключевые слова: Тазкира, традиция тазкира, поэты, собрание, класс, рай, анализ.

Kirish. O'tmishdagi voqea-hodisalar, siyosiy vaziyat, adabiy muhit haqida ma'lumot beruvchi eng muhim manba, shubhasiz, o'sha davrda yaratilgan adabiy asarlaridir. Ayniqsa, tarixiy shaxslar, ijodkorlar, ularning faoliyati borasidagi ma'lumotlar devonlar, masnaviyalar, shoir biografialari orqali yetib keladi. Bular orasida tazkiralarning alohida o'rni mavjud.

Tazkira-shoirlar, ba'zi olimlar va azizlar hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar, ularning ijod namunalaridan iborat tarixiy-adabiy to'plam. Mumtoz adabiyot tarixida shoirlar va shayxlar haqida ma'lumot beruvchi bir qancha tazkiralalar mavjud.

Tazkirada shoir hayoti haqida ma'lumot berilib, ularning ijodi va shaxsiyatiga baho beriladi, asarlaridan namunalar keltiriladi. Bu jihatdan unda adabiy tanqid bor, deya olamiz. O'z navbatida, ijodkorlarning xronologik tartibda joylashuvi ham muhim ahamiyatga ega. Tazkira ma'lum davr haqida ma'lumot beruvchi ko'zgu vazifasini ham o'taydi.

Tazkirada ijodkorlarning tanlanishi, ularning asarlaridan parchalarning berilishi ham muallifning didiga bog'liq. Tazkiralarda tasvirlangan shaxslar yoki buyumlarga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Shoirlar haqidagi tazkiralarda davr shoirlarining vaqt o'tishi bilan unutilishga yo'l qo'yimaslik va ularni eslab qolish uchun yozilgan asarlardir.

Turkiy adabiyotdagi tazkira janrining ilk namunasi Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asaridir. Navoiyning bu asarini Hirotda Fahri Xiraviy "Latoyifnoma" nomi bilan fors tiliga, Hakimshoh Muhammad Qazviniy esa Onado'lida fors tiliga tarjima qilgan.

Navoiy bu asarni Jomiyning "Bahoriston" va Davlatshohning tazkiralari misol qilib sakkiz bobda yozgan. Har bir boblar "majlis" deb nomlanadi.

E'tiborli jihati shundaki, Navoiy o'zi tilga olgan kishilarning shoirlilik qobiliyati bilan birga ularning insoniy va

axloqiy fazilatlarini ham baholaydi. Asarda shoirlarning aksariyati she'rlarini fors tilida yozgan turk shoirlaridir. Bu jihatdan asar fors adabiyoti tarixi uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

O'z navbatida, professor Mustafo Esan ta'kidlagandek, Alisher Navoiy bu asari orqali ko'plab tazkiralarning yaratilishi uchun o'rnatilgan vazifasini bajardi.

Hirotda shakllangan tazkirachilik an'anasi Usmonli turk adabiyoti tazkirachiligi uchun namuna vazifasini bajardi. Usmonli turk tilidagi tazkirachilik Sahiy Beyning "Hasht behisht" asari bilan boshlanadi. Sahiy bey ham Jomiyning "Bahoriston, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" va Navoiyning "Majolis un-nafois" asarlaridan ta'sirlanib yozilganini qayd etgan bo'lsa-da, XVI asargacha rivojlangan adabiy muhitni birlashtirish zaruriyati hamda adabiy ehtiyoj sababli ham yozilgan asardir.

"Hasht behisht" tazkirasini strukturasi, mazmun-mundarijasi haqida to'xtalishdan avval muallifning hayot yo'lga qisqacha nazar tashlab o'tsak.

Shoir va ilk tazkira muallifi Sahiy Bey Edirnada tug'ilgan. Sahiyning haqiqiy ismi, tug'ilgan joyi, oilasi va ta'limi haqida ma'lumot yetib kelmagan. Faqat Sahiyning Abdulloh o'g'li sifatida qayd etilishini hisobga olsak, otasi musulmon bo'lmaganligi ma'lum. U haqida ko'p ma'lumot yetib kelmagan. 955/1548-49-yilda 80 yoshida vafot etdi. Ushbu ma'lumot 875/1470-71-yillarda Fotih davrida tug'ilganligini tasdiqlaydi[8]. XV asarning buyuk shoirlaridan Nejatiy Bey bilan munosabati yaxshi bo'lgan. U bilan doimiy birga yurgan. Nejatiy Bey, Sulton Boyazidning o'g'li shahzoda Mahmud Manisa gubernatorligi vaqtida uning ustoz bo'lgan. Shu paytda Sahiy Bey Nejatiy Beyga qo'shilib, Manisa ketadi va umrini kotiblik bilan o'tkazadi. Shahzoda vafotidan so'ng Istanbulda ishini davom ettirdi. So'ngra Sulaymonning shahzodaligi vaqtida unga kotiblik qildi (1520-yilgacha). Manisa va Edirnada yetti yil uning xizmatida yurdi. Sulaymon

sulton bo'lgach, sipohlik, diniy tashkilotda xizmatchilik kabi turli lavozimlarda faoliyat olib bordi. Sahiy Bey umrining so'nggi o'ttiz yilini valiylik maoshi bilan Edirnada yolg'izlikda o'tkazadi. Shu yerda asarini yakunlaydi va Sulton Sulaymonga taqdim etadi. Ammo Onado'lida shoirlar haqida dastlabki tazkira bo'lishiga qaramay, Sahiy Bey o'zi kutgan e'tiborni qozona olamadi. Shoir 1548-yilda saksondan oshib Edirnada vafot etdi.

Sahiy Bey sohibi devon bo'lishiga qaramay tazkirasini bilan mashhur bo'ldi. "Hasht behisht" Onado'li shoirlarining ilk biografiyasi sifatida 1538-yilda Edirnada yakunlangan.

"Tazkirayi Sahiy" nomi bilan ham tanilgan "Hasht behisht" muqaddima, har biri "behisht" deb atalgan sakkiz qatlam va epilogdan iborat. Arab adabiyotidagi an'ananing davomi bo'lgan bu tizimda qatlamlar forscha raqamlar bilan nomlanadi. Har bir qatlamning boshida ushbu qatlam uchun tushuntirish va har bir qatlam oxirida tavsif qismi mavjud.

Quyida "Hasht behisht" ning qisqacha mazmun-mundariyasi va strukturasi bilan tanishib chiqamiz. Sahiy Bey asar yozish jarayonida Navoiyning "Majolis un-nafois"idan andaza olgan bo'lsa-da, uning ham o'z uslubi ko'zga tashlanadi. Sahiy Bey Navoiydan farqli o'laroq 1-tabaqani Qonuniy Sulton Sulaymonga vasfiga bag'ishlaydi. Keyingi qismlarda yana orqaga qaytish usuli orqali o'zidan oldingi ijodkorlar haqida to'xtalib o'tadi.

2-tabaqada Sulton Sulaymongacha she'r yozgan devoni bor shahzoda va sultonlar haqida yozadi. 3-tabaqada esa davlat amaldorlarini o'z ichiga olgan vazirlar, askarlar, beklarga bag'ishlanadi. Bular orasida olamdan o'tgan va hali hayot bo'lgan shoir- amaldorlar bor. Shoirlar soni nusxalarga ko'ra farqlanadi. Bu qatlamning 1-shoiri Ahmad posho bo'lsa, so'nggisi Ahmad Beydir.

4-qatlamda fozil shoir va olimlar haqida fikr yuritiladi. Bu tabaqa Xizir Bey bilan boshlanib Mavlono Lamiy bilan yakunlanadi.

5-tabaqada Sahiy tazkirasini yozayotganida vafot etgan ijodkorlar haqidadir. Sahiy, bu shoirlarining hayoti va sarlarini o'z izlanishlari natijasida yozgan. Bu qatlamda 33 ta shoir tilga olingan bo'lib, dastlabkisi Mavlono Shayxiy oxirgisi Kivomiyydir.

6-qatlamda eng ko'p shoirlar zikri keltirilgan bo'lib, bunda yaqindagina vafot etgan shoirlar ham Sahiy o'zi suhbatdosh bo'lgan va do'st tutingan qalam ahli haqida aytib o'tadi. Bu tabaqaning ilk shoiri Nejatiy so'nggi Mavlono Makamidir.

Sahiy o'zi tanigan, o'zi bilan zamondosh bo'lgan shoirlar haqida 7-tabaqada aytib o'tadi. Bularning ba'zilari endigina ijod maydoniga kelgan bo'lsa, ba'zilarini muallifning o'zi shaxsan tanirdi. Bu qatlamda ikki ayol shoirlarning nomi ham tilga olinadi. Qatlam Mavlono Zotiy bilan boshlanib Mihriy xotun bilan yakunlanadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, tazkiraga ayol ijodkorlarning ham kiritilganligi Sahiyning yangiligi hisoblanadi. Biz bu holatni "Majolis un-nafois"da kuztmaymiz.

8-tabaqada nomlari endigina tanila boshlagan va Sahiy iste'dodli deb bilgan yosh shoirlar haqida aytib o'tadi.

Asarning xotima qismida Sahiy o'ziga xitob qilib, Qonuniy Sulton Sulaymonni madh etishi lozimligini aytib o'tadi. Asarning madh qismidan so'ng nasr qismida Onado'li va Istanbulda ko'p shoirlar borligini ta'kidlaydi, ammo bularning hammasini zikr etishga imkon bo'lmaganligini aytib, asarning yakunlanishi 945/1538-yilligini yozib, tazkirani Qonuniy Sulton Sulaymonga bag'ishlab yozgan ikki bayti bilan yakunlaydi.

Yuqorida Sahiy Bey tazkirasini strukturasi bilan qisqa tanishib o'tdik. Endi bevosita ikki asar ("Majolis un-nafois" va "Hasht behisht") muqaddimasi va tazkiralar bag'ishlangan hukmdorlar haqidagi majlislar izohiga o'tamiz.

Har ikkala tazkira ham Ollohga hamd va Muhammad (s.a.v)ga na't bilan boshlangan. Shundan so'ng o'zlarigacha bo'lgan tazkiranavislar ham birma-bir eslab o'tilib, ularning mahoratlarini e'tirof qilingan. Jumladan, "Majolis un-nafois"ning muqaddimasida Hazrati mahdumga shunday ta'rif berilgan:

Ulkim bu to'quz falakni aql etsa xayol,
Daryoi ulumig'a topar qatra misol,
To chashmai ta'bi dahr aro ochti zulol,
Hayvon suyi yanglig' ayladi molomol[7].

Nazm ilmi qoyillari va she'r fani komillarining nomlari, axloqiy sifatleri zamon va davron sahifasidan yo'q bo'lib ketmasligi uchun kitob tuzganlarini ta'kidlaydi. Shuningdek, Hazrat Navoiy: "Mundoq buzurgvor oliy miqdor "Bahoriston" otlig' kitobidakim, sekkiz ravza ochibdur v sekkiz ravzai jannat alar xijolatidin el ko'zidin ixtifo pardasig'a qochibdur..."[7] deya Jomiyning tazkirasini sakkiz jannatdan tarkib topganligi va unga "Bahoriston" nomi qo'yilganini aytib o'tadi. So'ng Amir Davlatshohning ham Sultoni Sohibqironga "Tazkirat ush-shuaro" otlig' kitob bitganligi eslandi. Oxirida Navoiy o'z asarining tarkibiga to'xtaladi. "Chun bu maqsudg'a yetildi, oni sekkiz qism etildi va har qismi nafis bir majlisg'a mavsum bo'ldi va majmu'ig'a "Majolis un-nafois" ot qo'yuldi"[8]. Nihoyat quyidagi misralar bilan asar muqaddimasiga yakun yasaydi.

Bu tuhfaki xushmen ibtidosi birla,
Ham nazm latoyifi adosi birla,
Ummid bukim, umr vafosi birla,
Xatm aylagamen shoh duosi birla[8].

Onado'lidagi tazkiranavislikni yo'l boshchisi Sahiy Bey "Hasht behisht"ning muqaddimasida hamd va na't qismidan so'ng Navoiy singari o'zigacha bo'lgan ijodkorlarni hurmat bilan tilga oladi. Jumladan, Abdurahmon Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy va Alisher Navoiylarni birma-bir xotirlashdi. Navoiyning Sulton Husayn Boyqaronning vaziri va suhbatdoshligini ta'kidlab, asariga quyidagicha ta'rif beradi: "...bu cümleyi sekkiz meclis idüp Mecalisü'n-nefa'is diyü ad vermiş. Insaf bu ki her meclisi bir cennet ve her beyti nigar-hane-i Çini gibi purnakş-suret kilup bir vech ile arayış ve bir şure ile işler itmiş..."[7].

Sahiy Bey ham ularga ergashib, bir asar tartib qimoqchiligini aytadi. Bu asarni yozishda Ollohdan najot so'raydi.

Ya Rab bu benüm şî'rümi payan yetişdür
Lutf eyle sözüüm gayet-i imkana yetişdür
Halümden ana yanmaga iy Asaf-i devran
Ben muri meded şah Süleymana yetişdür

Ve bu risalenün esasi sekiz tabaka üzre tertib ve semaniye misalinde sekiz tetimme ile tehzib olup Heşt Bihişt diyü tesmiye olundi[7]. Sahiy Bey hm o'zidan oldingi salafllari singari tazkirasini sakkiz qismdan iboratligini aytib o'tadi.

Alisher Navoiy Sahiy Beydan farqli o'laroq "Majolis un-nafois"ning sakkizinchi majlisini Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlaydi. Shoir Sultonning saxovati, shijoati, adolati, muruvvatini shunchaki ta'riflab o'tmaydi.

Kim, mulki davomi to'qiyomat bo'lsun,
Zotig'a bu mulk uzra iqomat bo'lsun,
Adl ichra tariyqi istiqomat bo'lsun,

Olam ahli uchun salomat bo'lsun[7]. Balki uning she'riyatda ham balog'atga yetganini ijodidan namunalar keltirish orqali kitobxonni sergaklantiradi. "Ul Hazratning xub ash'ori va marg'ub abyoti bag'oyat ko'ptur va devon ham murattab bo'lubtur. Devon ibtidosidin bunyod qilildi va har g'azaldin bir matla' yozildi..."[7]. Sakkizinchi majlis davomida Husayn Boyqaroning devonidan parchalar keltirilib izohlab ketiladi. Izohlash jarayonida Sultonning boshqa ijodkorlardan farqli jihati yoki ijodining o'ziga xos holatlari ham ta'kidlanadi. "Bu qofiya va radif hazrat Sulton

Sohibqironning ixtiro'idurkim, hech nazm aytilmaydur va hech devonda bitilmaydur:

Ohkim, hijron o'tidin kuydi jonim o'zga nav',
O'rtadi ofoqni o'tluq fig'onim o'zga nav'"[7].

Ba'zi o'rinlarda she'r bahsida hech qaysi shoirlarning
ul hazratga ayta olamaganini eslab, matla' keltiradi:

Hajring o'ti jismi zorim qildi kul, ey yor, bil,
Gar bino qilsang mazorum tarhin ul kul birla qil[7].

Ayrim o'rinlarda hatto Navoiyni ham ortda qoldirganligini kamtarona tilga oladi. Shuningdek, Husayn Boyqaroning qofiya va radifda ixtirolari ham ayrim o'rinlarda aytib ketiladi. E'tiborli jihati shundaki, Husayn Boyqaroning o'z davrining malik ul-kalomi Mavlo Lutfiy bilan ham mushoiraga kirishgani va ul hazratni ham lol qoldirgani misollar yordamida isbotlangan. Bundan tashqari Mavlono Lutfiyni lol qoldirgan, Navoiyni ham xushhol qilgan Mir Xusravning o'sha mashhur hinducha ash'ori (g'oyat nozuklugidin yog'in rishtasin madadi bila tutub qo'pmish bo'lg'ay)ga o'rinli e'tiroz bildirishi Sulton Boyqaroning ham nozik didli ijodkorligidan dalolat beradi, albatta.

"Dedilarkim, ul e'tiroz budurkim, ul yog'in qatrasini yuqoridin quyi inib keladur, muqarrardurkim, rishtasig'a dag'I hamul holdur. Rishtaikim, mayli quyi bo'lg'ay, aning madadi bila yiqiladurg'on o'zin asramog'i maholdur..."[7]. Shunchaki e'tiroz bildirish bilan kifoyalannmay, O'z variantini ham keltiradi:

Za'fdin kulbamda qo'pmoq, istasam aylar madad,
Ankabute rishta osqon bo'lsa har devorg'a[7].

Sakkizinchi majlisda nafaqat sulton Boyqaroning shoirligi, balki uning Mavlono Qobuliy bilan bog'liq voqea misolida husni xulqi, baland idroki va zehni tahsinga sazavorligini ta'kidlaydi. Voqea quyidagicha:

Mavlono Qobuliy ismli kichik yosh yigit Qunduz va Hisor tarafidan kelgan edi. Ta'bi turkiy va forsiy nazmga muloyim edi. Bir matla' aytdi:

Na'l kestim dardi afzun bo'ldiyu kam bo'lmadi,

Dog' qo'y dum so'zi kam bo'lg'ay debon, ham bo'lmadi.

Dedimkim, mundin yaxshiroq qofiya bog'lasang,
bo'lur erdi, faqir ul qofiyani bog'ladim:

Sarv moyil bo'ldikim, o'pgay oyog'ing tufrog'in,
Yo'qsa har soat sabo tahrکیدin xam bo'lmadi[7].

Xullas, Qobuliy bu baytni Husayn Boyqaro huzurida o'qiydi, Sulton ikkinchi bay tuning nazmidan emasligini tezgina anglab oladi, ammo majlis oldida yosh yigitni izza qilmaslik uchun indamadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Sahiy Bey tazkirasining tabaqalarini forscha nomlaydi.

Ijodkor asarning dastlabki tabaqasini zamona shohi Qonuniy Sulton Sulaymon madhiga bag'ishlaydi.

Beyt: Adalet tahtinun Nuşin-revani
Mürüvvet kaninun şah-i cihani[8]

Sulton Sulaymonning adolatli, muruvvatli shoh ekanligini ta'kidlab, uzoq yillar davomida jahon mulkini nizom va intizom bilan boshqarganini e'tirof etadi.

Birinch tabaqaning "tetimme", ya'ni tavsif qismi shundayki, bu asarda jam bo'lib nomi tilga olingan Sulton Sulaymon va boshqa adolatli shohlar, aziz shoirlarni har biri tug'ilganliklariga ko'ra tartib berilib yozilganligi aytib o'tilgan. Shuningdek, bu tazkira Qonuniy Sulton Sulaymonning topshirig'i bilan yozilganligi ham eslatib o'tilgan. Sahiy Bey birinchi tabaqaning tavsif qismiga quyidagi qit'a bilan yakun yasaydi.

Evvel yazilsa n'ola bu meclisde padişah

Zat-i şerifi cümleden öndür ne iştibah

Şeh-zadelerle kendü vücud –i şerifini

Ta haşre dek bu cümlesini sakla ya İlah[8].

Demak, bundan ko'rinadiki Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasini Usmonli turk tazkiranavislining shakllanishi uchun turki vazifasini bajargan. Har ikki tazkiralarning mazmun-mundariyasi va strukturasi bilan ma'lum bo'ldiki, "Majoli un -nafois" va "Hasht behisht" tazkiralarning mushtarak jihatlari bilan birga o'ziga xos jihatlari ham mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Oybek. Navoiyning "Majolis un-nafois" asari haqida.-Toshkent, 1979.-215 b
2. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati,-Toshkent, 1989. -211 b
3. Hayitmetov A. "Majolis un-nafois" haqida ba'zi mulohazalar.//O'zbek tili va adabiyoti masalalari.-Toshkent,1958. N 1.
4. G'aniyeva S. "Majolis un-nafois" asariga tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn.-Toshkent:Fan, 1966.-176 b.
5. G'aniyeva S. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois": ilmiy-tanqidiy matn.-Toshkent, 1961.-242 b.
6. Isen M. Tezkireden Biyografi ye. – Istanbul:Kapi Yayinlari, 2010. S.51-52.
7. Hast-Behist. Haz. Gunay Kut. — Harvard,1978. S. 77.
8. Navoiy A. To'la asarlar to'plami. 9-jild,-Toshkent, 2013.-768 b
9. Sahiy Bey . Hasht behisht. –Anqara, 2017.-269 b



Oysulov BADIKOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: shohbegim@list.ru

ADChTI dotsenti v.b., PhD D.Qozoqboyeva taqrizi asosida

RAVISHLARNING FUNKSIONAL-STILISTIK IMKONIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada ravishlarning nutq uslublari doirasida qo'llanishdagi o'ziga xos funksional-stilistik imkoniyatlari tadqiq qilingan. Ravishlarning uslubiy bo'yoqdorlikka ega bo'lish yoki muayyan uslubga xoslanish jihatlarga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: Badiiy uslub, so'zlashuv uslubi, publitsistik uslub, faol ravishlar, nafaol ravishlar, okkazional ravishlar, dialektizga zos ravishlar, ravishlar sinonimiyasi.

FUNCTIONAL-STYLISTIC POSSIBILITIES OF APPROACHES

Annotation

In this article, the specific functional and stylistic possibilities of ravishes in their use within speech styles have been studied. The attention was paid to the aspects of ravishes having stylistic color or characteristic of a certain style.

Key words: Literary style, speech style, journalistic style, active idioms, passive idioms, occasional idioms, dialectical idioms, synonyms of idioms.

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОДХОДОВ

Аннотация

В данной статье изучены конкретные функциональные и стилистические возможности речевых оборотов при их использовании в рамках речевых стилей. Внимание было обращено на аспекты изнасилований, имеющие стилистическую окраску или характерные для определенного стиля.

Ключевые слова: Литературный стиль, речевой стиль, публицистический стиль, активные фразеологизмы, пассивные фразеологизмы, окказиональные фразеологизмы, диалектические фразеологизмы, синонимы фразеологизмов.

“Til – faqat amaliy qo'llanishdagina tildir”, - deb yozadi G.O.Vinokur. Shu nuqta nazardan, til birliklari, xususan, ravishlarni nutqiy vaziyatga xoslanish darajasi, bo'yoqdorlik xususiyatiga ko'ra farqlash, fikrni sodda, ixcham, aniq, tushunarli yetkaza olish maqsadida muvofiq variantini tanlash kabi qator masalalar ravishlarning funksional-stilistik imkoniyatlarini o'rganishni taqozo etadi. Ma'lumki, an'anaviy tilshunoslikda nutqiy xoslanishning so'zlashuv, publitsistik, rasmiy, ilmiy va badiiy uslub turlari farqlanadi. Ravishlarning ana shu uslublari doirasida qo'llanish darajasini aniqlashga harakat qildik. Salmoqli nashrlardan biri hisoblangan “O'zbek tili stilistikasi” [5], “O'zbek tilining amaliy stilistikasi” [6] qo'llanmalarida ot, sifat, son, olmosh, fe'l stilistikasiga oid mavzular alohida yoritilgani holda ravish stilistikasi e'tibordan chetda qolganligi bu boradagi tahlillarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Yirik uslubshunos olim Suyun Karimov ham “ravishlarning grammatik xususiyatlari haqida deyarli barcha darsliklar va o'quv qo'llanmalarida so'z yuritilganligiga qaramay, ularning stilistik xususiyatlari to'g'risidagi fikrlarni deyarli uchratmaymiz, o'zbek tilida ravishlar uslubiyati va meyor haqida olimlarimiz haligacha o'z mulohazalarini bildirishgan emas”, deya e'tirof etadi [1].

S.A.Karimovning “O'zbek tilining grammatik stilistikasi masalalari” ma'ruzalar matni to'plamida ravishlar sinonimiyasining uslubiy xoslanish imkoniyatlari uning ma'no turlari doirasida batafsil tahlil qilingan. Olimning xulosasiga ko'ra, ravishlarda harakatning alohida belgi-xususiyatlarini ko'rsatish bilan birgalikda, bu xususiyatlarni so'zlovchi yoki yozuvchining bu harakatlarga subyektiv munosabatini ifoda etuvchi imkoniyatlar ham mavjud. Bir harakat belgisini ko'rsatadigan yoki ravishlar yasaydigan qo'shimchalarning bir

necha variantlari mavjud bo'lishi ularning sinonim tarzda qo'llanilishi va bu qo'llanilishda stilistik ottenkalarining farqlanishi hamda uslublarga xoslanishini ko'rsatadi [1].

S.Hakimjonovanning “O'zbek tilida holat ravishlarining uslubiy xususiyatlari” nomli maqolasida [1] holat ravishlari o'zining ma'no nozikliklarini nutq uslublari to'la namoyon etishi, ularni o'z o'rnida to'g'ri qo'llay olish nutqning ta'sirchanligini oshirishi haqida faktik misollar asosida fikr yuritilgan. Biroq, maqolada ayrim ravishdosh (jadallab, lop etib.) va sifat (yaxshi, xomush)ga oid leksemalarning ham ravishlar sinonimiyasi qatorida berilishi, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ravishlarning boshqa so'z turkumlari bilan munosabatdoshlikdagi o'xshashlik, yaqinlik muammosi bilan bog'liqdir. Bunda ravishdosh va sifatlarning ham fe'lga bog'lanib, harakat va holatning belgisini bildirib kela olish xususiyati ba'zan chalkashlikka olib keladi. Bu esa ravishlarning murakkab tabiati ularni tahlil qilishda sinchkovlik bilan yondashish kerakligini ko'rsatadi.

Ravishlarni nutq uslublari doirasida tahlil qilganimizda quyidagi holatlar kuzatildi: 1. Ravishlar eng ko'p qo'llanadigan uslublari bu badiiy va so'zlashuv uslubidir. 2. Badiiy uslubning alohida jihatlari shuki, unda uslubiy bo'yoqdor va okkazional ravishlar, muallif variantlari hamda subyektiv baho ottenkali ravishlar faol qo'llanadi. 3. So'zlashuv uslubida ravishlarning noadabiy meyorlashgan variantlari hamda varvarizm shakllari keng qo'llanadi. 4. Publitsistik uslubda, asosan, adabiy tilga xos kitobiy ravishlar qo'llanadi. 5. Sabab va maqsad ravishlari nafaol ravishlar hisoblanadi.

Badiiy uslubda iqtidorli yozuvchi va shoirlar tomonidan qo'llangan individual okkazional ravishlar yoki

jonli xalq tiliga oid uslubiy xoslangan ravishlarni ko'plab kuzatish mumkin.

Lutfinisana yangigina sinkali suvdan chiqqan ko'ylaklarni dorga yo'yarkan: "bilmasam", deb qo'ydi. (S.Ahmad, "Ufq") Ushbu jumladagi yangigina sifati kontekstda ravishga xos "hozirgina", "endigina" ma'nolarini ifodalab, jonli xalq tilining stilistik imkoniyatlari naqadar boyligini ko'rsatadi, -gina affiksi esa hissiy bo'yoqdorlikni yanada oshirgan.

Chol ketarkan minnatdorlik bildirdi. – Zap ish qilding-da, Ikrom. Nevaram bo'ynimga osilib chuldiraydigan bo'ldi. (S.Ahmad, "Ufq")

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da zab (so'zlashuv uslubiga xos fonetik varianti – zap) leksemasi sifat, ravish va yuklama sifatida izohlangan.

Zab 1. sft. Nihoyatda yaxshi, xo'b; ajoyib, zo'r. Bu yer zab joy jan-da; 2. rvsh. Nihoyatda, juda ham. Qizlar kulishdi: "Salimaxon, o'zingizga ham kelinlik zab yarashar ekan-da"; 3. yukl. Naq, ayni, xuddi. - Hoshimjon, zab vaqtida keldingiz-da, - dedi bir kun Farmonqul aka Qobilovga. (ЎТИЛ, 2-жилд, 140-б.)

Yozuvchi Said Ahmad Zap ish qilding-da, Ikrom jumlasida chol nutqida ravishning so'zlashuv uslubiga xos variantini qo'llab, ifodaning jonli va ishonarli chiqishiga erishgan.

O'z asarlarida sheva elementlarini muvaffaqiyatli qo'llab, asarlari jozibadorligiga erishgan yozuvchilardan yana biri Shukur Xolmirzayevdir. Uqishdai ham guppa yiqilib kelibsiz deb eshitdim. (SH.Xolmirzayev, "Arpali qishlog'ida")

Guppa 1. guppa tashlamoq. Zarb bilan yiqilmoq; zarb bilan o'zini otmoq. Katta oqar suvni sira kechmagan qozoqiy cho'l oti qamchi zarbidan o'zini guppa daryoga tashladi. A.Hakimov, Ilon izidan. (ЎТИЛ, 1-жилд, 527-б.)

Shu o'rinda bir mulohazani aytib o'tish lozimki, - a affiksi orqali taqlid so'zlardan ravish yasalishi kamunum bo'lganligi uchun bo'lsa kerak, e'tibordan chetda qolgan, darslik va qo'llanmalarda aks etmagan. Yuqorida berilgan misoldagi guppa ravishi shu usul bilan yasalgan: gup(p) +a, bunda tovush orttirilishi hodisasi ro'y bergan.

Gup taqlid so'z. Og'ir narsaning urilishi natijasida hosil bo'ladigan bo'g'iq ovoq haqida. (ЎТИЛ, 1-жилд, 527-б.)

Shevaga xos duvva ravishi ham shu usul bilan yasalgan: duv(v)+a.

Botir chavandoz duvva qizardi. (J.Kengboyev, "Mehmon")

Mayram opa fotiha o'qib, irg'ib turdi:

Men ertan-mertan ularning yurtiga boraman. (SH.Xolmirzayev, "Arpali qishlog'ida") Bu jumlada erta-indin ravishning sheva varianti ertan-mertan shaklida qo'llangan bo'lib, ifodaning o'ziga xosligini ta'minlagan.

Tadqiqotchi M.Qosimova Tog'ay Murod o'z asarlarida affikslarning yangi ma'no qirralarini kashf etib, jumladan, ravish turkumiga oid -ona affiksi asosida ham original okkazonalizmlar hosil qilganligi haqida fikr yuritib, bular matnning jozibadorligi, badiiy bo'yoqdorligi, hissiy ta'sirchanligini oshirishda muhim uslubiy vosita vazifasini o'taganligini ta'kidlaydi [3].

Ona affiksi fors-tojik tilidan kirib kelgan bo'lib, harakatning belgisini biror voqea-hodisaga o'xshatish, taqqoslash ma'nosidagi ravish yasaydi: mardona, qahramonona, olimona kabi. Tog'ay Murod kinoyaviy o'xshatish, taqlid ma'nosidagi «raisona», «raykmona», «kampirona», «amaldorona» kabi yangi so'zlarni yasaydiki, ular yozuvchining badiiy niyatini o'ziga xos tarzda ifodalashga, holatni yorqin tasavvur qilishga, personaj ruhiyatini bo'ttirib tasvirlashga xizmat qilgan.

Ma'lumki, badiiy uslubda personajlar nutqining originalligi va individualligini ta'minlash maqsadida

so'zlashuv uslubi elementlaridan keng foydalaniladi. M.Qosimova yuqorida aytib o'tilgan tadqiqotida Tog'ay Murod ijodiga xos dialektizmlarni so'z turkumlari bo'yicha tasniflar ekan, ravish so'z turkumiga oid sheva so'zlarini quyidagicha tavsiflaydi:

a) ana shu yoqqa - ashioyqqa shaklida: Sizdan oldin ashioyqqa bir balo o'tdi, - deydi bobomiz. (T.Murod, "Otamdan qolgan dalalar")

b) ortiqcha - oshiqcha shaklida: Shu boisdan Tarlonni oshiqcha zarbalamadim. (T.Murod, "Ot kishnagan oqshom")

v) mahalliy aholining so'z yasash usuliga asoslangan okkazonal ravishlar: Azonshomda bir dona shona tugdi. (T.Murod, "Otamdan qolgan dalalar")

Odami toltushda tamaki cheksa nima bo'ladi? (T.Murod, "Otamdan qolgan dalalar")

Shuningdek, olima adib ijodida ravishlarning ma'no jihatdan har qaysi turiga oid dialektizmlarni tasniflagan: 1) holat ravishi: salqi, yelvagay, sidirg'a, tayin, azzancha, ulay-bulay, ila-bila, sel-sebor, paydar-pay, illi-billa, elan-qaran, bosh-adog'iga, ilkis-ilkis, hadaha-hadaha, itirqin-itirqin; 2) payt ravishi: tag'in, boyagina, boyanagi, tonglay, bemavrid, ertamatan, elburutdan, eldan burun, saharlayin, halizamat; 3) o'rin ravishi: oftobiyor, oftobro'ya, eshik-ora, tevarak-girdi; 4) daraja-miqdor ravishi: xiyol, picha, do'rjiroq, kamchil, duyum-duyum, gartdak-gartdak; 5) sabab ravishi: beyoziqdan-beyoziq; 6) maqsad ravishi: ilkisdan [3].

Demak, bunday lingvopoetik yondashuvlar jonli xalq tiliga oid boy manbada foydalanishning uslubiy imkoniyatlarini har tomonlama o'rganishga yordam beradi.

Publitsistik uslubda qo'llangan ayrim ravishlarni tahlilga tortamiz.

Bu yo'l shu qadar chuqur ma'noga egaki, o'ylasam to'lib-toshib ketaman. ("Yangi O'zbekiston" gazetasi)

Ro'ziqul bobom Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Hamma nuroniylar qatori u ham har gal duoga qo'l ochganida Yaratgandan dastlab el-yurtga tinchlik, xotirjamlik so'rar edi. ("Yangi O'zbekiston" gazetasi)

Karra (arabcha – marta) Sanoq sonlar bilan qo'llanib, harakatnint son bildirgan mikdordagi takrorini bildiradi; marta. Yetilmog'i uchun u singari zot.. Bahor yuz karra gul ochmog'i lozim. (ЎТИЛ, 2-жилд, 378-б.)

Yuqoridagi misolda karrasiga ravishi muallif okkazonalizmi bo'lib, "birdan", "ko'p marta" semalarini ifodalashga xizmat qilgan va jumlaning ta'sirchanligini ta'minlagan.

Ravishga xos funksional xususiyatlardan yana biri shuki, bir ravish kontekstga ko'ra, turli ma'nolarni ifodalashi mumkin. "Ravishning ko'p ma'noliligi ularni LMGga ajratishda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, nari-beri ravishi o'rinni (Stollarni nari-beri surdik) va holatni (U nari-beri nonushta qildi) ifodalashi mumkin"[2].

Mazkur misollardagi yaqindan tanishish, yaqinroq tanishtirish birikmalaridagi yaqindan, yaqinroq ravishlari ham har biri kontekstda alohida ma'no anglatadi.

Yaqin [arabcha - haqiqiy bilim, qat'iy ishonch] 1. Oraliq masofa uncha katta bo'lmagan, uzoq emas. Eng yaqin yo'l — shu; 2. Nutq so'zlanayotgan paytdan vaqt oralig'i uncha katta bo'lmagan. Yaqin fursatda diydor ko'rishmoqni orzu qilamiz. (ЎТИЛ, 5-жилд, 129-б.)

Yaqin ravishi, odatda, makon va zamonga nisbatan, ko'chma ma'noda esa munosabatlar iliqiligi, yaxshiligi ma'nosida qo'llanadi. Yuqoridagi misollarda yaqindan tanishish, yaqinroq tanishtirish birikmalarida ana shu ko'chma ma'noning ma'naviy boylikka, jahon adabiyoti durdonalariga nisbatan qo'llanishi asosida yana bir sememasi yuzaga kelgan.

Lekin nima borligi oldindan ayon bo'lsa, yashashning qizig'i qolmaydi. (payt ma'nosi)

Oldinda va orqada bir qancha maxsus mashina bilan yo'lga chiqdik. (o'rin ma'nosi)

“Uzoqroq turganimda edi, qizg'aldoq va lola ochilgan mahal bir toqqa chiqardim”, - armon qilgan bo'ldi Yusuf. (payt ma'nosi)

Ba'zan ravishlar birikma tarkibida ko'chma ma'no anglatib, ibora shakllanishiga xizmat qilishi mumkin.

Nari rvsh. 1 So'zlovchidan yoki so'z borayotgan payt yo o'rindan uzoq, olis. (O'TIL, 2-jild, 18-b.)

Eng qiyin holatlarda “ket bu yerdan, halaqit berma” kabi o'zidan nari qilish bola tomonidan aynan quyidagicha qabul qilinadi: bola – halal beruvchi, uni qadrlashmaydi, undan halos bo'lishni hohlashadi.(Psixolog maslahatidan) (o'z ma'noda)

Ilmiy uslubda, ko'pincha, holat, payt, miqdor-daraja ravishlari xoslanganligi kuzatildi.

Talaba har bir manbani dastlab tanishish uchun o'qib chiqadi, keyin qaytadan sinchiklab o'rganadi. Agar talaba o'z

qo'li bilan ko'chirib olmoqchi bo'lsa, originaldan aynan ko'chirma olishga alohida e'tibor berishi kerak. (O'quv qo'llanma)

Elektromagnetizm bo'limining boshlanish qismida magnetiklarning magnit xossalari odamlarga tokning magnit xossalari nisbatan ancha ilgari ma'lum bo'lganini ta'kidlagan edik. Amaliy elektrotexnikada ishlatiladigan o'tkazgichlar simmetrik shaklga ega va ular bir tekisda zaryadlanadi. Bunday zaryadli tizimlar uyg'otgan elektr maydon kuchlanganligini Gauss teoremasi asosida hisoblash juda qulay. (“Fizika” darsligi)

Demak, ravishlarning har bir uslubiy xoslangan shakli o'z o'rnida va o'ziga xos tarzda muayyan stilistik imkoniyatlarga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov S.A. O'zbek tilining grammatik stilistikasi masalalari. Ma'ruzalar matni. Samarqand, 2012.
2. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006.
3. Qosimova M.B. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog'ay Murod asarlari asosida): filol.fan.nomzodi diss...Toshkent, 2007.
4. Hakimjonova S. O'zbek tilida holat ravishlarining uslubiy xususiyatlari // FarDU Ilmiy xabarlar.№4, 2019.
5. Shomaqsudov A, Rasulov I, Qo'ng'orov R, Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. T.: “O'qituvchi”, 1983.
6. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. Toshkent: O'ituvchi, 1992.



UO•K: 821.512.133.09-3

Axmad BAISOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
E-mail: a.baisov@cspi.uz

DSc, professor T.Kuchkarov taqrizi asosida

HARMONY OF THEME AND IDEA IN ENGLISH AND UZBEK STORYTELLING

Annotation

The principle of transition from tradition to non-tradition is prominent in Uzbek and English storytelling. Any artistic idea is a product of a certain period. In modern Uzbek and English narratives, loneliness, sufferings, betrayal, and family quarrels that befell mankind after the war are mostly seen. Our opinion is a clear proof of the efforts of the flag-bearers of existentialism to express the depressing nature of the human spiritual world. In order to clarify the direction of the new era storytelling, comparative research, and to clarify the controversial aspects, the large-scale concise expressions led to the cunning expansion of the boundaries of artistic thinking.

Key words: Theme, colonel, polyphonic, play, muqanna, siqiq.

ГАРМОНИЯ ТЕМЫ И ИДЕИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ПОВЕСТВОВАНИИ

Аннотация

Принцип перехода от традиции к нетрадиции ярко выражен в узбекском и английском повествовании. Любая художественная идея является продуктом определенного периода. В современных узбекских и английских повествованиях чаще всего встречаются одиночество, страдания, предательство и семейные ссоры, постигшие человечество после войны. Наше мнение является наглядным доказательством усилий знаменосцев экзистенциализма выразить удручающую природу духовного мира человека. Для того чтобы прояснить направление повествования новой эпохи, сравнительные исследования и прояснить спорные аспекты, масштабные лаконичные выражения привели к хитрому расширению границ художественного мышления.

Ключевые слова: Тема, полковник, полифонический, пьеса, муканна, сикик.

INGLIZ VA O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA MAVZU VA G‘OYA UYG‘UNLIGI

Anotatsiya

O‘zbek va ingliz hikoyachiligida an‘anadan – noan‘anaga o‘tish tamoyili ko‘zga tashlanadi. Har qanday badiiy g‘oya ma‘lum bir davrning hosilasi. Zamonaviy o‘zbek va ingliz hikoyachiligida asosan, yolg‘izlik, urushdan keyingi insoniyat boshiga tushgan ko‘rgiliklar, sotqinlik, oilaviy mashmashalar qabarib ko‘rinadi. Ekzistensializm bayroqdorlari inson ruhiy olamining tushkun manerasini ifodalash yo‘sinidagi izlanishlari fikrimiz yorqin dalilidir. Yangi davr hikoyachiligi qaysi yo‘ldan borishi, qiyosiy yo‘sinda tadqiq qilish, bahs-munozara uyg‘otadigan jihatlariga aniqlik kiritish maqsadida katta o‘lchamdagi ixcham ifodalar badiiy tafakkur sarhadlarini hiyla kengayishiga olib keldi

Kalit so‘zlar: Tema, polkovnik, polifonik, pyesa, muqanna, siqiq.

Kirish. Ingliz va o‘zbek hikoyachiligida mavzu va g‘oya uyg‘unligi adabiy an‘analarning turli-tumanligini ko‘rsatib beradi. Har ikkala adabiyotda ham mavzu va g‘oya uyg‘unligi muhim rol o‘ynaydi, ammo ular o‘z madaniy va tarixiy kontekstlariga qarab turlicha namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikka oid lug‘atda: “Mavzu (arabcha qo‘yilgan, tartibga solingan) – badiiy mazmun komponenti, asarda qo‘yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma‘naviy-axloqiy va boshqa muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali; tema. Adabiyotshunoslikda mavzu (tema) termini ikki ma‘noda ishlatiladi: 1) asarda tasvirlanayotgan hayot materiali; 2) asarda badiiy idrok etish uchun qo‘yilgan ijtimoiy, ma‘naviy-axloqiy, falsafiy va boshqa muammolar majmui. Ingliz hikoyachiligida mavzu va g‘oya uyg‘unligi ko‘pincha inson tabiatini, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni va shaxsiy erkinlik kabi masalalarni chuqur tahlil qilish orqali namoyon bo‘ladi. G‘arb adabiy-badiiy tafakkurining ta‘siri natijasida ijodkorlar yangidan-yangi ifodalarni kashf qildilar. Hikoyaga mavzu tanlashda ham, g‘oyaviy-badiiy o‘ziga xoslikka erishish borasida ham anchayin eksperimentlarni sinovdan o‘tkazdi.

Borliqdagi narsa-hodisalar Yaratganning iznisiz biror soniya harakatlanmaydi. Badiiy asardagi har qanday material

ham yozuvchi ishtirokisiz yuzaga chiqishi qiyin. Chunki uni harakatga keltiruvchi asosiy impuls yozuvchining olam va odam haqidagi tasavvurlari chekiga tutashadi. “Mavzu” (yoki “tema”) hozirga qadar ikki ma‘noda qo‘llanilib kelinadi. Ba‘zilar mavzu deganda asarni tasvirlash uchun tanlab olingan hayot materialini tushunadilar. Boshqalar esa asarda ko‘tarilgan asosiy ijtimoiy muammoni mavzu, deb hisoblaydilar. Birinchi xildagi qarash nuqtayi nazaridan yondashilsa, Markaziy Osiyo xalqlarining arab bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi Hamid Olimjonning “Muqanna” pyesasining mavzusi hisoblanadi. Ikkinchi xil qarashga ko‘ra esa, arablar istilosidan keyin Markaziy Osiyo xalqlari taqdiri qanday bo‘lganligi muammosi bu asarning mavzusini tashkil qiladi. Darhaqiqat, mavzuning bu xildagi nazariy-ilmii jihati har bir adabiyotshunosning individual qarashlari singari tasavvur uyg‘otishi tabiiy. Hikoyadagi qisqa vaqt ichida, hayotning biror bir maishiy, ijtimoiy muammosini “qirqib” olib tasvirlashda mavzuning ham o‘rni shu mavzuga singdiriladigan voqelikni ham keltirib chiqaradi.

O‘zbek hikoyachiligida A.Qahorning ayrim hikoyalari ingliz yozuvchisi Roald Dalning poetik uslubiga, mavzu tanlashiga o‘xshab ketadi. Garchand har ikkisi ham bir davrda yashab ijod etgan bo‘lsa-da, G‘arb va sharq adabiy-

badiiy tafakkurida mavzu va g'oya mushtarakligi yaqqol ko'zga tashlanadi. XX asr o'zbek adabiyotini A.Qahhor ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Yozuvchining ixcham va siyiq bir uslubi, mavzu va muammoni to'g'ri tanlay bilishi poetik mahoratning o'ziga xosligidan dalolat beradi. Abdulla Qahhor hikoyada mavzuni shu qadar pishiq va puxta tanlaydiki, undagi hikmat va maqol, ibratli bir mulohazaga chorlovchi falsafiy aqidalar o'quvchini o'ziga rom etmasdan qo'ymaydi. Yozuvchining "Ming bir jon" hikoyasini ingliz yozuvchisi Roald Dal hikoyasi bilan qiyoslab o'rganib ko'ramiz. Hikoyadagi mavzu va g'oya maishiy muammo bilan sug'orilgan bo'lib, bir davrning ikki qiyofasi aks ettiriladi. A.Qahhor hikoya ekspozitsiyasida shu qadar psixologik kartinadan voqif etadi.

Hikoyaning "Ming bir jon" jon deb nomlanishiga e'tibor beraylik. Adib bemorning umid bilan qarab yotishlari, hayotdan ko'z yumishi mumkin chog'larida ham hech qachon ruhini tushirmasliklarini realistik ifodada shu qadar yorqin ifodalay oladiki, o'quvchi asarning mohiyatida nima aks etishiga o'zini psixologik tayyorlay boradi. Yozuvchi XX asrning 50-yillaridagi voqelikni ifodalay ekan, xuddi poetik konstruksiyani o'ziga tarzda qiladi. "Hikoya – hayotning kichik bir parchasini aks ettirganidan, unda bir yoki bir necha hayotiy voqea qalamga olinganidan bu janrdan qahramon ruhiy dunyosini izchil ravishda batafsil yoritish, "qalb dialektikasi"ni bosqichma-bosqich berish imkoni biroz cheklangan. Hikoyaga xarakterlar tayyor holda kirib keladi, shuning uchun ham hikoya janrida psixologik tahlil ko'proq situativ xarakterga ega. Hikoyada tush, gallyutsinatsiya, maktub singari shakllarni qo'llash ham ko'p uchramaydi. Bu janrdan psixologik detal, psixologik tafsilotdan foydalanish imkoniyati ko'proq; portret esa, asosan, shtrixlar tarzida ko'rinadi"[8]. Bir qarashda hikoyada o'lim bilan bog'liq tafsilotga yozuvchi dialogik konstruksiya negizida oydinlik kiritadi. Masturaning jasorati, inson har qanday sharoitda o'lim sharbatini tortishi, va, alaloqibat-da Allohga qaytishi ochiq-oydin idrok etilmasa-da, yozuvchi vaziyat va holatni qahramonlar nutqi orqali ifodalaydi. "Ming bir jon" hikoyasida mavzu va g'oyaning mutanosibligi – davrning og'riqlari fonida jonlantiriladi. Ayniqsa, retrospektiv usulda, voqealarni tartiblashtirish, komponentlar tartibli va ularning g'oyaga qarab o'sib borishi realistik prozaning yangilanib kelayotganidan shahodat beradi.

XX asrning boshlarida yashab ijod qilgan ingliz adibi Roald Dalning hikoyachilikdagi mahorati shundan iboratki, u adabiy jamoatchilikda "omadi yurishgan yozuvchi" sifatida shuhrat qozonadi. Adib 1942-yildan boshlab ixcham novellalar yoza boshlaydi. Ikkinchi jahon urushini o'z ko'zi bilan ko'rib, uchuvchi sifatida qatnashib, hayotning past-u balandlarini boshidan kechiradi. Ingliz yozuvchisi Roald Dalning "Polkovnikning sovg'asi" nomli hikoyasida tanqidiy realizmning (Chexov, Qahhor poetik uslubiga xos) o'ziga xos namunasini ko'ramiz. Hikoyada bir oilaning Amerikacha yashash tarzi bayon qilinadi. Er-xotin orasidagi ishqiy munosabatlarning darz ketishi, xiyonat va yengil hayotga mukkasidan ketish, alaloqibat-da shaxsni fojiviy, ruhiy sinishga, xiyonatning natijada qaror topishida polifonik nutq ko'rinishda namoyon bo'ladi. Hikoyaning o'ziga xos qissaga mavzu, mantiq bo'lgulik zalvor borligini sezish qiyin emas.

"Amerika – ayollar uchun ulkan imkoniyatlar mamlakati. Hozirda ular butun millat boyligining taxminan sakson besh foiziga egadirlar. Tez orada esa ular butun boylikni o'z qo'llariga olishadi. Ajrashish jarayonlari ularga katta miqdorda daromad topishning oson yo'liga aylanib qolgan. Erning o'limi ham yaxshigina daromad keltiradi va ayrim xonimlar shu yo'ldan foydalanishni ma'qul ko'rishadi. Ular bir kun kelib, sabrlari mukofot bilan taqdirlanishiga ishonishadi; ortiqcha zo'riqish va qon bosimi o'z ishini qiladi

va bechora er qo'lida dori solingan shishani ushlaganicha jon beradi.

Yosh amerikaliklar ajrashish va o'lim tahdididan unchalik ham tashvish chekishmaydi. Yoshlar, hattoki voyaga yetguncha ham sabrlari chidamay uylanib olishadi va o'ttizdan oshgan paytlarida kamida ikkita sobiq xotinlariga pullarini sovrishga ulgurishadi. Sohibjamollarning farovon hayot kechirishlari uchun erkaklar quldek ishlashadi. Nihoyat, kamolga yetgach, ularning qalbini zerikish va qo'rquv egallay boshlaydi. Ular kech kirishi bilan barlarga borishadi. Bu yerda viski ichib, bir-birlariga "hayotiy hikoyalar"dan so'zlashadi.

Bu hikoyalarning mazmuni bir xil. Ularda uchta qahramon bo'ladi: er, xotin va itvachcha, ma'shuq. Er – sodda va buyuk mehnatkash. Xotin – ayyor va xiyonatkor mavjudot. U itvachcha bilan birga turli nayranglar o'ylab topadi. Er esa ishonuvchan bo'lganligi uchun xotinidan shubhalanmaydi. Nahotki bechora umrining oxirigacha shunday yashab o'tsa? Shunaqa bo'lsa kerak. Lekin bir daqiqa! Kutilmaganda, er xotiniga shunday zo'r zarba beradiki, xotin o'zining mag'lub bo'lganligini his etadi"[9].

Hikoyaning ekspozitsiyasida badiiy tasvir prinsiplari A.Chexov, A.Qahhor, Sh.Xolmirzayev, U.Hamdami singari masalaga teran kirib borish manerasi namoyon bo'ladi. Yozuvchi syujetni shu qadar qiziqarli tasvirlaydiki, adib axloq qoidalaridan bir dam nari chekkaga chiqmaydi. Mavjud hayotni qayta ishlab, qiziqarli yo'sinda yetkazishga harakat qiladi. Chunki yozuvchining maqsadi – er-xotinni biror xiyonat bilan ajratib yuborish emas, oiladagi bir vujudning ikki tomonga ayrilib ketishga sabab bo'lgan vositani ko'rsatadi. Ruhiy-ijtimoiy tengsizlik oiladagi asosiy masalalarning ildiziga olib boradigan yo'lda sodir bo'ladi. Mister va missis Biksbi ismi er va xotin hayotidan olingan voqelik o'quvchini bir o'tirishida asarni mutolaa qilishga yetaklaydi. Chunki hikoyadagi sarguzasht-tasvirlar Nyu-Yorkdagi xonadonlardan birida istiqomat qiladigan tish shifokori Mister Biksbi va Missis Biksbining hayotidan xabar beradi. Er-xotinning bir-biriga xiyonatiga asosiy sabab oilasida o'zaro tushunmovchilik va mo'maygina pul evaziga paydo bo'ladi. Missis Biksbi yolg'on evaziga o'z eriga xiyonat qilib, chekka shaharda, Baltimorga har oyda tez-tez qatnab, polkovnik bilan tanish orttirishdan boshlanadi. Yozuvchi syujetni shu qadar ixcham qurganki, mavzuning dolzarbligi, syujetni va g'oyani bir butun tarzda ifodalashiga katta zamin hozirlaydi. E'tibor bering, yozuvchi hikoyada A.Qahhor kabi dialoglardan shu qadar unumli foydalanadiki, uning natijasida uzundan-uzun tasvirlar emas, sahnaviylik (dramadagi harakat) negizida xarakterlar o'zlarini o'zlari fosh qilib boradi. Hikoya arxitektonikasida bir-biriga mos keluvchi tasvirlar ko'p orozilligi mavjudki, unda har qanday idrok tamoyili muhim ahamiyatga ega. A voqelik ro'y berish vaqti bilan B hal etilish vaqtigacha hikoyada poetik tasvirlar muvofiqligi yaqqol seziladi. Missis Biksbi bahonasi sabab – Baltimurdagi xolasi Mod bilan umuman uchrashmaydi. Afsuski, polkovnikning xushtoriga aylangan ayol tabiatidagi o'zgarishlar shu kechakunduzda ro'y berayotgan voqelikdek taassurot uyg'otadi.

Adabiyotshunoslikda badiiy g'oya to'g'risida gap ketganda, eng avvalo, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy g'oyalardan farqli tomonlarini aniqlab olishga to'g'ri keladi. Badiiy g'oya yozuvchining voqelikni badiiy tarzda hissiy aks ettirishdan bunyodga keladi. Ingliz yozuvchisi Roald Dalning "Polkovnikning sovg'asi" hikoyasida badiiy g'oya uch o'lchamli olam kecha-bugun-ertaga tarzida namoyon bo'ladi. Chunki yozuvchi badiiy g'oyani silliq tarzda ixchamlashtiradiki, o'quvchi mutolaa jarayonida qiziqarli bir sarguzashtni boshidan kechiradi. Hikoyada asosiy voqelik sovg'a bilan o'z yechimini topadi. Asosiy uchta qahramonning syujet voqeligida harakatlanishi – mavzu va g'oyaning birligini ta'minlashga qaratiladi.

Ingliz va o'zbek hikoyachiligida mavzu va g'oya uyg'unligi, adabiy asarlarning asosiy ma'nosi va tasvirlanayotgan voqealarning chuqur mazmunini ochib berish orqali namoyon bo'ladi. Ingliz hikoyachiligida bu ko'proq ijtimoiy va falsafiy masalalar orqali, o'zbek hikoyachiligida

esa milliy qadriyatlar va axloqiy masalalar orqali amalga oshiriladi. Har ikkala adabiyotda ham mavzu va g'oya uyg'unligi asarning badiiy qiymatini oshirib, uning o'quvchi qalbiga yetib borishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Shofqorov A.M "A.Qahorning so'z tanlash mahorati" Academic Research in Educational Sciences Volume 3/Issue 5/2022 1162-1166 b <https://cyberleninka.ru/article/n/abdulla-qahorning-so-z-tanlash-mahorati/viewer>
2. Quronov D., Rahmonov V. G'arb adabiytanqidiy tafakkuri ocherklari. –T.: 2008. –B.55.
3. Литературные манифесты западноевропейских классицистов .- С.182
4. Худой бердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. –Т: "Шарк". 2008. –Б.64.
5. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. –T: "O'zbekiston. 2002. –B.13.
6. <https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/abdulla-qahhor/abdulla-qahhor-ming-bir-jon-hikoya/>
7. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/roald-dal/roald-dal-polkovnikning-sov-asi-iko/>
8. https://buxdu.uz/media/aftoreferat/Автореферат_Кобилова_%2002.09.2020.pdf
9. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/roald-dal/roald-dal-polkovnikning-sov-asi-iko/>



UDK 372.881.111.1

Feruza YOZILOVA,
National University of Uzbekistan, PhD
E-mail: feruzayozilova@gmail.com
Khilola MAKSUDOVA,
National University of Uzbekistan, PhD

Based on the review by S.Toshmatova an EFL teacher in Alfraganus university

THE ANTHROPOLOGICAL GLANCE AT WRITING

Annotation

In the article the development of writing research in the Anthropology of Writing in France and (New) Literacy Studies in English-speaking regions are explored, highlighting their historical isolation. It emphasizes writing's transformative role in contemporary communication and social identity. Various scholarly approaches are reviewed, demonstrating writing as a cultural practice. The article contrasts the diverse themes of francophone research with anglophone perspectives and advocates for a broader anthropological view that includes both ordinary and vernacular texts.

Key words: Anthropology of writing, anthropological linguistics, anglophone, francophone, written texts, different perspectives on writing.

YOZUVGA ANTROPOLOGIK NAZAR

Annotatsiya

Maqolada Frantsiyada Yozuv Antropologiyasi va ingliz tilida so‘zlashadigan mintaqalarda (Yangi) Savodxonlik tadqiqotlari bo‘yicha yozma tadqiqotlarning rivojlanishi o‘rganilib, ularning tarixiy izolyatsiyasiga urg‘u berilgan. U zamonaviy muloqot va ijtimoiy o‘ziga xoslikdagi yozuvning ahamiyatli roliga urg‘u beradi. Turli ilmiy yondashuvlar ko‘rib chiqilib, yozuvni madaniy amaliyot sifatida tasvirlaydi. Maqolada frankofoniya tadqiqotining turli mavzulari anglofon nuqtai nazaridan taqqoslanadi va oddiy va mahalliy matnlarni o‘z ichiga olgan kengroq antropologik nuqtai nazar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Yozuv antropologiyasi, antropologik tilshunoslik, anglofon, frankofon, yozma matnlar, yozuvga turlicha qarashlar.

АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД НА ПИСЬМО

Аннотация

В статье исследуется развитие исследований письма в области Антропологии Письма во Франции и исследований (Новой) Грамотности в англоязычных регионах, подчеркивая их историческую изоляцию. Он подчеркивает преобразующую роль письма в современном общении и социальной идентичности. Рассматриваются различные научные подходы, демонстрирующие письмо как культурную практику. В статье сравниваются разнообразные темы франкоязычных исследований с англоязычными точками зрения и отстаивается более широкий антропологический взгляд, включающий как обычные, так и народные тексты.

Ключевые слова: Антропология письма, антропологическая лингвистика, англофония, франкофония, письменные тексты, разные взгляды на письмо.

Introduction. Writing is a social act in the form of both implicit and explicit communication between the writer and the reader. Since writing cannot be excluded from the social context, its aim and meaning are tightly bound to the society, their culture and history [1]. How did writing develop?! Initially two writing-related research traditions developed: The Anthropology of writing was primarily studied in France, whereas scholars, hailing from Britain, North America and other anglophone countries were investigating the (New) Literacy Studies. For several decades these two directions grew independently without much exchange of expertise and cross-referencing work. Thus, little was known in the francophone (someone who speaks French as a first or main language) research about anglophone (consisting of or belonging to an English-speaking population especially in a country where two or more languages are spoken) researchers' work. Likewise, it was for the English-speaking scholars [2].

In modern life there have been huge changes in nature of communication and nature of knowledge which is also impacting the importance of writing in the textually-mediated environment.

Literature Review. Anthropology as a discipline in its early development had little interest in writing and written texts. Instead, scholars were keen to study oral genres which did not rely on written communication, such as songs, poems and incantations [2].

It is impossible to neglect writing and written texts and comprehend the cultures of people. Dorothy Smith (1999), the sociologist suggests that we are surrounded by a 'textually-mediated social world' and writing is a means of interaction in societies which previously were solely oral. Therefore, it is reasonable to reckon writing to be a global and cross-cultural phenomenon.

Written texts are a source of light shed onto how social groups are structured, live, work, communicate with each other, gain experience and deal with it. Textualization of social interaction, written policies at workplaces, quality control in production, and in many other aspects of life have brought up huge transition in growth. Writing has even penetrated into private lives of human beings, it has been used when playing video games, for instance, where it serves as a means to communicate, and so, create social bonds among

those with alike interests [2]. Also, writing in anthropology plays a crucial role: for communication, education, doing research [3].

So far writing, as a key cultural practice and a product of culture itself, has been explored by many scholars in their anthropological works. However, only a few scholars such as Behar and Gordon (1996) writing was the major interest. Given that, for many scientists of anthropology, literacy did not seem to suffice to investigate broader cultural phenomena.

As a branch, a linguistic anthropology was studied by a group of scholars, whose main focus was spoken interaction. Among them Foley (1997) and Duranti (2001) considered literacy practices to be an ultimate part of anthropological linguistics. (Although the terms anthropological linguistics and linguistic anthropology are often viewed as being synonymous, specialists often make a distinction between

Interest in research on writing then took various directions:

Various approaches to the study of writing	Scholars who contributed	The focus of the approach
Discourse analysis of texts	Fairclough, 2003; Wodak & Krzyzanowski, 2008	the role of language in the reproduction and transformation of social processes and structures
Anthropological perspective on writing: the forms and structures of literacy education are an object of study in themselves.	Papen, 2005	Its core interest is to examine the processes of production and use of texts
Literary perspective on writing: highly visible and valued pieces of writing, primarily the work of novelists.	Altick (1957); Boyarin (1993); Eliot and Rose (2007); Colclough (2007)	The focus is on the texts and the practices of producing and using them, providing a history of books and of literary reading
Studies of the book as a cultural object, again	Finkelstein & McCleery, 2002	Focus primarily but not exclusively on literary production
Studies examining daily acts of writing and their significance in relation to private life and to work; writing in areas such as farming, photosharing, childcare work and healthcare; writing in the workplace, writing in public spaces and reading and writing in post-colonial societies	Mbodj-Pouye, 2007; Humery; the Anthropology of Writing group at the EHESS.	how societies operate and to the way individuals relate to each other and to institutions.
Historical writing; Studies of contemporary cultures of written texts	Historians; Roger Chartier; Cressy (1980); Clanchy (1993) [2,7].	the interest in the role of writing in specific social and cultural contexts and the focus on a variety of genres and practices
Educational perspective	Pontille et al.	Only for educational purpose, as a means of learning [2,8].

Examining different written texts produced by people of different social groups means studying unlike forms of writing and what function they are to serve. Since writing is the product of not only the 'social' but the 'cultural' too, the examiner has to study what beliefs, values and behaviors the writers had.

With an anthropological glance, writing can be either 'ordinary' or 'vernacular'. Here, 'ordinary' does not mean that it has mistakes and not considered grammatically correct and unacceptable in official education. Vice versa, 'vernacular' is

them. While anthropological linguistics is considered a subfield of linguistics, linguistic anthropology is generally considered to be a subfield of anthropology). Also, another reason for writing to be a trivial subject to research for anthropologists was that it was an interdisciplinary means in research while the main focus was anthropology itself. Even though there are several anthropologists who contributed on research on writing, the lion's share of research was done by linguists, literary theorists, historians, education researchers, sociologists and psychologists, often drawing upon ethnographic methods derived from anthropology, but not identifying themselves as anthropologists [2]. In 1964 Dell Hymes collects all the works of such scientists in the Reader in linguistic Anthropology. Among them there were Marcel Mauss, Antoine Meillet, Claude Levi-Strauss, Roger Brown, Leonard Bloomfield [4].

not about sophisticated speech of a well-educated man whose speech is skillfully formal. It is more about social interaction, events in the context, social practices in people's ordinary lives that make the writing broad to analyze in terms of cultural and social aspects [2].

Prominent themes in francophone research on writing. In comparison with anglophone research, francophone research on writing is by far colorful, full of varieties of spheres and theoretical directions.

Who? The researchers	What? The research\Why? The of the research
Denis and Pontille (2009)	Ethnographic research conducted to understand how the signs of the Paris subway are installed and maintained.
Fabre et al.	Ordinary writing by individuals
Pontille et al.	collective forms of writing (the texts they use and produce). The research of this kind enables to observe and learn the role and function of written texts in work environment and the way knowledge is organized
Lahire (1995); Latour	How writing gives materiality to cognitive processes
Denis & Pontille, 2009, Fraenkel, 2007; 2008	Texts, such as subway signs
Fraenkel & Pontille, 2003; Pontille, 2006	Studies of bailiffs
Pontille, 2004; 2006	Scientific authorship
Joly, 2000; 2004	The role of writing in agricultural work; how new rules introduced by the European Union (EU) have changed farmers' daily writing practices [2,22]. The historical perspective, comparing farmers' traditional diaries with today's bureaucratic registers and forms
The research group 'Anthropologie de l'écriture'(Anthropology of Writing) at the Ecole des Hautes Etudes en Sciences Sociales (EHESS).	Writing in the workplace From a historical perspective, they were particularly interested in autobiographical writings
Mbodj-Pouye, 2007; Humery	Writing in post-colonial societies They study ordinary forms of writing in contexts where school-based literacy is particularly dominant and where daily writing practices are frequently multilingual, mirroring the coexistence of official and vernacular languages in postcolonial societies.
the Anthropology of Writing group at the EHESS.	Writing in public places and spaces; A related study, also comparative, examines how writing in a variety of urban spaces is regulated and policed [2,23]. Covering cities from around the globe, it examines how urban spaces are shaped by writings, both legal and illegal.

Conclusion. In summary, the research on writing has greatly evolved, revealing its critical role in shaping communication and social structures. The contrasting approaches between francophone and anglophone traditions highlight the richness of this field, emphasizing the need for interdisciplinary dialogue. By recognizing writing as both a cultural practice and a fundamental element of human

interaction, scholars can deepen their understanding of its complexities. Future research should continue to explore the intersections of writing with various social, cultural, and technological contexts, fostering a more inclusive and comprehensive perspective on this essential aspect of human life.

REFERENCES

1. "Best Practices in Writing Instruction", third edition, edited by Steve Graham, Charles A. MacArthur, Michael Hebert, p.21
2. "The Anthropology of writing. Understanding textually mediated worlds", chapter 1: "What Is the Anthropology of Writing?" David Barton and Uta Papen; publisher: Bloomsbury Publishing, 2010, p.3, p.4, p.5, p.6, p.7, p.8, p.10, p.22, p.23.
3. Wulff, Helena. (2021) 2023. "Writing anthropology". In The Open Encyclopedia of Anthropology, edited by Felix Stein. Facsimile of the first edition in The Cambridge Encyclopedia of Anthropology. Online: <http://doi.org/10.29164/21writing>
4. 'Linguistic Anthropology: History, Ideas, and Issues', Linguistic Anthropology.AReader, second edition, edited by Alessandro Duranti, 536 pages, p.15.



Feruza JUMAYEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD

DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF THE MEANING OF THE WORD: DISCOURSE-SYNERGETIC ANALYSIS

Annotation

In this article, the development of meaning, the formation of polysemous and homonymous words and their differences are studied on the basis of discursive-synergistic analysis.

Key words: Word, meaning, sememe, sema, polysemy, homonymy, enantiosemy, metaphor, metonymy, synecdoche, function, discursive-synergistic analysis, fluctuation, bifurcation.

РАЗВИТИЕ ЗНАЧЕНИЯ СЛОВА: ДИСКУРСНО-СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье развитие значения, образование многозначных и омонимичных слов и их различия изучаются на основе дискурсивно-синергического анализа.

Ключевые слова: Слово, значение, семема, сема, полисемия, омонимия, энантиосемия, метафора, метонимия, синекдоха, функция, дискурсивно-синергический анализ, флуктуация, бифуркация.

SO'ZNING MA'NO TARAQQIYOTI: DISKURSIV-SINERGETIK TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqolada ma'no taraqqiyoti, ko'p ma'noli va omonim so'zlarning hosil bo'lishi va farqli jihatlarini diskursiv-sinergetik tahlil asosida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: So'z, ma'no, semema, sema, polisemiya, omonimiya, enantiosemiya, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, diskursiv-sinergetik tahlil, fluktuatsiya, bifurkatsiya.

Kirish. Tabiiy til tashqi va ichki ta'sirlar natijasida doimo o'zgarishda bo'ladi. Til shu tilni o'zlashtirayotgan har bir inson tafakkuriga ta'sir etadi. Tafakkur faoliyatining asosiga aylanadi. Bilim egallash, fikr yuritish til asosida amalga oshadi. Har bir inson o'z bilim doirasida til rivojiga ta'sir etadi va bunday tashqi ta'sirlar til tizimida beqarorlik, tartibsizlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Tashqi kuch, ya'ni inson omili ta'sirida til tizimida hosil bo'lgan tartibsizlik ichki kuchlarni yaratadi, ichki kuch tartibsizlikdan tartiblilikka ko'chish jarayonlariga ta'sir etadi, shunga ko'ra til tizimi o'z-o'zidan tashkillanish xususiyatiga ega bo'ladi. Bu jarayonlar tadqiqi til tizimida kechadigan fluktuatsiya, bifurkatsiya, entropiyani o'rganish zaruratini tug'diradi. Til egalari tafakkur tarziga xos o'zgarishlar til tizimida nomuvozanatlikni hosil qiladi. Buning natijasida til tizimida ro'y beradigan tartibsizlik va undan tartiblilikka o'tish jarayoni til tizimining o'z-o'zidan tashkillanish qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi. Shu bois til taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lgan so'zni, uning ma'noviy qurilishi: shakllanishi rivojlanishini tadqiqi etishda diskursiv-sinergetik tahlilga tayanish so'z tarkibi, ma'no strukturasi va undagi o'zgarishlar asosini keng doirada aniqlash, tasavvur qilish, tavsiflash imkoni beradi.

Til egalari to'plagan bilimlari so'z ma'nosida aks etadi. Inson borliqdagi narsa-hodisalar tavsifini va ularga munosabatini, hissiyatlarini so'z orqali ifodalaydi. So'z nomlash vazifasiga ega. O'xshashlik, aloqadorlik asosida bir qancha narsa-hodisalarga bir xil nom berilishi ko'p ma'noli so'zlarning hosil bo'lishiga turkib beradi. M., odamning qulog'i – qozonning qulog'i birikmasida qulog' so'zi ikkita shaklan o'xshash narsani nomlaydi. O'xshashlik asosida ma'no ko'chirilishi tilshunoslikda metafora deb o'rganiladi. Ba'zan so'z nomlash vazifasi bilan birga sub'ektiv munosabat bildirish vazifani ham bajaradi. M., munosabat bildirish: gapni cho'zdi, daraja ifodalash: tosh qurt ("juda" semasi mavjud), uslubiy bo'yoq ifodalash: umrim bahori, gul yuzli, baho

ifodalash: jodugar odam va h. z. Narsa-hodisalar qiyosida o'xshashlik yoki qarama-qarshiliklarni aniqlash va ularni bir nom bilan ifodalash ko'p ma'noli so'zlarni hosil qiladi. Bir nom ostida birlashgan ma'nolarning bir-biriga ta'siri ularning yaqin munosabatda bir butunlikni hosil qilishi yoki bir-biridan ajrab alohidalanib ketishiga sabab bo'ladi. Yaqinlik munosabati polisemiyaning hosil qilisa, uzoqlashish, ajralish natijasida omonimiya sodir bo'ladi. Polisemiya ma'noviy bog'liqlik asosan o'xshashlik, aloqadorlik, vazifadoshlik, butun-qism munosabati natijasida hosil bo'lishi ma'lum. Metonimiya ma'nolarni bir nom ostida birlashuvini ta'minlash bilan birga nutqni qisqa va ixcham shaklda ifodalash ("O'tkan kunlar" asarini o'qidim. "O'tkan kunlar"ni o'qidim.), obrazli ifodalash (navbatim anavi ko'zoynakdan keyin), bo'rttirish, ta'kidlab, darajalab ifodalash (muzdayidan bering) imkonini beradi. Narsalarning kashf etilishi, yaratishi, ishlab chiqilishi natijasida ham tilda tushunchalar ortadi va so'zning ma'no tarkibi kengayadi. M., "o'simlik nomi shu o'simlik mevasidan yoki boshqa biror qismdan tayyorlangan mahsulotga ko'chiriladi: muskat (uzumning bir navi) – muskat (shu uzum navidan tayyorlangan vino)"[1]. Metonimiyaning hosil bo'lishida sintaktik qurilmalardagi o'zgarishlarning ham o'rni katta. Gap tarkibida ellipsiyaga uchragan bo'lak o'zi bog'langan so'zning ma'no tarkibiga qo'shimcha bir ma'no sifatida ko'chadi va uni ko'p ma'noli so'zga aylantiradi. M., achchiqdan keltir jumlasida achchiqdan so'zi ham "mazata'm", ham "taom, yoki biror yeydigan narsa" ma'nosini bildirib turibdi: Achchiq taomdan keltir. Bunday qo'llanishlar so'zning bir turkumdan boshqasiga ko'chishi, omonimlarning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. M., Yupqa pishirdik. Yupqa so'zi "xamirni yupqa qilib yoyib pishiriladigan taom"ni bildiradi. Yupqa (sifat), yupqa (ot) so'zlari o'rtasida shakldoshlik hosil bo'lgan. Bunga misol qilib yana malla so'zini keltirishimiz mumkin: malla (sifat), malla (ot). M.: Bular uchun isrof bo'lmish, esiz, afsus, Bir doka salla-yu o'ttiz

qarich malla. (Hamza. Tanlangan asarlar) Demak, ellipsiya ta'sirida bir so'zning boshqa bir so'z tarkibiga ma'no bo'lib ko'chishi polisemiya va omonimiyani hosil qiladi. Bunday ko'chma ma'no so'z tarkibida noturg'un bo'lsa, polisemiya, turg'un holatda joylashib qolsa, omonimiyani hosil bo'ladi. M., achchiq taomdan keltir – achchiqdan keltir gaplari misolida aytish mumkin, achchiqdan keltir gapida achchiq so'zining ma'no tarkibiga “taom” ma'nosi ko'chgan, ammo uning joylashuvi noturg'un, qotib qolgan emas, shunga ko'ra bu ma'no achchiq so'zining asosiy ma'nosi emas, ko'chma ma'nosi hisoblanadi. Bunday qo'shiluvda belgi (B) ma'nosi narsa (N) ma'nosidan ustunlik qiladi B>N. Yupqa pishirdik gapida yupqa so'zining tarkibiga ko'chgan “taom” semasi turg'un joylashgan bo'lib, shu so'zning bosh ma'nosiga aylangan. Bunday ma'noviy qorishmada “narsa” ma'nosi ustunlik qiladi (N>B) va leksik-grammatik ma'nodagi bunday o'zgarish, qorishuv boshqa bir yangi ma'noning hosil bo'lishiga sabab bo'lgan. Natijada yupqa so'zi omonim so'zga aylangan. So'z ma'nolari grammemalar ta'sirida o'zgarishga uchraydi. So'z turli sintaktik qurilmalar tarkibida grammatik semalar ta'sirida yangidan yangi ma'no jilolarini namoyon qiladi. Xususan, leksik ma'no grammatik ma'no ta'sirida ba'zan o'zgarishga uchraydi, tarkiban bo'linib, polisemiya, omonimiyani hosil qiladi. Demak, ellipsis ham so'z ma'nosining tarkiban kengayishida muhim omillardan biri sanaladi. Bunda ma'no ko'chishi, asosan, o'xshashlik, aloqadorlik asosida yuz beradi. Masalan: tosh qurt (tosh kabi qattiq qurt)– o'xshashlik asosida. Bir qop oldim (bir qop un oldim) – aloqadorlik asosida hosil bo'lgan.

Ba'zan borliqdagi bir butun narsa va uning bir qismi tilda bir nom bilan ataladi. Bu hodisa sinekdoxa deb o'rganiladi. Sinekdoxa qismning nomini butunga, butunning nomini qismga ko'chirish orqali hosil bo'ladi. Gohida uy ham, uning kirish-chiqish uchun mo'ljallangan qismi ham eshik deb nomlanadi. M., u eshikka bormayman (eshikni qo'llash orqali “uy” semasi ifodalangan). Bosh so'zi uning qismlari bo'lgan ko'z, soch kabilarni qayta nomlaydi. M., qora boshim oqardi (bosh leksemasini qo'llash orqali “soch” semasi ifodalangan). Ayrim so'zlar ham butunni, ham qismni nomlaydi. M., qo'l so'zi “odam” (butun) va “panja”, “barmoq” (qism) ma'nolarini ham bildiradi. Qo'l so'zining bosh ma'nosi lug'atda[4] “odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi” deb izohlangan. Unga ayrim qo'llar yordam berdi gapida qo'l so'zi butunni, ya'ni “odam” semasini ifodalagan. Yo'ldosh orqadan asta kelib, Elmurodning ko'zini ikki qo'li bilan berkitdi. (Shuhrat. Shinelli yillar) misolida qo'l so'zi qismni, ya'ni “panja” semasini bildirgan. Qo'lini kesib oldi jumlasida esa “barmoq” semasini anglatgan deyishimiz mumkin. Ayrim so'zlar bitta jumlaning o'zida ham butunni, ham qismni ifodalashi mumkin. M., o'rik so'zi “daraxt”, “meva” “danak”, “ko'chat” ma'nolariga ega. O'rik so'zi orqali kimdir birlamchi mevani tushunsa, kimdir daraxtni tushunadi. Lug'at[4] da o'rik so'zining ikkita ma'nosi berilgan bo'lib, birinchi ma'nosi “guli oq va pushti, mevasi esa oqish, sarg'ish, qizg'ish ranglarda bo'ladigan yirik daraxt” ikkinchi ma'nosi “shu daraxtning danakli mevasi” deb izohlangan. O'rik guli deyilganda “daraxt” ma'nosi, o'rik murabbo deyilganda “meva” ma'nosi tushuniladi. O'rik ekdik gapida o'rik so'zi “daraxt” (butun) ma'nosini bildirganda butunning nomi orqali qism ma'nosi, ya'ni “danak”, “ko'chat” tushuniladi, “meva” ma'nosini bildirganda shu mevanning qismi va butunini anglatuvchi “danak” (qism), “ko'chat” (butun) ma'nolari anglatiladi. O'rik so'zining butun va qismning nomi sifatida ikki xil idrok etilishi bir shakl ostida ikki ma'noning birlashishi va ikkiga ajralib rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ma'no tarkibidagi o'zgarishlarga sabab bo'luvchi omillardan yana biri nutq ohanggi hisoblanadi. Ayniqsa so'z ma'nosining qarama-qarshi tomonga o'zgarishida ohangning

ta'siri katta. Kinoya ohangi so'z tarkibini uning ma'nosiga qarama-qarshi, zid bo'lgan yangi bir ma'no bilan kengaytiradi. Natijada ko'p ma'noli so'z hosil bo'ladi yoki ko'p ma'noli so'zning tarkibi yana bitta ma'no bilan ortadi. Kinoya – so'zlarni teskari ma'noda, ohangda qo'llash orqali hosil qilinadi. M., Ravshan juda “bilimdon” gapida bilimdon leksemasi ko'chma semema ifodalaydi va “bilimsiz”, “ilmsiz” semalariga ega bo'ladi. Ravshan bilimdon gapida esa bosh sememasida qo'llangan. O'z va ko'chma sememalar o'rtasida “ilimli”, “ilmsiz” antonim semalari yuzaga chiqmoqda. Polisemem leksemaning semalari doirasidagi bunday antonimlik munosabati enantiosemiya deb yuritiladi.

Vazifasi o'xshash bo'lgan narsa-hodisalarga bir xil nom berilishi tilda vazofadoshlik asosida ko'chma ma'no hosil qilinishi deb o'rganiladi. M., Odamning ko'zi – derazaning ko'zi, qushning qanoti – samalyotning qanoti va h.k. Bunday so'zlar qo'llanilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: har ikkala sememasi ham bugungi kunda faol qo'llaniladi: odamning tomiri (bosh semema), daraxtning tomiri (ko'chma semema); biri nofaol, biri faol qo'llaniladi: kamonning o'qi (nofaol), miltiqning o'qi (faol).

Til egalarining tafakkur faoliyati ta'sirida hosil bo'ladigan semantik muvozanatsizlik ma'no tizimida semalarning tartibsiz harakatini yuzaga keltiradi. Shu tartibsizlikning tartiblilikka o'tishini ta'minlovchi ichki ta'sirlar, kuchlar ma'noning tarkiban bo'linishi, bir holatdan boshqasiga o'tishi, bir nom ostida bir nechta ma'nolarning birlashib, o'zaro bir-biriga moslashishi va bir butunlikni hosil qilishiga olib keladi. Ma'no taraqqiyoti natijasida oldingi ma'nolar yuqolishi kuzatiladi. Keyingi ma'nolar taraqqiy etib, tashqi va ichki ta'sirlar natijasida o'zgarishda, rivojlanishda bo'ladi. Shunga ko'ra aytish mumkin ko'p ma'noli so'zlarning sememalari vaqt o'tishi bilan torayishi yoki kengayishi mumkin. Masalan, jon so'zining O'TILda o'n to'rtta ma'nosi keltirilgan[4]. Shulardan o'lchovni bildirib kishi ma'nosida qo'llanilishi bugungi kunda toraygan. M.: biz to'qqiz jon edik. So'zning ma'no tarkibiga ta'sir etuvchi omillar ko'p bo'lib, shu bois u doimo o'zgarishda taraqqiyotda bo'ladi. Dastlabki ma'nolar unutilib keyingi ma'nolar bosh ma'no sifatida izohlanishi kuzatiladi. “Masalan, tila- fe'lining dastlabki ma'nosi til- leksemasining 'nutq', 'nutq a'zosi' ma'nosi bilan bog'lanadi (ayt-). Ammo tila fe'lining bu ma'nosi hozir unutilgan. Endi bu leksemaning to'ng'ich bosh ma'nosi deb 'so'ra-' ma'nosi ko'rsatiladi. Avvalgi ma'noga nisbatan keyingisi asli hosila ma'no bo'lib, hozir to'ng'ich bosh ma'noga aylangan: Tila tilagingni kabi”[2].

Sememalarning tarkiban kengayishi va bo'linishi natijasida monosemantik so'zlar polisemantik so'zlarga aylinishi mumkin. M., internet leksemasi neologizm bo'lib, O'TILda bir ma'noli so'z sifatida izohlangan[4]. Uning sememasi “umumjahon kompyuter tarmog'i”. Bugungi kunda so'zlashuv tilida bizning xotin internet (vazifadoshlik asosida hosil qilingan semema) tarzida jumalar ishlatilmoqda. Demak, vaqt o'tishi bilan bu so'z ham polisemantik so'zga aylinishi kutiladi.

Xullas, sememalar tashqi, ya'ni sub'ektiv ta'sirlar hamda semalar doirasida hosil bo'ladigan ichki ta'sirlar natijasida o'zgarishga uchraydi. Ichki ma'noviy ta'sirlar semema tarkibidagi semalar harakatini tartibsizlikdan tartiblilikka o'tishini va sememaning tarkiban bo'linib, butun-bo'lak munosabatida bir nom ostida birlashuvini ta'minlaydi. Bir nom ostida birlashgan ma'nolar qatori polisemiya, polifunksiyani hosil qiladi. Ma'no tarkibidagi bunday o'zgarishlarga sabab bo'luvchi tashqi va ichki ta'sirlar manbaini aniqlash ma'no tahliliga dikursiv-sinergetik yondashuv zaruratini tug'diradi. Ma'no tarkibida semalar harakatining tartibsizlikdan tartiblilikka o'tish jarayoni sinergetik qonuniyatlarga bo'ysunishini ta'kidlagan holda aytish mumkin, ma'no shakllanishi va taraqqiyotini

flukuatsiya, bifurkatsiya, entropiyani aniqlagan holda o'rganish ularni harakatga keltiruvchi ichki kuchlar va uning hosil bo'lish manbaini aniqlash imkonini beradi. "Barqaror holatdan og'ish, tartibsizlik, xaos flukuatsiya, rivojlanishning ikkiga ayrilib tartibga tushish holati bifurkatsiya sanaladi. O'tish jarayonida bir necha tarmoqqa ajralishi polifurkatsiya holati ham bo'lishi mumkin"[3]. Ma'no taraqqiyotida ayni shu jarayonlarning kechishi ko'p ma'noli, omonim so'zlarning hosil bo'lishiga olib keladi.

Borliqda ro'y beradigan voqea-hodisalar tasviri, tavsifi tilda ba'zan bir so'z orqali ifoda topadi. Masalan kunlar iliqlashgan, daraxtlar gullagan, tabiat qayta jonlangan payt bahor deb nomlanadi. Qarindoshlar, qo'ni qo'shni yig'ilib, o'tkaziladigan bazm to'y deb nomlanadi va uning turlari ko'p: xatna to'yi, beshik to'yi, nikoh to'yi va hakazo. Ularning hammasi har xil tashkillashtirilsa-da bir nom bilan to'y deb nomlanadi. So'zning ma'no tarkibi bilimlar umumlashmasidan iborat deb tasavvur etsak, ma'no ko'chishi natijasida ikki so'z zamirida to'plangan bilimlarning to'qnashuvi va bir-biriga ta'siri hosil bo'ladi, natijada yangi bir ma'no yaraladi. To'y ma'nosining nahor so'zi tarkibiga ko'chishi paytgacha aloqadorlik asosida amalga oshadi va bunda to'y so'zining ma'no tarkibi umumlashma tushunchadan alohidalanish tomon siljiydi. To'y va nahor so'zining ma'nolari birikishidan nahor (Nahorga bordik. Nahor leksemasi orqali saharda bo'ladigan to'y tushunilmoqda) so'zining yangi bir ma'nosi hosil bo'ladi. Bunday ma'no o'zgarishlari ma'no taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiydan xususiyga o'tish qonuniyati asosida amalga oshadi. Bir so'z orqali turli ma'nolar, tushuncha, axborot, bilimlarni ifodalash imkoniyati mavjud. Har bir inson o'z tafakkur tarziga mos holda bilim hosil qiladi va uni so'z orqali ifoda etadi. Bu bilimlar so'z ma'nosiga ta'sir etadi. Bilimning har bir inson tomonidan o'ziga xos tarzda egallanishi va har bir insonning o'z bilim doirasida ma'no taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatishi ma'no tarkibida semantik tartibsizlikni hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Semema, semalarning bir-biriga ta'siri ma'no tarkibida o'zgarish hosil qiladi. Semalarning bir-biriga qo'shilib, moslashib ketishi yangi bir sememani vujudga keltiradi. Semema tarkibiga kirib kelgan semalar semema tarkibining o'zgarishiga sabab bo'ladi, nutq jarayonida ba'zan so'z tarkibiga kirib kelgan pragmatik ma'no shu so'zning lug'aviy ma'nosiga zid bo'ladi. M., eshikni yop gapidagi yop so'zi "ochiq" manosi, eshikni och gapida och so'zi "yopiqlik" manosi ifodalaydi, natijada enantiosemiya yuzaga keladi. Bunday qarama-qarshiliklarning hosil bo'lishi so'zning ma'no doirasini fahmiy tushunchalar bilan boyitadi. Hissiy va fahmiy idrok mahsuli bo'lgan bilimlar o'rtasidagi zidlanishlar ma'no ko'lamini kengaytirib mantiqiy mulohaza yuritishga undaydi. So'zda assotsiativ ma'no ta'sirida pragmatik ma'no hosil bo'lishi kuzatiladi va buning natijasida ko'pincha presuppozitsiya yuzaga keltiradi. M., yomg'ir so'zining ma'no tarkibiga "soyabon" assotsiativ manosi kirib kelishi tashqariga chiqayotgan kishiga Yomg'ir yog'yapti deyilganda "soyabon" ma'nosini tushunishiga sabab bo'ladi. Bu gap orqali Soyabonni ol deyilganini tushunish mumkin bo'ladi. Yomg'ir so'zining "soyabon" ma'nosini bildirishiga sabab bu so'zlarning bir assotsiativ maydonga mansubligidir. Bir leksik-semantik, assotsiativ maydonlarga mansub so'zlar ba'zan ma'no tarkibiga shu maydon so'zlarini sema sifatida kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. M., yomg'ir va soyabon so'zlari bir assotsiativ maydonga mansub, shuning uchun soyabon so'zi yomg'ir so'zining ma'no tarkibiga sema sifatida birikadi. Yoki yomg'ir so'zi soyabon so'zining ma'no tarkibini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari semema yoki sema shaklida bo'ladi. Semema so'z birikmasi yoki gap qolipida sema va emalar esa so'z shaklida bo'ladi. Semema tasavvurda yaxlit bir obrazni gavdalandiradi. Sema va emalar esa shu yaxlitlikning qismi, yoki belgilarini bildiradi. M.,

kulcha so'zi "kichkina, dumaloq, qizg'ish non" sememasini bildiradi. Bu semema tuzilishiga ko'ra so'z birikmasi qolipida bo'lib, u to'rtta sema "kichkina", "dumaloq", "qizg'ish", "non" semalaridan iborat va bu semalar so'z shaklida ifodalangan. So'z birikmasi tobe-hokim qismlardan iborat bo'lganidek, semema tarkibi ham tobe-hokim semalardan iborat bo'ladi. Kulcha so'zining "kichkina, dumaloq, qizg'ish non" sememasidagi "non" semasi hokim sema, uning belgisini bildirib, izohlab turgan "kichkina", "dumaloq", "qizg'ish" semalari esa "non" semasiga tobe semalar bo'ladi. Hokim sema so'zlarni turkumlashga asos bo'luvchi sema bo'lib, so'z hokim semasiga ko'ra bir so'z turkumiga mansub bo'lsa, tobe semalariga ko'ra turli so'z turkumlariga doir ma'no, vazifalarga ega bo'ladi. Kulcha so'zining "non" semasi asosiy sema bo'lib, shu semaga ko'ra kulcha so'zi "narsa", "predmet" grammatik ma'nolariga ega bo'ladi va shu grammatik ma'nolar asosida kulcha so'zi ot so'z turkumiga mansub bo'ladi. Nima? so'rog'iga javob bo'ladi. Egallik, kelishik qo'shimchalari, ko'makchilarni olib semantik o'zgarishga uchraydi. Kulcha so'zining "yumaloq", "qizg'ish", "kichkina" kabi semalari belgi bildirish xususiyatiga ega bo'lgani uchun kulcha so'zi nutqda belgi bildirish vazifasiga ham ko'chadi. M., kulcha yuz birikmasida kulcha so'zi "dumaloq", "qizg'ish", "kichkina" kabi belgilardan birini yoki hammasini anglatib turadi. Shuningdek, kulcha yuz birikmasida boshqa belgilar ya'ni "shirin", "yoqimli" kabi belgilar ham anglashilishi mumkin. Buni qanday tushunish muloqot ishtirokchilarining idrok, tasavvur olamiga bog'liq bo'ladi. Unda kulcha so'zi orqali bu belgilardan bittasi, bir nechta, yoki barchasi tushunilishi mumkin. Bu jarayon insonning idrok qobiliyatiga bog'liq tarzda kechadi. Ma'no idrokidagi bunday farqlilik so'zni har xil tushunish va izohlashga sabab bo'ladi. Bunday yondashuvlar ma'no taraqqiyotiga ta'sir etadi va yangi semalar, sememalarni vujudga keltiradi. Kulcha so'zi narsani va shu narsaning belgilariga o'xshash belgilarni nomlash xususiyatiga ega. M., kulcha yedim. Kulcha yuzli. Kulcha so'zining ma'no taraqqiyoti misolida aytish mumkinki, ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolarini tartiblashda sememaning hokim va tobe semalari vazifalariga e'tibor qaratiladi. Hokim semaga ko'ra bosh ma'no, tobe semalar ijrosiga ko'ra ko'chma ma'no shakllanadi. M., Kulcha so'zining "non" semasini bildirishiga ko'ra o'z (bosh) ma'nosi, "yumaloq", "qizg'ish", "kichkina" kabi semalarni bildirishiga ko'ra ko'chma ma'nosi belgilanadi. Ko'pgina so'zlar hokim semasini ifodalovchi so'z bilan bir paradigmaga mansub bo'ladi. So'z o'z hokim semasini atovchi so'z bilan umumiylik-xususiylik, butun-qism, sinonimik, antonimik, inkor munosabatida bo'ladi. M., Kulcha so'zining hokim semasi "non". Non va kulcha so'zi bir uyaga mansub. Tom soldik gapida tom so'zining hokim semasi "uy" bo'lib, uy va tom so'zlari butun-qism munosabatida bir uyani tashkil etadi. Hokim sema so'z ma'nosini tartibotga keltiruvchi asos (o'zak) ma'no bo'lib, tobe semalardagi o'zgarishlar polisemiyaning hokim semadagi o'zgarishlar omonimiyani hosil qiladi.

Xulosa. So'z ma'nosi tarkibida hosil bo'ladigan semantik tartibsizlikka tashqi ta'sirlar, ya'ni til egalarning tafakkur tarzidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Ma'no tarkibidagi tartibsizlikning tartiblilikka tomon o'zgarishi semalarning bir-biriga ta'siri natijasida amalga oshadi. Semalarning grammemalar ta'sirida semema tarkibidan ajrab alohida ma'no ifodalashga o'tishi semema tarkibida bo'linish hosil qiladi, natijada semema va uning tarkibidagi semalar bir nom ostida birlashib polisemiyaning hosil qiladi. Polisemiyaning hosil bo'lishiga metafora, metonimiya, sinekdoxa vazifadoshlik kabilarning ta'siri katta. Ma'noning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishiga asos bo'luvchi bunday hodisalar polisemiyaning hosil qiluvchi asosiy omillardan biridir. So'zlarning turli so'zlar bilan sintagmatik munosabatlarga

kirishuvi natijasida va ellipsiya hodisasi ta'sirida polisemiya, polifunksiya, omonimiya hosil bo'ladi. Diskursiv faoliyatda pragmatik ma'nolarning yaratishi, so'zlarning o'zaro assotsiativ munosabatlarga kirishuvi ma'no taraqqiyotiga ta'sir etadi. Ma'no tarkibida yuz beradigan semantik o'zgarishlar,

tartibsizlik taraqqiyot asosidir. Tartibsizlikdan tartiblilikka o'tish jarayonini diskursiv-sinergetik tahlillar asosida o'rganish ma'no taraqqiyotiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki kuchlar va ularning hosil bo'lish manbaini, shuningdek, ma'no tuzilishi, qurilishini keng doirada o'rganish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 2-kitob. –Toshkent, 2008. – 128 b.
2. Hurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: 2012. – 308 b.
3. Raхmatullaev Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили, биринчи китоб. Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. – 298 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд, 2008. – 592 б.



UDK: 159.922

Gulhayo JO'RAYEVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Professor, DSc N.Murodova taqrizi asosida.

LINGUISTIC AND CULTURAL ANALYSIS OF METAPHORS FORMED ON THE BASIS OF PERSONIFICATION AND OBJECTIFICATION (USING THE EXAMPLE OF THE STORIES OF TOGAI MURAD)

Annotation

In this article, the personification in the stories of Togai Murod and his reflection of metaphors formed on the basis of animating living beings are statistically generalized, combined into thematic groups and linguoculturologically analyzed.

Key words: Metaphor, personification, cognition, gestalt, image, code, valence, denotation.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ МЕТАФОР, ОБРАЗОВАННЫХ НА ОСНОВЕ ПЕРСОНИФИКАЦИИ И ПРЕДМЕТИЗАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ ТОГАЯ МУРАДА)

Аннотация

В этой статье олицетворение в рассказах Тогай Мурада и его отражение метафоры, сформированные на основе одушевления живых существ, статистически обобщены, объединены в тематические группы и лингвокультурологически проанализированы.

Ключевые слова: Метафора, олицетворение, познание, гештальт, образ, код, валентность, денотат.

SHAXSLASHTIRISH VA PREDMETLASHTIRISH ASOSIDA HOSIL BO'LGAN METAFORALARNING LINGVOMADANIY TAHLILI (TOG'AY MUROD QISSALARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tog'ay Murod qissalaridagi personifikatsiya va uning aksi bo'lgan jonli mavjudotlarning jonsizlashtirilishi asosida hosil bo'lgan metaforalar statistik umumlashtirilib, mavzuiy guruhlariga birlashtirilib, lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Metafora, personifikatsiya, kognitologiya, geshtalt, obraz, kod, valentlik, denotat.

Kirish. Fanda yangi bilimni topish va aniqlashtirishning ming yillardan beri ma'lum bo'lgan eng muhim usullaridan biri analogiya bo'lib, u turli obyektlar belgilari, xususiyatlari yoki munosabatlarining o'xshashligiga asoslanadi, ana shu o'xshashlik asosida bir obyekt haqidagi ma'lumotlar ikkinchi obyektga ko'chiriladi. Bu kognitiv jarayon, shubhasiz, metafora jarayonining mohiyatini tashkil etadi.

Antik davrda metafora so'z san'atining tayanch istilohi bo'lgan. Metafora tusunchasining ilk nazariy talqini(garchi boshqa nom bilan atalgan bo'lsa-da) yunon faylasufi va olimi Aristotel asarlarida uchraydi. Aristotelning fikricha, metafora ham o'xshatishdir, chunki ular o'rtasida arzimagan farqlar mavjud, xolos. Masalan, u sherday tashlandi ifodasida o'xshatish bor, agar ifoda sher tashlandi tarzida o'zgartirilsa, metafora yuzaga keladi.

Metafora atamasining o'zi esa Izokratning "Evagorus" asarida (taxminan miloddan avvalgi 383-yil) ilk marta uchraganligi manbalarda qayd etiladi. Antik davr donishmandlaridan yana biri Kvintilianning yozishicha, metafora yaratuvchining inoyati va borliq hodisalarini nomlash uchun xizmat qiladigan cheksiz xazinadir.

Adabiyotlar tahlili. Metafora – bu polisemik hodisa bo'lib, o'zbek tilshunosligida polisemiya hodisasiga o'tgan asrning 2-yarmidan e'tibor qaratila boshlandi. Olim T.Aliqulov o'z tadqiqotlari orqali polisemiyaning tilshunoslikning aktual sohalaridan biri ekanini yoritib berdi. O.Azizov, S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojdiyev kabi olimlar ham o'z izlanishlari bilan polisemiya hodisalarini tadqiq etishdi. Biroq o'zbek tilshunosligida ma'no ko'chish usullarining nazariy asoslari bo'yicha maxsus monografik plandagi ishlar uchramaydi.

Polisemik hodisaning faol turi metafora mustaqil tadqiqot obyekti sifatida G.Qobuljonovanning nomzodlik dissertatsiyasida lison va nutq jihatidan tahlilga tortildi. Tadqiqotchi Z.Tohirov nutqiy metaforik ma'no hosil bo'lishining o'ziga xos pragmatik xususiyatlarini o'rgandi. "O'zbek tilida nutq jarayonida metafora hosil bo'lar ekan, bu hodisa hosila sememadagi pragmatik sema hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, sher, burgut, lochin, ohu, qashqir leksemalarining shaxs bildiruvchi semema, la'l, charos, bodom, gul leksemalarining kishi a'zosini bildiruvchi semema hosil qilishi metafora bo'lib, bunda hosila sememalar pragmatik ma'noga ega bo'ladi".

G.Qobuljonova metafora yuzaga kelishidagi uch turni farqlab, ularning biri lingvistik asosda ekanligini yozadi:

1. Obyektiv yoki subyektiv borliqdagi narsalar orasidagi umumiy o'xshashlik.

2. Shu o'xshashlikning aksi bo'lgan mutanosib semalar.

(Seni ishqing yo'lida oriflar o'lar, savdoying ko'yida badnom bo'larmiz. Sening la'li labing zavq va shavqi Boyazid Bostomiyni savmaadan chiqarar).

Bu she'riy parchada «ishq» irfoniy ramziy ma'noda ilohiy qudratdir, insonni ma'rifatga yo'naltiradigan kuchdir, insonni moddiylik asoslaridan poklaydi va inson (solik) vujudi aro otashdir. Inson (ma'shuq) qalbini soflaguvchi, kamolot iksiri, iksiri a'zam, insonning mis vujudini oltinga aylantiruvchi kimyoviy unsur, badbaxtlik, falokat, illat, fisqu fujurlarni nobud qiluvchi ilohiy qudrat. Solikni Fano va Baqo darajasiga olib boradigan ishtiyoq, «orif» (tolibi Xudo, ilohiy ilmu ma'rifatga ega shaxs), «savdo» (orifning zavqu havasi, solik boshiga tushgan dard), «savmaa» (rahiblar va nasronylar ibodatgohi) [4] kabi ramziylikka asoslangan ayrim irfoniy istilohlarni kuzatish mumkin. Yuqorida keltirilgan misollar asosida, aytish mumkin kim, tadrijiy ravishda mutasavvif shoirlar ijodida tasavvufiy istilohlarning muqim o'rin egallashi fors tojik adabiy tilida an'ana tusini olgan.

Tahlil va natijalar. XII-XIV asrlar tasavvufning madaniy va adabiy muhitdagi ta'siri va bu diniy, irfoniy, falsafiy, ijtimoiy va adabiy xarakterga ega bo'lgan oqimning barcha hayot jabhalarida muhim o'rin tutishi, shuningdek mazkur ta'limot adabiy tilning shakllanishi, uning boyishi, ramziyligini ta'minlab berganligi ham ta'kidlangan. Bu borada Sanoiy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumi, Hofiz, Sa'diy, Kamol Xujandiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy-Foniy kabi badiiy so'z ustozlarining xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Irfoniy-tasavvufiy atamalarining adabiy tilga kirib kelishidagi muhim omillardan Islom dini va nabaviy hadislarini keltirish mumkin. Ammo bu borada tasavvuf oqimining asoschilari va ular tomonidan yaratilgan tartib qoidalar, maxsus nizomlar, mazkur ta'limotning nazariy asoslari, irfoniy atamalarining badiiy adabiyotdagi majoziy va ramziy ma'no kasb eta boshlaganligi, tasavvufda yangidan-yangi oqimlar va raviyalarning shakllanishi, tasavvuf sarchashmalari – Mazdoyasno va Avesto dini, Moniy va Mazdak ta'limoti, nasroniy dini va buddizm ta'limotlarida mavjud ayrim jarayonlarning ta'sirini ham alohida ta'kidlash lozim. Aslida tasavvufiy istilohlarning adabiy tilda e'tibor paydo qilishi va muayyan o'rin egallashi, ijodkorlar asarlarida rasmiylashuvi va xalq tilida maqom topishi ijtimoiy-tabiiy hodisa sifatida qaralmog'i lozim. Zero til ham adabiyot ham ijtimoiy hodisalar zahirida shakllanadi va yo inqirozga yuz tutadi. Shuningdek irfoniy va irratsional aqidalarga ko'ra asarlarda tasvirlash mushkul bo'lgan asror ilmining unsurlari bayoni uchun ham kinoyatomuz va ramziylik xususiyatlariga ega bo'lgan til lozim edi.

Aslida tasavvuf ijtimoiy – irfoniy ta'limot sifatida yuzaga keldi va shakllandi va mazkur ta'limotning keng

miqyosda yoyilishi uning fors tojik adabiy tili sarfu nahvi (grammatikasi)ga hartomonlama mos kelishi, uning leksik jihatdan shakllanishiga ham o'z ta'sirini etkazdi. Tasavvuf xalq madaniyatini ulug'vorlik va yuksaklik sari yo'naltirdi. Ramziy va majoziy istilohlardan boy bo'lgan mazkur til faqatgina asror ilmi namoyandalarigagina ayon edi. Bu narsa mutasavvif shoirlar ijodida ko'proq qo'l kelar edi. Zero she'riyat tili ramziylikka asoslangan tildir. Agar nazariyotchilar aqidalariga asoslanadigan bo'lsak u individual amaldir. (F.de. Sossyur) [8]. Ayniqsa ilohiy ishq mohiyati, tariqat (solik kirgan ruhoniyo'li) ning sirru sinoatlari, shoir shaxsiyatining lirik qahramon tafakkur tarzi bilan bog'liqligi uning orzu va armonlari, intilishlari, botiniy kechinmalari xufiyona sirru asror bo'lib, maxsuslikni, o'ziga xoslikni taqozo etadi va uning bayoni uchun qo'llaniladigan til faqatgina shoirning ijodiy va poetik mahoratiga bog'liqdir. Demak ijodkor qanchalik tasavvuf ta'limoti nazariyasi va amaliyasidan boxabar bo'lsa, uning asarlari tili va uslubi ham shunchalik ramziylik kasb etadi. Ramziylik esa fors-tojik adabiy tilining bu davrdagi eng muhim xususiyatlaridan biridir. Fors-tojik adabiy tilida tasavvufiy istilohlarning kirib kelishi bevosita Sanoiy G'aznaviy ijodidan sarchashma oladi. Irfoniy atamalar adabiy tilda tadrijiy ravishda maqom topganligini alohida ta'kidlash lozim. Zero «she'riy matndagi nutq birliklari shoir tomonidan birinchi bor muomalaga kiritiladi, so'ng boshqa ijodkorlar tomonidan bir qancha bor ishlatilgach umumtil sistemasiga o'tadi» [7].

Muhokama. Shu asosda, tasavvufiy istilohlarning adabiy tilga kirib kelishi va tilning lug'aviy tarkibini ta'minlashi bevosita badiiy adabiyotning yuksalish davrlariga, ijodkorlarning poetik mahoratlariga va ularning izlanuvchanligiga bog'liq hodisadir. Demak, badiiy adabiyot rivojlanishi adabiy tilning boyishiga, uning leksik va semantik xususiyatlari takomillashuviga, rangbarangligiga, strukturasi takomiliga olib keladi. Aksincha, tilning struktural va leksik qatlamlar jihatdan rivojlanishi so'z san'atining rangbarangligini, badiiy tasvir imkoniyatlarining kengayishini va ijodiy uslublarning takomillashuviga ham olib kelishi mumkin. Bu borada esa adabiyot vakillarining xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Sanoiydan to Jomiygacha bo'lgan davr va ulardan keyingi asrlarda faqatgina tasavvufiy istilohlar ma'noviy sistemasi qatlamida adabiy til tarixida qanchadan-qancha yuksalishlar va tanazzul bosqichlarini kuzatish mumkin. Bu tadrijiy takomillashuvlar adabiy til rivojlanishi jarayonida asrdan asrgacha mas, balki asardan asargacha mavjud masofada va yo muddatda sodir bo'ladi. Demak har bir ijodkor ijodi va asarlari misolida irfoniy istilohlarni leksik jihatdan tahlil qilish, ularni tasnif etish, sistema ichidagi so'zlar va birliklarning tarkibiy qismlarini izchillik bilan tadqiq etish, ularni tabaqalash zarur deb bilamiz.

Ayrim tilshunos olimlarning aqidalariga ko'ra irfoniy istilohlar arab tilidan bevosita fors-tojik adabiy tiliga kirib kelgan. Zero tasavvufda qalb, qurb, tavakkul, tariqat, ishq, ma'shuq, maqom, haqiqat, taqvo, tafid, fano, baqo, sidq, javr, kibr, jazaba va shunga o'xshash juda ko'p atamalarni uchratish mumkin kim, ular arab leksikasiga xos bo'lib, bizning tilga iqtibos tariqasida kirib kelgan. Mazkur istilohlar tasavvufda muhim o'ringa ega.

Irfoniy istilohlar va diniy atamalar dastlab prozaik janrlar sistemasida paydo bo'lgan va keyinchalik ular poeziyada muhim o'rin egalladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek XII-XIII asrlarda fors tojik adabiy tilida irfoniy abstrakcionizm va simvolizmlarning boshlang'ich davri hisoblanadi. Shu qatorida tasavvuf ta'limotining axloqiy va ma'naviy tamoyillari zahirida ta'rifu tavsifga asoslangan qoliblar tanazzulga yuz tutdi va ularning o'rnini yangicha mazmun va mohiyatga ega bo'lgan, ilohiyot sarchashmalaridan bahramand bo'lgan ifoda tarzi, so'z birikmalari hamda leksik qatlamlar egalladi.

Tasavvufiy istilohlarning adabiy tilga kirib kelishi bilan tilning poklanishi yuzaga keldi, har xil fahshiyona va dag'al so'zlardan tilda parhez qilish rasmiyatga kirdi. Shoirlar ijodida axloqiy va ma'rifiy ma'naviy tamoyillar yanada kuchaydi. Tasavvufiy istilohlarning tilga kirib kelishi bilan adabiy tilning sayqallashuvi, leksik, semantik va uslubiy jihatdan takomillashuvini ta'minladi. So'z tasavvuf adabiyoti va uning til xususiyatlari haqida borar ekan, irfoniy atamalarning til jozibadorligini evalyutsion tarzda ta'minlaganligi, ifoda usullarini shakllantirganligini, poeziyada ijodkor imkoniyatlarini kengaytirganligini alohida ta'kidlash lozim. Zero Rumi, Attor, Hofiz, Jomiy, Navoiy kabi buyuk adiblar she'riyatida ma'nolar jarangini, so'zlar va tushunchalarning turkumlashuvini, ma'no taqozosi bilan

ularning leksik va semantik tasnifotini, ta'bir va istilohlarning tabaqalashuvini kuzatish mumkin.

Buyuk mutasavvif shoirlar ijodida mazkur tushunchalar ta'biri, ularning izohi va sharhu tafsiri alohida – alohida tadqiqotlarni taqozo etadi.

Xulosa. Istilohlar zamiridagi ma'nolar, ularning semantik strukturasiidagi ma'no belgilarini aniqlash, ularning yuzaga kelish omillarini aniqlash, so'zlar va atamalar orasidagi o'zaro bog'liqliklarni ko'rsatib berish, irfoniy istilohlarning ma'no sistemasidagi muammolarni bartaraf etish bugungi tilshunoslik ilmining muhim asosidir. Shu nuqtai nazar zamirida tasavvuf adabiyoti, uning vakillari ijodiyotini yangicha talablar va tamoyillar asosida tadqiq etish, ijodkorning so'z boyligi ijodiy mahoratini o'rganish bugungi kun tilshunoslik ilmining muhim vazifalaridandir.

ADABIYOTLAR

1. Абӯсаиди Абулхайр. Таронаҳои дилангез. //Тартибдиҳанда: Х.Шарифов. – Душанбе: Ирфон, 1986. - 208 с.
2. Ашъори ҳамасрони Рӯдакӣ. / Дар таҳти таҳрири А.Мирзоев. – Сталинобод: нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1958. - 407 с.
3. Бобо Тоҳири Урён. Таронаҳо / Таҳияи Наима Қаҳҳорова/. – Душанбе: Адиб, 1992. -80 с.
4. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, 1965. -524 с.
5. Брагинский В.И. Символизм суфийского пути в “Поэме о море женщин” и мотив свадебного корабля // Суфизм в контексте мусульманской культуры. – Москва: Наука, 1989. - 38-51 с.
6. Куронбеков А. Ҳофиз ғазалиётида маънолар силсиласи. – Тошкент: Фан, 1994.
7. Мажитова С.Ж. Абдурахмон Жомий ғазалиётида “жон” тимсолининг ирфоний-тасаввуфий маънолари. Сўз санъати. 2023. № 6 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10800434>
8. Мажитова С.Ж. Смысловая композиция суфийских символов в газелях Абдуррахмана Джами. Талқин ва тадқиқотлар журнали. Июнь 2024.12.(49).
9. Мухторов З. Лексика ирфонии ғазалиёти Саной. – Душанбе: Хумо, 2001. -128 с.



Sabinabonu MAKHMUDOVA,

Andijan State Institute of Foreign Languages Teacher of the Department of Practice of English Language

E-mail: sabinamaxmudova2000@gmail.com

LEXICON AND TERMINOLOGY OF SCIENTIFIC DISCOURSE (IN THE MATERIAL OF ARTICLES AND THESES)

Annotation

This article aims to discuss how terminological vocabulary of a non-native language through scientific texts might help students develop linguistic and professional competence. In this article, the characteristics of scientific discourse as well as the range of typical scientific terms and expressions and their functions have been reviewed. Furthermore, this research explores the characteristics of scientific language and the unique discourse markers used in academic literature.

Key words: Terminology, common scientific expressions, lexicology, function, theory, vocabulary, social, linguistics.

ЛЕКСИКОН И ТЕРМИНОЛОГИЯ НАУЧНОГО ДИСКУРСА (НА МАТЕРИАЛЕ СТАТЕЙ И ДИСКУРСОВ)

Аннотация

Целью данной статьи является обсуждение того, как терминологическая лексика неродного языка посредством научных текстов может помочь студентам развить языковую и профессиональную компетентность. В данной статье рассмотрены характеристики научного дискурса, а также круг типичных научных терминов и выражений и их функции. Кроме того, в этом исследовании изучаются характеристики научного языка и уникальные дискурсивные маркеры, используемые в академической литературе.

Ключевые слова: Терминология, общенаучные выражения, лексикология, функция, теория, лексика, социальная, лингвистика.

ILMIY NUQT LEKSIKONASI VA TERMINOLOGIYASI (MAQOLA VA TEZISLAR MATERIALIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqola ilmiy matnlar orqali ona tilning terminologik lug'ati talabalarning lingvistik va kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishga qanday yordam berishi mumkinligini muhokama qilishga qaratilgan. Ushbu maqolada ilmiy nutqning xususiyatlari, shuningdek, tipik ilmiy atamalar va iboralar doirasi va ularning vazifalari ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot ilmiy adabiyotda qo'llaniladigan ilmiy tilning xususiyatlarini va o'ziga xos nutq belgilarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Terminologiya, umumiy ilmiy iboralar, leksikologiya, funktsiya, nazariya, lug'at, ijtimoiy, tilshunoslik.

Introduction. Most studies characterize modern society as an information society because “theoretical knowledge occupies the central position, being the core of new equipment, technology, economic growth and social stratification organization”[1]. In this civilization, science serves multiple functions, including epistemology, socio-cultural innovation, etc. The integration of science into new social practices through information and computer technology highlights the need of seeing science as a type of public discourse. Modern scientific discourse combines theoretical, pragmatic, and socio-cultural factors to build the foundation for innovation in information society. The importance of human language in post-modern civilization necessitates broadening the scope of linguistic research and aligning it with other humanities disciplines. Modern linguistics recognizes the importance of investigating linguistic and communication issues from various scientific perspectives. This involves reframing classic language notions and exploring various elements of verbal and cognitive activities. The cognitive discourse approach, combining traditional linguistic analysis and other scientific methodologies, has taken linguistics to a new level of cognition and discourse study, focusing on complex cognitive concepts. According to E.S.Kubryakova, the cognitive discourse paradigm examines language as a tool for achieving specific goals in reality cognition and description, as well as communication and interaction [6].

“Terminology” is the branch of lexicology (or the study of lexicon) concerned with specialized vocabularies and sets of terms linked to specific fields. Terminology, as a new

academic topic, exists at the intersection of linguistics, logic, the theory of existence, information science, and specialized fields of science and technology, as well as the interdisciplinary area [11].

The most distinctive style of scientific prose is, undoubtedly, functional, mostly because of the extensive use of scientific phraseology and structuring. Along with scientific and technical terms specific to a particular terminology, phraseology also includes a variety of common expressions. For example, the English expressions such as exploratory study, above mentioned, in addition, for this reason, therefore, moreover etc.; Uzbek: kashfiyotni o'rganish, yuqorida aytib o'tilganidek, qo'shimcha ravishda, shu sababli, shuning uchun, bundan tashqari etc. and the Russian expressions: вышеупомянутый, по этой причине, в дополнение к, далее мы опишем are included in the phraseology. These lexical items are referred to as common scientific terms and expressions.

Terms and common scientific expressions serve different tasks in scientific discourse. Specific terms refer to concepts, objects, and processes within a specific scientific domain. Common scientific expressions, on the other hand, are domain independent and are used to organize scientific text narratives by expressing the logic of reasoning, connecting text fragments, and structuring the text under development. Common scientific expressions have a syntactically quite varied set, comparable to terms, but even more so than words. The set includes functional (auxiliary) words in addition to content (autosemantic) terms. Including

conjunctions, adverbial and participle phrases, noun and verb-noun combinations, compound prepositions, and conjunctions. Among the word combinations, one can notice stable expressions that are used as ready-to-use colloquial formulas (clichés) [1] can be observed; for example, Eng. as it was stated above, to outline directions of further research; Uzb. yuqorida aytib o'tilganidek, tadqiqotning kegingi yo'nalishlarni belgilash; Rus. Из вышесказанного следует, как показало проведенное исследование. Certain clichés are unique to specific genres, whereas others are frequently used in technical and scientific writing. Discourse markers are terms and statements that are often used in science.

Research methodology. The following procedures were utilized during the study: logical methods of classification and systematisation, linguistic methods of compatibility, definition and contextual analysis and word-building. The scientific style lexicon is characterized by conceptuality, the use of nouns and adjectives, terms with clear and narrow definitions, the absence of expressive lexemes, and the high repetition of lexis. This results in a stereotypical vocabulary and semantic condensation, with a preference for noun groups.

Literature review. In this section, we will highlight works that demonstrate the maturity of lexicography as a scholarly field. We will also focus on the discourse of key proponents who approach the discipline from a theoretical or methodological standpoint.

Research on scientific discourse has been conducted in the field of world linguistics. This is strongly linked to the works of I.Igolkina, J.G.Scott, A.Yu.Panasyuk, V.Sterkenburg, L.Zgusta, and S.Landau. V.Sterkenburg describes L.Zgusta, a Czech-American historical linguist and lexicographer who produced the first international lexicography textbook in 1971, as 'the twentieth-century godfather of lexicography. According to him, Zgusta dominated lexicography in the 1970s and 1980s. Furthermore, Sidney Landau (1933–present) is the leading authority on American lexicography. His book *Dictionaries: The Art and Craft of Lexicography*, first published in 1984, provides a thorough introduction of English lexicography. Also noteworthy are the *Dictionnaires: An International Encyclopedia of Lexicography* (Hausmann et al., 1989-1991), which was published in three volumes, and the *Dictionary of Lexicography* (Hartmann & James, 1998/2002). Finally, and most relevant to the topic of this thesis, John Considine's work, particularly the 2014 publication *Academy Dictionaries 1600-1800* (Considine, 2014), traces the history of lexicography on a European scale and discusses the numerous dictionaries compiled by various national academies in the 17th and 18th centuries. Many scientists have investigated the style of discourse and scientific writing. Here we can provide some examples: L. Vladimirova provides methodological strategies for improving scientific writing skills and mastering key vocabulary (Vladimirova, 2010, 8). E.V. Ivanitskaya [8] and E.V. Krasilnikova emphasize the importance of implementing scientific speaking styles in both written and oral forms. They link the development of scientific speech to a scientific mindset. According to Ivanitskaya (2016) and Krasilnikova (2017), learning the scientific style requires knowledge of vocabulary and speech clichés. N.N.Miroshkina perceives the issues more generally. When building workout routines, she recommends considering two goals: training in interpreting and evaluating scientific communication, as well as introducing conventions and norms for writing scientific texts, which can help create professional national skills [9].

I.R.Galperin [5] defines texts as having the following characteristics: completeness and content, adherence to literary language norms and genre requirements, a specific structure with mandatory elements such as a title and sphere-

phrase units, a system of communication means, focus, and pragmatics. V.E.Chernyavskaya identified similar traits in the region's scientific texts. According to J.S.Justeson and S.M.Katz (1995), an algorithm for recognizing terminology in scientific writings is necessary to classify them. The authors analyze the linguistic features of technical terminology.

In Uzbek linguistics H.Jalilov, A.R.Mamatkulov, A.G.Gulomov, T.H.Asadov, Kh.Doniyorov, B.Yoldoshev, Sh.Rahmatullaev, A.Boboyeva, I.Asomiddinova, E.Begmatov's works can be highlighted.

Analysis and results. A scientific text's fundamental objective is to convey logical knowledge, argue for novelty, summarize, and generalize. It resembles a text in terms of structure and semantics. Vocabulary is an important aspect in determining how informative a scientific book is. In any language, it is regarded the primary building block of the text. Scientific speech vocabulary is separated into three categories: common and general scientific words, special terminological words, and sky vocabulary. Besides, scientific discourse vocabulary is separated into words and non-terms. Non-term lexicon can refer to common scientific and technical terms. Correlating a lexical unit with a scientific definition distinguishes professional terminology from ordinary literary ones. This is especially significant when dealing with consubstantial terms, which are similar in form to ordinary literary language words. They account for a third of all terms.

The distinction between terminological and general vocabulary is fluid and not based on history. Terms are constantly transformed into commonly used words and vice versa. The transition from common to terminological vocabulary begins with the use of the former in specific contexts.

Research Terms and Definitions. Knowing standard research language helps us comprehend how to read and evaluate scholarly journal articles, allowing us to apply the findings more successfully to real-world human performance. The following are some basic research words and definitions.

Abstract. An abstract is a quick overview of a research paper, thesis, review, conference proceeding, or any in-depth investigation of a particular subject.

Assignment is the process of randomly assigning a sample to different groups or treatments in your study.

Background of the study. The research background is a brief summary of the most important investigations completed thus far, provided in chronological order. The research background should include a brief review of significant theories and models linked to the research problem.

Cause and effect is a relationship between two phenomena in which one phenomenon serves as the foundation for the other. The term effect has been widely used in scientific research.

Conclusion. The conclusion is designed to help the reader comprehend why your study is important to them after they have done reading the paper. A conclusion is not only a summary of your ideas or a re-statement of your research problem, but a synthesis of essential points.

Data. Study data is any information that has been gathered, observed, developed, or manufactured in order to validate original study findings. Although most research data is digital, it can also be in non-digital media such as laboratory notebooks and diaries.

An experiment is a technique used to support, disprove, or validate a theory.

Findings. The main results of a study effort; what it suggested, showed, or indicated. This usually refers to the entire set of outcomes, rather than the conclusions or suggestions derived from them.

Hypothesis. A hypothesis is a precise statement of prediction. It discusses in real (rather than theoretical) terms

what you anticipate will happen during your research. Not all research have hypotheses.

A manuscript is the material that an author sends to a publisher, editor, or producer for publication. Preprints are accepted manuscripts that have been evaluated but are not yet in final format.

Methodology. Research methodology refers to the precise procedures or strategies used to find, select, process, and analyze information about a subject. The methodology portion of a research article allows the reader to objectively assess the overall validity and reliability of the study.

A questionnaire is a research tool that consists of a series of questions designed to elicit information from respondents. Questionnaires can be viewed as a form of written interview.

Recommendations are based on the findings of your research and outline particular measures or directions that can be followed. As a result, implications represent the influence of your research, whereas recommendations may be concrete steps/actions that the research advises.

A reference page is the final page of an essay or research paper prepared in APA format. It highlights all of the sources you utilized in your project, making it easy for readers to identify what you cited.

Research is the systematic exploration and analysis of materials and sources in order to establish facts and draw new findings. A research question is an answerable query about a specific problem or subject. It's the first stage of a research effort.

A research problem is a statement about an area of concern, a condition to be improved, a difficulty to be eliminated, or a troubling question that exists in scholarly literature, in theory, or in practice that points to the need for meaningful understanding and deliberate investigation.

A researcher is someone who conducts research, i.e., an organized and systematic investigation into something.

Scope and limitation. Scope and limitations are two terms that address the details of a research project. The term scope refers to the problem or issue that the researcher wants to study with the project. Limitations is the term used for constraints that impact the researcher's ability to effectively study the scope of the project.

The title explains the primary idea(s) of your work. A excellent title uses the fewest words possible to adequately convey the contents and/or purpose of your research paper [11].

We categorized our collection of frequently used scientific terms and phrases into functional classes based on the suggested discourse operations list. Every word and word combination that is replaceable and semantically similar in the texts was collected into a group inside each class to create a subclass of functionally equivalent markers. Depending on the language, each group of functional equivalency can include two to nine units, with words from various parts of speech frequently included. The English result group of the consequence relationship, for instance, has the following sentences: therefore, therefore, as a result, consequently, it follows that, we conclude that, etc.; the Russian result group contains the following sentences: значит, итак, таким образом, тем самым, как видим, etc.; the Uzbek result group contains: misol uchun, shunday qilib, shuningdek, ko'rib turganimizdek, etc.

Conclusion. Scientific communication requires qualities that are understandable to specialists. Professional training for specific fields does not include them as a study subject. In language classes, it is important to prioritize scientific communication issues. The research focuses on scientific texts, discourses, organizational ideas, and terminology. Scientific and technical literature is presented as a unit of information, with a focus on syntagmatics to better understand the content and context of use. The key for comprehension is vocabulary. The characteristics of scientific discourse as well as the range of typical scientific terms and expressions and their functions in scientific discourse have been reviewed. We outlined the primary organizational concepts of the common scientific lexicon dictionary, which offers a variety of useful data for the automated analysis of scientific writings. There is one more vital point to make. Scientific literature sometimes include complex concepts that are difficult to communicate in non-native languages. In this instance, dependence on the native tongue is required. In education, lexical work that explains abstract concepts is the most important aspect.

REFERENCE

1. Bell D. "The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting" 1999. - 616 p.
2. Bolshakova E.I. Phraseological Database Extended by Educational Material for Learning Scientific Style // In: ACH/ALLC 2001: The 2001 Joint Int. Conference. Conf. Abstracts, Posters and Demonstrations, New York, 2001, - P. 147-149.
3. Bolshakova E.I. Lexicon of common scientific words and expressions for automatic discourse analysis of scientific and technical texts // Moscow, 2007 - P. 5.
4. Chernyavskaya V.E. Interpretation of scientific text. Moscow: URSS, 2007. – 128 p. (Чернявская В.Е. Интерпретация научного текста. Москва: УРСС, 2007. – 128 с.)
5. Galperin I.R. Text as an object of linguistic research. Moscow: URSS, 2008. – 147 p. (Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. Москва: УРСС, 2008. – 147 с.)
6. Ivanitskaya E.V. Transformation of scientific style in a changing communication environment // Features of a modern scientific article, Language and text, 2016. - pp. 62-75. (Иваницкая Е.В. Трансформация научного стиля в условиях меняющейся коммуникационной среды // Особенности современной научной статьи, Язык и текст, 2016. - С. 62-75).
7. Kubryakova E.S., Demyankov V.Z., Luzina L.G., Pankrats Yu.G. Brief dictionary of cognitive terms. M.: Publishing house of Moscow State University named after. M.V. Lomonosova, 1996. (Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Лузина Л.Г., Панкрац Ю.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. М.: Изд-во МГУ им. М.В. Ломоносова, 1996.)
8. Leichik V.M. Terminology: Subject, methods, structure. Ed. 4th. - M.: Book house "LIBROKOM", 2009. — 256 p. (Лейчик В.М. Терминоведение: Предмет, методы, структура. Изд. 4-е. — М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. — 256 с.)
9. Miroshkina N.N. Formation of linguistic and stylistic competence of students when studying scientific style, https://pglu.ru/upload/iblock/ae3/uch_2010_viii_00020.pdf, access: 05/3/2019. (Мирошкина Н.Н. Формирование лингвостилистической компетенции студентов при изучении научного стиля, https://pglu.ru/upload/iblock/ae3/uch_2010_viii_00020.pdf, доступ: 3.05.2019.)
10. Dictionary of Word Combinations Frequently Used in English Scientific Literature. Nauka Publ., Moscow, 1968.
11. Dictionary of Verb-Noun Combinations of the Common Scientific Speech. Nauka Publ., Moscow, 1973 (in Russian).



UDK:31.1

Durdona MAHKAMOVA,
ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi
E-mail: durdonamahkamova7@gmail.com

ToshDO‘TAU professori H.Dadaboyev taqrizi asosida

MODERNIZATSIYALASHUV TUSHUNCHASINING TERMINOLOGIK MAVQEYI

Annotatsiya

Mazkur maqolada modernizatsiyalashuv jarayoni va uning terminologik tizimda voqelanishiga doir qarashlar berilgan. Xususan, o‘zbek va xorijiy olimlarning modernizatsiya terminiga doir qarashlari keltirilib, ularga munosabat bildiriladi. Shuningdek, modernizatsiyalashuv va modernizatsiya terminlarining ilmiy mohiyati, modernizatsiyalashuvning bevosita ijtimoiy jarayonligi ochiqdanib, tushunchaning terminologik izohi keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Termin, terminologiya, modernizatsiyalashuv, terminologik tizim, terminologik tizim modernizatsiyalashuvi, sohalar integratsiyasi, taraqqiyot, zamonaviylashuv, jamiyat, ijtimoiylik.

ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЕ ОБЪЯСНЕНИЕ ПОНЯТИЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ

Аннотация

В данной статье представлены взгляды на процесс модернизации и его реализацию в терминологической системе. В частности, приведены взгляды узбекских и зарубежных ученых на термин модернизация и представлены мнения на них. Также раскрыта научная сущность термина, социальный процесс модернизации, дано терминологическое объяснение понятия.

Ключевые слова: Термин, терминология, модернизация, терминологическая система, модернизация терминологической системы, интеграция научных сфер, развитие, модернизация, общество, социальность.

TERMINOLOGICAL EXPLANATION OF THE CONCEPT OF MODERNIZATION

Annotation

This article presents views on the process of modernization and its implementation in the terminological system. In particular, the views of Uzbek and foreign scientists on the term modernization are presented and opinions on them are presented. The scientific essence of the term, the social process of modernization, is also revealed, and a terminological explanation of the concept is given.

Key words: Term, terminology, modernization, terminological system, modernization of the terminological system, integration of scientific spheres, development, modernization, society, sociality.

Kirish. Bugungi kunda dunyo hamjamiyati barcha jabhada modernizatsiyalashish jarayonini boshdan kechirmoqda. Shu o‘rinda “Modernizatsiya” tushunchasining mohiyati va ma‘nosini aniq belgilash, uning ilmiy izohini berish, hodisaning qanday ko‘rinish va shakllari borligini aniqlash kabi qator masalalar fanlar kesimida o‘rganilmoqda. Har bir soha vakili bu tushunchani o‘z predmetidan kelib chiqib ta‘riflashi mumkin. Ammo tilshunoslik har qanday til birligi(leksema)ning mohiyatini, uning semantik imkoniyatlarini yaxlit holda tadqiq etibgina xulosa beradi.

Aslida modernizatsiyalashuv doimiy jarayon bo‘lib, termin sifatida o‘z ichiga “yangilanish”, “o‘zgarish”, “takomillashish”, “zamonaviylashish” kabi qator ma‘nolarni qamrab oladi. Aksariyat adabiyot va lug‘atlarda modernizatsiyalashuv texnologik sohalariga taalluqli yoxud boshqa fanlar doirasidagi texnologik yangilanishlarga nisbatan qo‘llanuvchi termin sifatida baholanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek tilidagi ayrim lug‘atlarda modernizatsiya va modernizatsiyalash terminlarining izohi quyidagicha beriladi:

Modernizatsiya, modernizatsiyalash -(frans. moderne — eng yangi, zamonaviy) — biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o‘zgartirish. Modernizatsiyada mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi [1].

Modernizatsiya –(fr. Modernizer –yangilamoq < modern –yangi, zamonaviy) Biror narsani zamonaviy talab va

didga moslab o‘zgartirish; zamonaviylashtirish. Uskunalarni modernizatsiya qilish[2].

Modernizatsiyalamoq - Modernizatsiya qilmoq, zamonaviylashtirmoq[2].

Modernizatsiya, modernizatsiyalash - (fransuzchadan moderne — „eng yangi“, „zamonaviy“) — biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o‘zgartirish. M. Modernizatsiyada mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi[3]

Modernizatsiya terminini shu mazmunda izohlash nafaqat o‘zbek tilidagi lug‘atlar, balki boshqa tillardagi yirik izohli lug‘atlarda ham uchraydi. Xususan, “Kembridj lug‘ati”[4]da modernizatsiya terminiga quyidagi izohlar keltiriladi:

1. modernization - the act of making something more modern (nimanidir zamonaviylashtirish harakati)

2. modernization - the process of starting to use the most recent methods, ideas, equipment, etc. so that something becomes or seems more modern (biror narsa zamonaviyroq bo‘lishi yoki ko‘rinishi uchun eng yangi usullar, g‘oyalar, jihozlar va hokazolardan foydalanishni boshlash jarayoni)

“Ingliz tilining Oksford lug‘ati”[5] da esa modernizatsiyaning ta‘rifi quyidagicha beriladi:

Modernization - the action or an act of modernizing something; the state of being modernized (biror narsani

modernizatsiya qilish harakati ; modernizatsiya qilinayotgan holat)

“Большой толковый словарь русского языка” (Rus tiling katta izohli lug'ati) [6]da modernizatsiya so'zi “Изменение чего-л. в соответствии с современными требованиями, вкусом” (Biron narsani zamonaviy talab va didlarga mos tarzda o'zgartirish) tarzida izohlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi ta'riflar modernizatsiyani bir qarashda asosan aniq, tabiiy va texnika (texnik qurilmalar bilan ish yurituvchi) fanlari doirasida uchratish mumkin, degan xulosaga olib keladi. Biroq ta'riflardan so'ng beriluvchi illyustrativ matnlarning ayrimlari uning ijtimoiy hodisa ekaniga ishora qiladi. Fikrimizcha, mazkur izohlarni ijtimoiy-tarixiy jarayon birikmasi bilan yakunlash termin mohiyatining to'liq yoritilishiga olib keladi. Boisi ijtimoiy sohalarida ham ushbu jarayon mavjud va u hamisha dinamik holatda bo'lgan. Zero, yangilanish, o'zgarish faqat moddiyatgagina daxldor hodisa emas.

Tahlil va natijalar. Modernizatsiya termini (birikma termin tarkibida, izohlanmish komponent sifatida) qator ijtimoiy sohalar doirasida qo'llanib kelgan va ayni kunda uning qo'llanishi yanada ommalashmoqda. Masalan, ta'lim modernizatsiyasi (pedagogika), qonun modernizatsiyasi, huquqiy modernizatsiya (yurisprudensiya), ijtimoiy modernizatsiya/sotsial modernizatsiya (sotsiologiya), adabiy modernizatsiya (adabiyotshunoslik), iqtisodiy modernizatsiya...

Sotsiologiya, siyosatshunoslik (politologiya) va iqtisodiyot kabi jamiyat hayoti, tuzilishi bilan bog'liq fanlar doirasida modernizatsiya termini va uning ta'rifiga alohida to'xtalindi. Hatto, modernizatsiyaning ijtimoiy ko'rinishlarini o'rganuvchi “modernizatsiya nazariyasi” borligi ta'kidlanadi. Modernizatsiya nazariyasi tarixiga to'xtalsak, ushbu jarayon XX asrning 50-60 yillarida shakllana boshlagan. Mazkur ijtimoiy nazariyaning mazmunini yoritgan sotsiolog G.Lassuel o'zining “Zamonaviy G'arb sotsiologiyasi” [7] asarida modernizatsiyaga quyidagicha ta'rif beradi:

Modernizatsiya, modernizatsiyalash (fransuzcha moderatio, moderne – yangi, zamonaviy) – jamiyatni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish maqsadida xilma-xil o'zgarishlarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy-tarixiy jarayonni ifodalovchi tushuncha.

“Modernizatsiya” termini birinchi marta faylasuf Markiz de Kondorse tomonidan 1770-yilda jamiyatdagi o'zgarishlarni ilmiy asoslash va rivojlanish qonuniyatlarini asoslash uchun ishlatilgan [8]. Biroq modernizatsiya masalalari professional ilmiy qiziqishlar doirasiga 1950-yillarda, Angliya va AQSH universitetlari sotsiologlari T.Parson, R.Dahrendorf, siyosatshunos L. Pye va iqtisodchi V. Rostov tomonidan ilmiy maktab shakllana boshlagan paytda kirib keldi [9]. Shu bilan birga, modernizatsiya nazariyasi va uning ilmiy talqini evolyutsiya va evolyutsionizmning klassik postulatlariga asoslangan edi [10]. Shuni ta'kidlash kerakki, o'sha paytda bu masalalar yagona ta'rifini topgan edi, ya'ni tabiatdagi hamma narsa bosqichma-bosqich harakat qiladi, asta-sekin murakkablashadi va takomillashib boradi [11].

Bugungi kungacha “modernizatsiya” termini keng ma'noda maqsadli, tizimli o'zgarishlar jarayoni, shu jumladan jamiyatdagi ko'plab o'zgarishlar, shuningdek, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy mexanizmlarni o'z ichiga olgan holda talqin qilinmoqda. Siyosatshunoslik, sotsiologiya, iqtisod, boshqaruv g'oyalari va usullarining o'ziga xos sintezi sifatida qaralishi mumkin bo'lgan yondashuvlar doirasida 1950-2000-yillarda modernizatsiyaning bir qator nazariy kontseptsiyalari ishlab chiqilgan. Siyosatshunos A.Haydarovning talqiniga ko'ra “modernizatsiya” tushunchasining negizida “hozir”, “hozirda”, “darhol” ma'nolarini anglatuvchi lotincha “mado” degan so'z yotadi. [12] XX asr o'rtalarida “modrenity” –

“taraqqiy topgan jamiyat” tushunchasi yuzaga kelgan bo'lib, u ijtimoiy tizimning zamonaviy yo'nalishga o'tish holatini anglatadi. Demak, modernizatsiya ijtimoiy hodisani zamonaviy talablara va didga javob beradigan holda o'zgartirish, takomillashtirishni bildiradi. Modernizatsiya nazariyasi rivojlanishini olimlar ikki bosqichga ajratishadi.

Birinchi bosqich (XX asrning 50-60 yillari)da modernizatsiya “vesternizatsiya”, ya'ni turmushning barcha sohalarida G'arbga xos qadriyatlardan nusxa ko'chirish sifatida tasavvur qilingan. Modernizatsiyaga bunday tarzda yondashuv ya'ni hokimiyatni tashkil etishda G'arbga xos qadriyatlar va standartlarni qabul qilish Afrika, Osiyo, Lotin Amerikasi va bir qator boshqa mamlakatlar tomonidan o'zini oqlamay, vaqt sinovidan o'ta olmaydi. Davlat va aholining o'z milliy xususiyatlarini hisobga olmagan holda tizim va hokimiyatni G'arblashtirish qabul qilinmagach, modernizatsiya qilish konsepsiyasini yanada takomillashtirish zarurati paydo bo'ladi.

Ikkinchi bosqich (XX asrning 70-90 yillari)ga modernizatsiya nazariyasiga doir har tomonlama puxta o'ylangan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish amallarini o'zida qamrab olgan talqinlarning yuzaga kelganligi xosdir. Mazkur nazariyalarning asosiy yutug'i jamiyatning zamonaviy turmushi bilan an'anaviylikni uyg'unlikda olib borish hisoblanadi.

Ko'rilganidek, modernizatsiya ijtimoiy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarini qamrab oladi. Bu borada politolog B.S.Starostin quyidagi ta'rifni keltiradi: “Modernizatsiyaning maqsadi va ma'nosi faqat iqtisodiy o'sishda emas, balki texnologik madaniyat, boshqaruv madaniyati, siyosiy va tamadduniy madaniyatlarini o'z ichiga oluvchi ijtimoiy madaniyat taraqqiyotining ma'lum darajasiga erishishdan iborat” [13].

Keltirilgan talqinlarning mushtarak tomoni ularning barchasida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarini takomillashtirish uchun xilma-xil o'zgarishlar qilish asosida taraqqiyotga erishish g'oyasining mavjudligidir.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda lingvistik nuqtai nazardan modernizatsiya jarayonini o'rganish tadqiqotchini hodisani keng qamrovda ko'zdan kechirishga undaydi: sotsiolingvistik hodisa sifatida modernizatsiyani til siyosati, endogloss va ekzogloss vaziyatlar bilan bog'liqlikda o'rganish, sof lingvistik hodisa sifatida tizimli jarayon shuningdek, qator yasalish usullari, omillarini hosil qiluvchi sifatida tahlil etishni talab qiladi. Har qanday holda ham modernizatsiya jarayoni ijtimoiy hodisa sifatida mavjud va u lingvistik hosilalarga ega.

Tilshunoslikda mazkur hodisa bir necha ko'rinishga ega bo'lib, terminning birikma shaklidan unga ta'rif berishimiz mumkin:

Til modernizatsiyasi – ma'lum bir tilni modernizatsiyalashtirish. Mazkur termin bevosita “til siyosati” termini bilan bog'lanadi va tilda amalga oshiriluvchi islohotlarni anglatadi.

Soha (tilshunoslik) modernizatsiyasi– 1) (lingvistik modernizatsiya) ma'lum bir soha doirasidagi yangilanish va zamonaviylashish. Sohaga yangi yondashuv va qarashlarning kirib kelishi. Bu asosda yangi yo'nalish va tarmoqlar faoliyati yuzaga chiqishi; 2) sohaga texnologik imkoniyatlar (mas., informatsion texnologiyalar)ni joriy qilish.

Leksik modernizatsiya - Tilning yangi qo'llanish sohalarida o'z yoki o'zlashgan qatlam leksik birliklari asosida yangi leksema (birliklar)ning hosil bo'lishi. Tilshunos T.V.Jerebilo “Lingvistik terminlar lug'ati”da mazkur birliklarning ilm-fan, texnika, siyosiy-ijtimoiy va madaniy sohalar doirasida hosil bo'lishi va sohaning ilg'or vakillari qo'llashi va ularning tashabbusi bilan tilga kirib kelishini qayd etadi [14].

Umuman, yuqorida keltirilgan uch birikma termin bir-biriga bevosita bog'liq. Terminologik modernizatsiyalashuv esa (garchi termin leksik birlik bo'lsa ham) ularning biri vositasida ham, uzviy ketma-ketligi hosilasi tariqasida ham yuzaga chiqishi mumkin. Ya'ni tilni modernizatsiyalash soha terminologik tizimini modernizatsiyalashga, terminologik tizim birliklari esa leksik modernizatsiyaga sabab bo'ladi. Natijada yangi yoki yangilangan leksik birliklar tilning lug'at sathini boyitadi.

Til taraqqiyoti bir tomondan yangi atov birliklari, so'zlar (neologizmlar) hisobiga amalga oshsa, boshqa tomondan tilning boyishi mavjud birliklarning qayta nomlanishi (yangilanishi) hisobiga yuzaga chiqadi. Mavjud referentlarning yangilanishi lug'at tarkibining ma'lum bir kichik qisminigina egallab, bevosita konseptlarga aloqador hisoblanadi va konsept tarkibida (garchi yangilangan, qayta nomlangan bo'lsa-da) qat'iy o'zgarishsiz qoladi. Birinchi jarayon ko'plab lingvistik tadqiqotlar obyekti bo'lib hisoblangan, biroq ikkinchi holatda modernizatsiya jarayoni bor va u hamisha tilda mavjud bo'lsa-da, hanzuz o'zining tizimli ta'rifini topmagan.

Har qanday milliy til lug'at sistemasining, shuningdek, terminologik sistemasining rivojlanishida, takomillashuvida

ikki narsaga to'g'ri amal qilish bu boradagi ishlarning muvaffaqiyatli, ijobiy natijalar bilan yakunlanishini ta'minlaydi: 1) tilning rivojlanishida amal qiladigan qonuniyatlar asosida ish ko'rish; 2) terminga qo'yiladigan talabdan kelib chiqib ish ko'rish. [15]

Xulosa va takliflar. Lingvistik modernizatsiyalashuv, xususan, terminologik tizim modernizatsiyalashuvini turli nuqtai nazardan tadqiq qilish mumkin. Qiyosiy –tarixiy paradigma nuqtai nazaridan termin va terminologik tizimning taraqqiyot dinamikasini aniqlash, sistem-struktur paradigma qonuniyatlariga asoslanib termin qurilishida kechuvchi o'zgarishlarni belgilash, antroposentrik paradigma ta'limoti asosida hodisani vujudga keltiruvchi omillarni belgilash, termin ijodkori va iste'molchisi –insonning tizimni yangilash va uning takomillashuviga ta'siri kabi masalalarni o'rganish yangi ilmiy xulosalarga olib keladi.

O'rganilgan manbalar va kuzatishlarimiz asosida “modernizatsiyalashuv tushunchasi va shu asosdan yasalgan turli yasalmalar sohalararo termin maqomidadir” degan xulosaga keldik. Sababi jarayon va uni hosil qiluvchi omillar aynan o'xshash bo'lib, farqlanish asosan modernizatsiyalanuvchi ob'yektlardadir.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 6-том. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-tom. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Modernizatsiya>
4. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/modernization>
5. <https://www.oed.com/search/dictionary/?scope=Entries&q=modernization>
6. Большой толковый словарь русского языка. С. А. Кузнецов (общ. ред.) [https://gramota.ru/poisk?query=%D0%BC%D0%BE%D0%B4%D0%B5%D1%80%D0%BD%D0%B8%D0%B7%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F&mode=slovari&dicts\[\]=42](https://gramota.ru/poisk?query=%D0%BC%D0%BE%D0%B4%D0%B5%D1%80%D0%BD%D0%B8%D0%B7%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F&mode=slovari&dicts[]=42)
7. Лассуэл Г. Современная западная социология. Словарь. Политиздат. 1990. –С. 152-153
8. Lewis F. Abbott Theories of industrial modernization & development. Manchester, England: Industrial Systems Research, 2013. 316 p.
9. Gerald D. Feldman, Peter Hertner Finance and Modernization: A Transnational and Transcontinental Perspective for the Nineteenth and Twentieth Centuries. Routledge, 2016. 320 p
10. Дятел Е.П. Новое о формировании современного экономического мышления // Известия Уральского государственного экономического университета. 2017. №4 (72). С. 5–18.
11. Касьянов В.В., Халюзин В.А. Духовно-нравственные, традиционные и религиозные ценности как фактор модернизации в условиях глобализации общества // Социально-гуманитарные знания. 2016. № 7. С. 21-31.
12. Хайдаров А.А. И др. Основы политологии. - Т., 2003. - С. 20.
13. Старостин Б. С. проблемы модернизации: история и современность // Модернизация и национальная культура. Материалы теоретического семинара. – М. : Апрель-85, 1995. – С. 8–21
14. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп.– Назрань: ООО «Пилигрим», 2010.
15. Хожиев А. Ўзбек терминологиясининг hozirgi holati va uni takomillashtiriш chora-tadbirlari //Атамашунослик –касбий тафаккурни шакллантиришда, фан ва таълимни ривожлантиришда. –Тошкент, 2008



UDC: 811.11-112

Nargiza MASHARIPOVA,
Associate Professor, Urganch State Pedagogical Institute,
E-mail: nargizamasharipova0787@gmail.com
Onagul ISMOILOVA,
PhD student, Urganch State University,

Review professor D.Qambarova

THE PROBLEM OF TRANSLATING RELIGIOUS AND HISTORICAL TERMS IN THE TRANSLATION OF HISTORICAL AND LITERARY WORKS

Annotation

This article is devoted to the field of translation studies, discussing the crucial role of translation in the world, opinions expressed by representatives of global translation schools, mainly addressing one of the issues that translators may encounter in historical and literary works - the translation of religious and historical terms, the omission or addition of certain words, and the impact of these actions on the context.

Key words: adequate translation, style, rhyme, archaic words, realities, hadith, wise leader, prophet, faith, religious words.

ПРОБЛЕМА ПЕРЕВОДА РЕЛИГИОЗНЫХ И ИСТОРИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ИСТОРИКО-ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Аннотация

Данная статья посвящена области переводоведения и содержит мнения представителей международных школ переводчиков о роли переводчика в мире. Основное внимание уделено проблемам, с которыми могут столкнуться переводчики при работе с историко-художественными произведениями, такими как перевод религиозных и исторических терминов, пропуск или добавление отдельных слов и их влияние на контекст.

Ключевые слова: адекватный перевод, стиль, рифма, архаичные слова, реалии, хадис, мудрый лидер, пророк, вера, религиозные слова.

TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO‘ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI

Annotatsiya

Mazkur maqola tarjimachilik sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda jahonda tarjimaning o‘rni, dunyo tarjimachilik maktablarning vakillari tomonidan bu borada bildirilgan fikrlar, asosan tarixiy-badiiy asarlarda tarjimon duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolardan biri diniy va tarixiy so‘zlar tarjimasi, ayrim so‘zlarni tushirib qoldirish yoki qo‘shish va buning kontekstga ta‘siri yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: adekvat tarjima, uslub, qofiya, arxaik so‘zlar, realiyalar, hadis, pir, nabiy, e‘tiqod, diniy so‘zlar

Introduction. As we all know, any work that spreads enlightenment contributes to the development of that society and the high level of success of the state. For this reason, many creators of the 20th century translated the masterpieces of world literature from Russian, English, German, and French into Uzbek to acquaint the Uzbek people with them and to lead our society out of dependency and slavery, to open the eyes of the Uzbek people wider. They tried to present many works to the people more easily by staging them. Our great scholars like Behbudiy, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Fitrat worked hard in the field of translation, even risking their lives, sweating for today's peaceful times. In a sense, they succeeded in awakening the people, taking samples from foreign literature, encouraging the people towards freedom and independence. In fact, if we look at the world schools of translation studies, practical translation studies began two thousand years ago when Livius Andronicus translated Homer's "Odyssey" into Latin. In Europe, interest in practical translation studies arose in the 8th-9th centuries [1].

In Uzbekistan, starting from the second half of the 20th century, we can witness that G‘aybullat Salomov, Jamol Kamol, Abdulla Sher, Shavkat Rahmon made great contributions to delighting our people with samples of world literature. Through translation, by knowing the languages of

other peoples, we can open new and bright doors for our own lives. It brings joy to a person that we can keep pace with world innovations in every field and apply this to our own research. For those who have taken translation as their profession, there is a great responsibility to convey the works written about the culture and customs of other language-speaking peoples to the reader of the second nation in the way the writer felt.

After gaining independence, among a number of reforms being carried out in our country, the designation of "Training modern personnel who know several foreign languages in our country, conducting scientific research on foreign languages, improving language teaching methodology" [2] as one of the priority tasks is opening up the way to inform researchers about the latest achievements in the field of science and to conduct more and deeper research in the field of translation studies to increase adequate translations. Especially in the years since our country's independence, it would not be an exaggeration to say that a radical turn has been achieved in this field. Real specialists in their field, who are translating foreign literature into our national language and presenting samples of Uzbek literature to people in other languages, have been achieving sufficient success in this regard. But as we mentioned earlier, this path is

certainly not easy; conducting many researches and being able to use the necessary type of translation, appropriate style, correct linguistic equivalents, and phraseological units requires great skill in the translator. A writer who stands out with his bright individual style often displays not just one but several styles in his work [3]. It is natural that the translator understands this and his effort in correctly conveying the work to the people is proof that he is a true creator.

According to the type of work, if it is a literary work, it is necessary to illuminate the artistic expressiveness in the second language; if it is a scientific work, to correctly apply terms and concepts; if it is poetry, to adjust the rhyme and refrain; if it is historical, to effectively use archaic and historical words in the second language. If we turn to the opinions of world scholars in this regard, we will witness the existence of different views. "The translation process between two languages involves the translator transforming an oral text in the source language into an oral text in the target language" [4]. In this statement, we can see that A. Rojo has provided a general idea related to the field of translation. According to P. Newmark, "Translation is rendering the meaning of a text into another language in the way that the author intended and with the appropriate style" [5]. In our opinion, Newmark here implies being able to correctly use all styles in translation, to accurately convey the author's idea to the reader who is a speaker of another language.

Object of the Research and Methods Used. We are pleased that most of the research being conducted in the field of translation today is devoted to the difficulties we may encounter in translation, the pragmatic problems arising from the absence of exact equivalents in the second language, creating great opportunities for young translators. Any research and studies conducted in the field of translation are always discussed with great interest in linguistics. For example, in her dissertation on "The Investigation of the Translations of Figurative Means in the Text of 'Baburnama' into English" [6], D. Hoshimova has illuminated the lexical, semantic, syntactic-stylistic, pragmatic, and linguocultural characteristics of the translation of figurative means in the work. With this, the scholar has, on the one hand, demonstrated her enthusiasm for historical works, and on the other hand, to some extent provided solutions to the problems we may encounter in the translation of historical-literary works.

The translator scholar G. Salomov, who was instrumental in the flourishing of the translation school in our country, defined translation as follows: "The main feature of translation is that it is a creative process of re-creation with the means of another language; it is the art of words" [7]. Understanding the essence of the great translator's thoughts, if we define translation as the art of words and the translator as a true creator, we would be giving a correct definition. Because when introducing a work into a second language, it is not easy for the translator to not only create it in a simple and understandable way so that the customs and national values of the people reach the second nation, but also to creatively select the style of the work, and this is not within the ability of every creator. Because, as a result of translation, new views, new ideas, and new genres can also form as products of relations between national literatures. The results of observations show that foreign readers very much enjoy reading samples of Uzbek national literature that have been translated, and express positive opinions about Uzbek creators. In 1898, Mirzo Muhammad Haydar's work "Tarikh-i Rashidi" was translated into English by Edward Denison Ross and was warmly received by English readers. Interest in this historical work aroused interest among researchers, and in 1996, it was re-translated into English and published by Professor William Thackston [6]. Of course, as time goes on and progress and

changes are observed in science, it is noted that the later translation was done in a much more perfect, simple, and fluent language than the previous one. Only if these literary samples that showcase our identity to the world are translated correctly, will the author's ideas be correctly interpreted by the readers.

Results Obtained and Their Analysis. For these reasons, we decided to translate another bright example of Uzbek national literature - the historical work "Khorezmoma" by Ozod Masharipov—to present it to English readers. In this process, in addition to gaining an understanding of the life paths of our ancestors who left a deep mark in our national history, we also realized that we should gain knowledge about the history of the emergence of Islam and its spread to Central Asia, and that English readers should certainly also enjoy this. In order to achieve an adequate translation, we resolved to produce a translation by integrating various translation methods. This is certainly not an easy task, because during the translation process, we need to know in what way religious words, realities, and archaic words are correctly used in English, and exactly which words can be used in place of specific words. For example, in the translation of religious words in this work such as *hadith*, *pir* (wise leader or spiritual mentor), *nabiy* (prophet), *e'tiqod* (faith), Islamic theology, *murid* (disciple), *payg'ambar* (prophet), we need to be careful. Because one wrongly chosen word can completely reverse and shatter the entire work, the original feelings and thoughts that the author intended to convey.

We can provide thousands of such examples. For instance, it was difficult to find exact equivalents in English for lexical units such as *qurultoy* (a historical term for a council or assembly), *davlat to'ntarishi* (coup d'état), *sohibqiron*; or expressions like *qonini so'rmoq* (literally "to suck one's blood," meaning "to massacre"), *nohaq qon to'kish* (to shed innocent blood), *hukmron g'oya* (dominant idea), *o'ziga og'dirib olmoq* (to win over), *tutingan o'g'il* (adopted son). However, to translate these word-for-word may be contrary to the principles of translation. Therefore, if exact equivalents of such words, phrases, and idiomatic expressions do not exist in the lexical wealth of the second language, we can express the meaning using explanations or phrases with close meanings. Sometimes, it is sufficient to convey the content of an entire paragraph using two or three sentences, and sometimes the opposite may be the case. That is, to bring out the essence of one sentence in the second language, we may have to use several sentences. This process is not considered incorrect in translation, as long as the author's idea finds its precise expression. Also, a translation of the same sentence done by two translators may be expressed with different words.

The Uzbek language is such a rich language that it is full of words that cannot be expressed in other languages, for which exact equivalents do not exist in other languages. For example, in the historical work "Sultan Jalaluddin Khwarazmshah in Pakistan" written by Bekzod Abdirimov and Vasim Sajjad, the phrase "*yastanib yotgan*" ("sprawling" or "lying spread out") caught our attention. In the English translation, we witnessed that this phrase was omitted by the translator:

"Indeed, the Khorezmshahs' state, which included vast deserts, plains, mountains and hills, oases lying spread out from the Kipchak steppe to the Indus River, from East Turkestan to the Persian Gulf, stands among the largest empires established in the world" [8].

This sentence was interpreted by the translator as follows:

"Because, the Khorezmshahs' state, which stretches from the Kipchak steppe to the Indus River, from East

Turkestan to the Persian Gulf, was one of the largest empires in the world" [8].

As a result of the integration of the world's peoples, representatives of the global community are striving to study each other's cultures in all aspects and, in this process, establish mutual cooperation in various fields. The development of different peoples' cultures is evident in the progress of relations in important areas such as culture, art, and literature of those nations. The unique aspects of each nation's culture, customs, and daily life are vividly reflected in artistic and historical literature. For this very reason, by analyzing and studying the masterpieces of world literature, the reader becomes aware of the past and ancient values, customs, secrets of that people's culture, and the historical stages of their culture. This also leads the readers to be aware

of the others' culture and be more flexible if they visit to the overseas.

Conclusion. From the translation, we can understand that the part in the original text "...including vast deserts, plains, mountains and hills, oases lying spread out..." was omitted in the English translation of the text. However, with this, we cannot say that the translator made a gross error; we can consider that he was able to convey the author's intention to the reader in simple language, briefly. With this, we once again witnessed how versatile and unique our Uzbek language is. It is up to the translator with which methods to translate, they only try to create perfect, clear and readable work into other language. The translated book can be a real example of the skillful translator's work if it becomes bestseller and loved one among other books.

REFERENCES

1. Hamidov X.X, Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari", -Toshkent, 2012
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 5-martdagi Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Isoqhon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi. Elektron resurs:<http://www.uza.uz/oz...prezidentimiz-is-okhon-t-ra-ibrat-mazhm>
3. Salomov G', "Tarjima tashvishlari", -Toshkent, 1983 19-bet
4. Rojo A., Step by step: A course in contrastive Linguistics and Translation. Peter.Lang. 2009. -25-bet
5. Newmark P.A., Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, (1988/1995). – p 5.
6. Hoshimova D., "Boburnoma" matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha fan doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent 2018. -74-bet
7. Salomov G', Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: O'qituvchi, 1978. – B.93.
8. Abdirimov B., Sajjad V., "Sulton Jaloliddin Xorazmshoh Pokistonda" – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2021-y.11 va 171-betlar.
9. Cruse D. A. Lexical semantics. – Cambridge, England: Cambridge University Press, 1986. – 310 p. – P. 285.
10. DiMarco Ch., Hirst G., Stede M. The semantic and stylistic differentiation of synonyms and near-synonyms. In AAAI Spring Symposium on Building Lexicons for Machine Translation. –Stanford, CA: March. Dorr, Bonn, 1993. – P. 114-121.



UDK 808.5

Dilafruz NE'MATJONOVA,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: dilafruznematjonovna@gmail.com

NamDU dotsenti, PhD D.Sarimsakova taqrizi asosida

FRAZEOLGIK VA PAREMIOLGIK BIRLIKLARDA SONLARNING QO‘LLANILISHINING LINGVOMADANIY JIHATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada frazeologik va paremiologik birliklarda sonlarning qo‘llanilishi lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. O‘zbek tilidagi frazeologik va paremiologik birliklarda sonlar muhim rol o‘ynaydi. Masalan, "uch", "yetti" va "qirq" sonlari o‘ziga xos madaniy va lingvistik ma‘nolarga ega. Marhumni xotirlash, to‘y marosimlari, sovcilik kabi urf-odatlarda bu sonlarning qo‘llanilishi lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Lingvomadaniy xususiyatlar, frazeologik birliklar, paremiologik birliklar, sonlar, o‘zbek tili madaniyat maqollar.

LINGUISTIC ASPECT OF THE USE OF NUMBERS IN PHRASEOLOGICAL AND PAREMIOLOGICAL UNITS

Annotation

This article analyzes using numbers in phraseological and paremiological units from a linguistic and cultural point of view. Numbers play an important role in phraseological and paremiological units in the Uzbek language. For example, the numbers "three", "seven" and "forty" have specific cultural and linguistic meanings. The use of these numbers in traditions such as commemoration of the deceased, wedding ceremonies, courtship is analyzed from a linguistic and cultural point of view.

Key words: Linguistic and cultural features, phraseological units, paremiological units, numbers, Uzbek cultural proverbs.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АСПЕКТ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ И ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ

Аннотация

В данной статье анализируется употребление чисел во фразеологических и паремиологических единицах с лингвокультурологической точки зрения. Числа играют важную роль во фразеологических и паремиологических единицах узбекского языка. Например, числа «три», «семь» и «сорок» имеют определенное культурное и языковое значение. С лингвокультурологической точки зрения анализируется использование этих чисел в таких традициях, как поминовение усопших, свадебные обряды, ухаживания.

Ключевые слова: Лингвокультурные особенности, фразеологизмы, паремиологические единицы, числа, узбекские культурные пословицы.

Kirish. Yusuf Nurmuhammedov “Inson o‘y-fikrlarini va hislarini ifodalashda tildan vosita sifatida foydalanadi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, huddi fikr va hislar tildan mustaqildek tuyiladi. Lekin til fikrlar shakllanishi va saqlanishida katta rol o‘ynaydi. Til imkoniyatlari va lisoniy kompetensiyamizga asoslangan holda aniqroq yoki abstrakt shaklda zohiriy va botiniy olamlarni ifoda etamiz” deb izohlaydi [1]. B.Uorf talqinicha, “Til shunchaki fikrlarni bayon qilish uchun vosita emas, aksincha g‘oyalarni shakllantiruvchi, shaxsning aqliy faoliyati, taassurotlarini tahlil qilish uchun dastur va qo‘llanma” [2].

Mavzuga oid materiallar va tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslik tarixida til va madaniyatning o‘zaro munosabati masalasiga uch xil yondashuv borligini kuzatishimiz mumkin. Madaniyatning tilga bir tomonlama ta‘sirini yoqlovchilar S.A.Atanovskiy, G.A.Brutyan, E.S.Markaryan kabilardir. Ularning fikricha, birinchi yondashuvda til madaniyatning oddiy in‘ikosi sifatida deb qarashadi. Ikkinchi yondashuv tarafdorlari V.fon Humbold, I.G.Gerder, E.Sepir va B.Uorf lar bo‘lib, til millatning “ruhi”, ya‘ni u madaniyatga ta‘sir etish kuchiga ega va har qanday milliy til milliy madaniyat va jamiyat samarasini ifodalaydi degan fikrni olg‘a surishadi. Uchinchi yondashuv til va madaniyatning o‘zaro munosabati haqida bo‘lib, K.Levi-Stross, N.I.Jinkin, N.I.Tolstoy va boshqa olimlar ilmiy ishlarida aks ettirishadi. Unga ko‘ra, “til-biz ajdodlarimizdan

meros qilib olgan madaniyatning tarkibiy qismi, til – biz uning yordamida madaniyatni o‘zlashtirishimizdagi asosiy vosita va nihoyat til – ruhimiz voqeligi” deyilgan. B. Uorfning talqiniga ko‘ra, [til] shunchaki fikrlarni ifodalash vositasi emas, balki g‘oyalarni shakllantiruvchi, shaxsning aqliy faoliyati va taassurotlarini tahlil qilish, kelishuvdagi aqliy resurslarni sintez qilish uchun dastur va qo‘llanmadir [2]. Biz hodisalar dunyosidan ajratadigan toifalar va turlarni u yerda topa olmaymiz, chunki ular har bir kuzatuvchining ko‘ziga qarab turadi; aksincha, dunyo bizning aqlimiz tomonidan tartibga solinishi kerak bo‘lgan kaleydoskopik taassurotlar oqimida aks etadi va bu asosan bizning ongimizdagi lingvistik tizimlar orqali amalga oshiriladi[3]. Biz tabiatni qisqartiramiz, uni tushunchalarga ajratamiz va o‘zimizga xos ma‘nolarni belgilaymiz, chunki biz uni shu tarzda tashkil etish bo‘yicha kelishuv ishtirokchilarimiz - bu bizning nutq jamoatimiz bo‘ylab amal qiladigan va tilimiz naqshlarida kodlangan kelishuvdir, ammo uning shartlari mutlaqo majburiydir; biz faqat kelishuv qaroriga binoan ma‘lumotlarni tashkil qilish va tasniflashga egamiz [2].

Tahlil va natijalar. Madaniyat tushunchasiga 500 dan ortiq va til tushunchasiga undan ham ko‘proq ta‘riflar mavjud. Amerikalik antropologlar A.Kreber va K.Klaxon 300 dan ziyod madaniyat ta‘riflarini tahlil qilgach, 6 tip tasniflarni (tavsifiy, normativ, tarixiy, psixologik, struktur va genetik nuqtai nazar) ajratib ko‘rsatdilar [4].

Tavsifiy nuqtai nazardan, "madaniyat yoki sivilizatsiya keng etnografik ma'noda jamiyat a'zosi sifatida inson tomonidan o'zlashtirilgan bilim, e'tiqod, san'at, axloq, qonun, taomil va boshqa qobiliyat va odatlardan tashkil topadi" [5]. Ya'ni, madaniyat lingvomadaniy jamoaning turli ko'rinishdagi faoliyatlarining yig'indisidir.

Tarixiy jihatdan, madaniyat "bizning hayotimiz mazmunini tashkil etuvchi, ijtimoiy meros sifatida qabul qilingan faoliyat va e'tiqodlar to'plami" [6]. Ushbu ta'rif markazida faoliyat tushunchasi yotadi, bu esa lingvomadaniyatshunoslarni jalb qiladi va an'ana hamda ijtimoiy merosning ahamiyatiga urg'u beradi. Madaniyatning normativ aspekti kishilar jamoasining hayot tarzi yoki idealari va qadriyatlarini qamrab oladi. "Jamoat yoki qabila amal qiladigan hayot tarzi madaniyat hisoblanadi... qabila madaniyati qabila amal qiladigan an'anaviy e'tiqod va tajribalar to'plamidir [7]. Boshqa tomondan, "madaniyat... yovvoyi yoki madaniyatli insonlar haqidagi so'zga bog'liq bo'lmagan holda har qanday insonlar guruhining moddiy va ijtimoiy boyliklari (institutlar, urf-odatlar, taomillar, xulq-atvor reaksiyalari)" [7].

Psixologik talqinqa ko'ra, "madaniyat – guruh, jamoa yoki jamiyat uchun umumiy odatga aylangan xulq-atvor shakli". Har bir shaxs o'ziga xos individual, takrorlanmas bo'lsa-da, u o'zi mansub madaniyatning an'anaviy model va taomillariga muvofiq yashashi kerak bo'ladi. Struktur nuqtai nazardan, "madaniyat – bu jamiyat a'zolarining tartibli takrorlanuvchi reaksiyalari" hamda "o'rganish yo'li bilan olingan xulq-atvor va komponentlari, bu jamiyat a'zolari o'rtasida yoyilgan va vorislik orqali avloddan-avlodga o'tuvchi xulq-atvor natijalarining birikuvi"dir [8].

Genetik tavsifga ko'ra, "madaniyat - bu insonga xos aqliy qobiliyatlarning amalga oshishiga bog'liq bo'lgan, biz "simvollar bilan ifodalash" deb nomlaydigan, narsa va hodisa fenomenlarining alohida tartibi yoki sinfi uchun nom. Lo'ndaroq aytganda, madaniyat moddiy obyektlar – asboblardan, moslamalar, ornament, tumor va hokazo hamda ramziy ifodalash kontekstlarida qo'llanuvchi amallar, maslak va taomillardir. Bu mavjudlik va yashab qolish maqsadida kurash uchun inson tomonidan qo'llanadigan ekzosomatik yo'l va vositalar bilan tuzilgan nozik mexanizmdir" [9]. Yuqoridagi madaniyat tiplari naqsif tamoyillariga asoslangan, ammo ularni birlashtiruvchi nuqta insonning o'rganish va yaratuvchanlik qobiliyatidir.

Lisoniy madaniyatshunoslik fani lingvistik va madaniyatshunoslikning paradigmatlari (namuna, andoza-ilmiy yutuqlar majmui) kesishmasida paydo bo'lgan bo'lib, uning mohiyati madaniyat, til va mentalitet orasidagi munosabatlar tabiatini ochib berishdir. Insonning tabiati, tarix, jamiyat va madaniy borliqning boshqa yo'nalishlariga ko'ra inson o'zining anglashini tadqiq etishi madaniyatshunoslik hisoblanadi. Antroposentrik (antroposentrik yo'nalish – inson mohiyatini til bilan bog'lab ko'rib chiqish, yo'nalish, insonning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni olamni idrok etish, atrof-borliqning lisoniy ongda aks etishi, zohiriy va botiniy olam hamda uning obyektlarini o'zlashtirish natijalarini til vositalari bilan qo'llashdir [10]. Madaniyatshunoslik inson tabiati, tarix, jamiyat, ijtimoiy va madaniy borliq va insonning o'zini anglab yetishini bildirsada, antroposentrik esa tilda jamlagan insonning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Bizni buyuk shoir va yozuvchilarimizdan bir bobimiz A.Navoiy hazratlari tilga quyidagicha ta'rif berishlariga diqqat qilaylik: "tilni xanjarga, so'zni unga qadalgan injurga" "tilni ochilgan lolaga, so'z durlarini esa unga qo'ngan shabnamga o'xshaydi" [11]. Bu ta'riflardan xulosa qiladigan bo'lsak, til birlamchiligi, madaniyatning ifoda vositasi ekanligi anglashiladi.

O'zbek tilidagi frazeologizm va paremiologik birliklarda ko'plab turli xil sonlarni uchratishimiz mumkin va aynan o'sha sonlarning lingvomadaniyatda ma'lum bir muhim

rol o'ynashi ham ko'pchilikka sir emas. Frazeologizm va paremiologik birliklarda, masalan, bir, ikki, uch, besh, yetti, o'ttiz, ikki, qirq, yuz, ming kabi sonlar eng faol qatnashadiganlaridir. Bu sonlarning har biri lingvomadaniyatda o'ziga xos xususiyatga ega. Fikrimiz isboti tariqasida berilgan sonlarning lingvomadaniyatda qanday vazifada kelishini tavsiflab chiqamiz.

Uch soni bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni berib o'tamiz: o'zbek etnografiyasida marhumni dafn qilgandan so'ng va uch hayit oralig'ida o'tkaziladigan xotirlash marosimlari vujudga kelgan. Marhum vafotidan so'ng "uch" deb ataladigan marosim azali uyda birinchi marta o'tkaziladigan marosim nomi. Ushbu marosimda marhumning kiyimlari yuviladi va uni yuvg'uchiga beriladi, shu sababli kiruvdi deyiladi. Kiruvdi dafnning uchinchi kunida bo'lgani uchun "uch" deb nomlanadi va dafn marosimidan so'ng uch kungacha janoza o'qilgan xonadonda marhum haqiga duofotiha qilinadi. Qo'shimcha qilsak, azali uyda uch kungacha ovqat qilinmaydi va qarindoshlar yoki qo'ni-qo'shnilar uylarida taom tayyorlab olib chiqishadi. Bu borada har-xil fikrlar mavjud, masalan, agar yemak uchun olov yoqilsa go'yoki o'lik yonadi deb hisoblashadi. Aslida uch kungacha marhumning yaqinlari g'am-qayg'u chekayotganlari uchun pishir-kuydir haqida o'ylasholmaydi. Bundan tashqari to'y marosimlarda ham uch soniga tez-tez guvoh bo'lishimiz mumkin, odatda sunnat to'yimi, chaqoloq tug'ilgandagi aqiqa to'yimi yoki nikoh to'ylari uch kun davom etadi. Bu marosimlar davomida mehmonlarga uch kun mehmondorchilik va taomlar ham odatda uch xil tortiladi.

Xalqimizda mehmondorchilik uch kun degan gaplar ham tez-tez uchraydi. To'y marosimlaridan biri kelin salomda kelinchak uch marotaba egilib salom berishi ham ko'pchilikka ayon. Mazkur ma'lumotlarga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, biron xonadonga uy a'zolaridan birini uch marotabagacha chaqirish madaniyat belgisi hisoblanadi. Ma'lumot o'rnida aytganki, o'zbek xalqiga tegishli odatlardan birida, ko'pchilik kimdir biron yerdan narsa yoki buyum topib olganda topib olgan kishi uch marotaba "kimmiki" deyishi va hech kimdan javob kelmasa topib olingan buyum "halol" bo'ldi deyishadi. O'zbek odatlariga tegishli bo'lgan "sovcilik" da kuyov tomondagilar qizni uch marotabagacha so'rab kelishlari o'ziga o'xshash sanaladi va kelin tarafdagilarni ham rozi bo'lish ehtimoli kuchayadi, hamda kelinni roziligini olish ham uch marotabagacha bo'lishi kerak. Bu kabi misollardan ko'plab keltirishimiz mumkin, lekin diqqatimizni yetti soniga ham qaratsak. Agar "qaysi raqamni yoqtirasiz?" deb savol bersangiz ko'plab odamlar "yetti" deb javob berishadi. Sababi madaniyatimizda yetti soni baxt va omad keltiradigan son deb qaraladi. Masalan, moshina nomerida yetti soni bo'lishini xohlashadi va mashxur futbolchilar mazkur raqamda o'ynashni afzal ko'rishadi. Yana yetti soni qatnashgan mobil raqamlarni ham suyishadi. Bu istaklari uchun yetti soni bor raqamlarni sotib olishda katta sarflashlariga ham guvoh bo'lib turamiz.

Yetti sonini bu darajada bo'lishiga sabab hayotda shu raqam bilan bog'liq bir qancha ajoyibotlar mavjudligidir: yetti kun, yetti sayyora, yetti mo'jiza, yetti xil rang, yetti iqlim, yetti dengiz, yetti musiqiy nota va boshqalar. O'zbek xalq urf-odati va madaniyatini ko'plab jihatlari tahsinga loyiq, ulardan biri, kelin olmoqchi yoki qiz uzatmoqchi xonadonlar bir-birlarini yetti avlodigacha surishtirishadi. Bu esa juda katta ahamiyatga ega, chunki avlod-ajdodlari orasida noma'qul ishlar qilgan kishilar yoki ruhiy xasta bo'lganlarini aniqlashlari kelajak yosh oilaning farovon hayotlari uchun muhimdir.

Muhokama. O'zbek madaniyati mahalliy o'yinlarda ham seziladi, misol uchun, "yetti teshik": Bu o'yinda bolalar yerga turli teshiklar qazib, ularning har biriga bir son berishadi. Keyin esa ishtirokchilar navbat bilan to'pni

teshiklarga urib, teshiklar orqali to'pni o'tkazishadi. Maqsad to'pni yetti teshikdan o'tkazishdir. Va "yetti qiz": Bu o'yin asosan qizlar o'rtasida o'ynaladi. O'yinda qizlar davra shaklida turib, qo'llarini bir-biriga tutib, navbat bilan "yetti qiz" deb aytishadi va har bir son uchun bir qadam tashlashadi. Bu o'yin raqsga o'xshash harakatlar bilan amalga oshiriladi. Yana bir o'yinlardan biri "yetti" tosh: Bolalar yerga yetti dona kichik tosh qo'yishadi va ularni bir-biriga urib, toshlarni yig'ishadi. Toshlar bilan turli xil vazifalar bajariladi, masalan, bir toshni havoga tashlab, boshqa toshlarni tezlik bilan yig'ish. O'zbek madaniyatida yetti soni bilan bog'liq har-xil urf-odatlar ko'p uchrashini ko'rib chiqdik va bu haqida yana davom ettirishimiz mumkin, lekin navbatdagi mashhur sonlardan biri qirq sonini ko'rib chiqamiz.

Xalqimiz orasida shunday urf-odat borki, uni "qirq" deb ataymiz, u kishi vafotidan so'ng o'tkaziladigan marosim. Bu marosim odatda o'ttiz yetti yoki o'ttiz to'qqizinchi kunda bo'ladi. Bu marosimni qilishning sababi, marhumning ruhi qirq kun dunyolar orasida bo'ladi va u ozirat hayotiga yetguncha mazkur kun mobaynida atrofda aylanib yuradi deb ishoniladi shu tufayli qirq kundan bir yilgacha qora yoki ko'k kiyib yurishadi. "Qirq" marosimi "katta qirq va kichik qirq" marosimlarini o'z ichiga oladi. "Kichik qirq" kishi o'limidan so'ng yigirma kun ichida o'tkaziladi "Qirq" ni "chilla" degan so'z bilan ham yuritiladi, faqat "chilla" so'zi boshqa marosimlar uchun, masalan, yangi tug'ilgan chaqaloq, yangi

tuqqan ayol va yangi kelin-kuyovlarni "chilla"si bo'ladi. Bu "chilla"ni tutishdan maqsad, ularni qirq kun davomida yomon ko'zlardan asrash, qorong'u tunlarda yolg'izlatmaslik va og'ir mehnat qildirmaslik, ayniqsa tuqqan ayolga. bu amallarni ilmiy tadqiqotda ko'rib chiqadigan bo'lsak, tuqqan ayolning tanasi qirq kundan keyin tiklanadi, yangi chaqaloq esa qirq kun ichida tashqi muhitga moslashadi, bularga qo'shimcha tariqasida homiladorlik davri qirq haftagacha davom etishidir. Bundan tashqari xalq orasida fasllarda ham "chilla" so'zi qo'llaniladi, yozdagi "chilla" saraton, qishdagi esa qahraton deb ham yuritiladi. Saraton yozning eng issiq qirq kunligida va qahraton qishning eng soviuq qirq kunligida bo'ladi. Qo'shimcha ma'lumotlardan biri, kishi qirqa kirganda yetuk, komil inson bo'ladi deb kattalarimiz aytishadi, chunki inson qirq yoshigacha turli-xil hayot sinovlaridan o'tib yetarlicha tajriba to'plashi mumkin va o'sha hayotiy tajribalariga tayangan holda aql bilan ish qila oladi deb hisoblashadi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, madaniyat va til tushunchalari berilgan ko'plab ta'riflarga tayanib, tilning inson hayotidagi roli va ahamiyati beqiyos ekan, til birlamchiligi, madaniyatning ifoda vositasi ekanligini tushunamiz. Frazeologik va paremiologik birliklarda "uch", "qirq" va "yetti" sonlarning qo'llanilishi, marhumni xotirlash, to'y marosimlari, sovchilik kabi urf-odatlarda bu sonlarning qo'llanilishi lingvomadaniy jihatdan tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR

1. Nurmuhamedov Yusuf. Frazeologiyaning dolzarb masalalari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand: "SamDCHTI" nashriyoti, 2022. – 90 bet.
2. Whorf B. L. Language, thought, and reality: selected writings of... (Edited by John B. Carroll.). – 1956.
3. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: М.: Флинта: Наука, 2010, -282с
4. Розин В. М. Эмоции в искусстве, искусство-психотехника эмоций //Мир психологии. – 2002. – №. 4. – С. 71-84.
5. Taylor V. E. Para/Inquiry: Postmodern religion and culture. –Routledge, 2008.
6. Sepir E. Yazyk: Vvedenie v izucheniye rechi //Izbrannye statyi po yazykoznaniyu I kulturologii.–M.: Progress. – 1993.
7. Алефиренко Н. Ф. Синергетика лингвокультурологии как методологическая проблема. Verlag, 2007. –379с
8. Linton R. Section of anthropology: the tree of culture //Transactions of the New York Academy of Sciences. – 1949. – Т. 11. – №. 5 Series II. – С. 171-175.
9. Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. М.: ФЛИНТА, 2014. – 416 с.
10. Ma'ripov J. Antroposentrizm-tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishi sifatida, -T., 62-bet.
11. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-tom. Xamsa. Saddi Iskandariy. -T.: "Fan", 2002.



Madinaxon PAYZIBAYEVA,
Namangan davlat universiteti tayanch-doktoranti
E-mail: payzibayevamadina@gmail.com

Namangan davlat Chet tillar instituti dotsenti O.Dadaboyev taqrizi asosida.

XALQ ERTAKLARIDA MOTIVLAR MASALASIGA DOIR NAZARIY QARASHLAR

Аннотация

Motivlar muammosi jahon lingvistika sohasida turli tuman nuqtai nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o'ziga xos ilmiy maktablar vujudga kelgan bo'lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va kontsepsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g'oyalari va yo'nalishlar mujassamlashdi.

Maqolada motiv tushunchasi, uning kelib chiqish genezisi o'rganilgan bo'lib, xalq ertaklarini tashkil etgan motivlar tadqiq qilingan. Adabiyotshunos olimlarning fikrlaridan namunalar keltirilib, asoslangan.

Kalit so'zlar: Motiv, ertak, motivlar genezisi, tushuncha, sinov motivi, syujet, epik asar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ВОПРОС О МОТИВАХ В НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

Аннотация

Проблема мотивов исследуется в мировой лингвистике с помощью различных районных подходов. В странах дальнего и ближнего зарубежья сложились своеобразные научные школы, в основе которых лежали идеи и направления, отличающиеся по характеру научных позиций и концепций.

В статье изучается понятие мотива, его генезис, а также изучаются мотивы, составляющие народные сказки. Приводятся примеры, основанные на мнениях литературоведов.

Ключевые слова: Мотив, сказка, генезис мотивов, концепция, тестовый мотив, сюжет, эпическое произведение.

THEORETICAL VIEWS ON THE ISSUE OF MOTIVES IN FOLK TALES

Annotation

The problem of motives is being researched in the field of World linguistics through approaches from different district perspectives. In far and near abroad, specific scientific schools have formed, on the basis of which ideas and directions are embodied, which differ in essence in scientific positions and concepts.

In the article, the concept of motif, its genesis is studied, and the motifs that make up folk tales are observed. Examples are cited and based on the opinions of literary scholars.

Key words: Motif, fairy tale, genesis of motifs, concept, "testing" motif, plot, epic work.

Kirish. Insonning mehnat faoliyati tizimining murakkablashuvi ishlab chiqarishda axloqiy, ma'naviy, nafasat, ruhiy tarbiya jabhalari hamda radio, televidenie va targ'ibot-tashviqot ta'sirini samarali olib borishi, kasbiy tayyorgarlikning ekstremal va stress holatlarning sharoitlari barqarorlashuvi, takomillashuvi, yaxshilanuvi, maqsadga muvofiqlashuvi kabi omillarning barchasi shaxs motiv doirasining o'zgarishiga bog'liq.

Motiv doirasi shaxsning ehtiyojlarida, irodaviy sifatlarida (aktlarida) va funksional imkoniyatlarida o'z aksini topadi. Motivlar tuzilishini amaliy (tatbiqiy) yo'nalishga qaratish-inson shaxsiga motivatsion, irodaviy, axloqiy, hissiy, kognitiv, regulativ ta'sir o'tkazishning omilkor shakllarining ilmiy asosi yuzaga kelishiga muhim imkon va zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Motivning tadqiqot tarixidan kelib, unga yondashsak, bu holda u insonlar (goho hayvonlar xatti-harakati) hayoti va faoliyatining ruhiy jihatdan boshqaruvchisi sifatidagi talqinidan iborat o'ziga xos turi sifatida o'rganiladi. Insonlarga aloqador motivlar tushunchasi qo'zg'atuvchilar va qo'zg'ovchilarning barcha turlari (ko'rinishlari, modalliklari, shakllari) ni o'z ichiga oladi (chunonchi, motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, intilishlar, motivlashgan ustanovkalar va boshqalar).

Motiv tushunchasi musiqa, adabiyotshunoslik, psixologiya, biologiya, san'atshunoslik kabi ko'plab fan tarmoqlarida mavjud bo'lib har bir yo'nalishda u o'zining turli

ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida motiv atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "motiv-ko'p ma'noli so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi fransuzcha-"kuy", "ohang"; lotincha- "harakatlanmoq" so'zlarini ifodalaydi[1]. Adabiyot sohasida olib qaraydigan bo'lsak, motivning kelib chiqishi xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, doston, afsona, ertaklar turli motivlarni o'z ichiga oladi: tug'ilish, farzandsizlik, evrilish, safar, sinov, tush, dushmanlik va boshqalar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Insonning qobiliyati bevosita motivlashgan mexanizmlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning muhitini belgilaydi va dinamik, ma'naviy ta'sir etish munosabatini o'zida aks ettiradi. Motiv bilan qobiliyatning munosabatlari psixik faollikning bevosita bajarish negizi hisoblangan faoliyat orqali namoyon bo'ladi. Motivlashgan tizimning tarkiblarini amaliyotda ro'yobga chiqaruvchi nafaqat faoliyatnigina aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, balki faoliyatning keyingi istiqbol rivoji yoki uning boshqa sohalar bilan qorishib ketish ehtimoli darajasini ham belgilaydi. Lekin muayyan insonning funksional imkoniyati, faoliyati va xuddi shu faoliyatning ob'ektiv tomonlarining yaqqol ro'yobga chiqishi motiv barqarorlashuvi, rivojlanish (takomillashuv) ga yo'nalganligi ham faoliyatning ob'ektiv shart-sharoitiga moslasha boradi.

Motiv tushunchasini tilshunoslik sohasida xorijiy olimlar bir necha tadqiqotlarni olib borishgan. Jumladan, O.M.Fraydenberg motivni syujetning obrazli talqini deb

izohlasa [2], V.B.Shklovskiy motivni mavzu bilan bog'liq holda ko'rib chiqish lozimligini ta'kidlaydi [3]. Yu.M.Lotman esa motiv termini o'rnida hodisa tushunchasini ishlatadi. Uning fikricha, syujetni tushunish asosida hodisa haqidagi tushuncha yotadi va hodisa syujet tuzilishidagi ajralmas kichik birliklar orqali qabul qilinadi, anglashiladi [4].

Har qanday ertakni motivlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Motiv adabiy kategoriya sifatida 20-asr boshlaridan A.N.Veselovskiy, V.Ya. Propp kabi rus folklorshunoslari ishlarida tadqiq etila boshlangan. Motiv terminining ta'rifi masalasida ko'plab qarashlar mavjud, biroq ularning hammasida ham motiv syujetni harakatga keltiruvchi unsur sifatida baholanadi. A.N.Veselovskiy motivga ta'rif berar ekan, "Motivlar birlashib, syujet halqasini yuzaga keltiradi", - deydi [5]. O'zbek olimlarining bu boradagi fikrlari ham asosan A.N.Veselovskiy qarashlari bilan uyg'un. B.V.Tomashevskiy esa motivni matndagi eng kichik, bo'linmas element deb ta'riflaydi. U motivni quyidagicha izohlaydi: "Mavzu tushunchasi yig'indi tushuncha bo'lib, u asardagi barcha materiallarni birlashtirib turadi. Asardagi har bir bo'limning o'z mavzusi bor, o'sha mavzularni bo'laklarga bo'lib o'rganib, bo'linmas qismigacha yetib boramiz. Ana shu bo'linmas qismi motiv deyiladi" [6].

Ertaklardagi motivlar masalasida V.Ya. Propp, B.N.Putilov va Ye. M. Meletinskiylar jiddiy tadqiqotlar olib borishgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, motiv voqealarni harakatga keltiruvchi unsur, biroq u aktiv va shu bilan birga passiv bo'lishi ham mumkin.

S.I.Ojegov hamda N.Yu.Shvedovalarning ta'kidlashicha, motiv bu biror-bir harakatga undovchi sabab va imkonidir. Bu ma'noda motiv tushunchasi voqea-hodisalarning borishi va rivoji sifatida qaraluvchi syujet tushunchasi bilan ustma-ust tushadi [7].

Tahlil va natijalar. O'zbek folklorshunosligida ham motiv tushunchasiga ta'riflar berilgan bo'lib, ular dunyo folklorshunoslari qarashlari bilan uyg'un.

Folklorshunos olim Jabbor Eshonqulning ta'kidlashicha, epik ijodda motivlar hamisha rang-barang bo'ladi. Shuning uchun ham syujetda har bir motiv o'ziga xos «yuk»ka ega. Motivlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi, syujetdagi barqarorligi doimo ham bir xil bo'lavermaydi. Shuning uchun ularni ikki yo'nalishda olib qarash mumkin. Birinchisi, biror-bir motivning tushib qolishi yoki o'zgarishi syujetda ham tub o'zgarish bo'lishiga olib keluvchi barqaror motivlar. Bunday motivlar asar strukturasi mustahkam o'ringa ega bo'ladi. Ikkinchisi, motivlar o'zgarishi hech qanday syujetning o'zgarishiga olib kelmaydi. Bunday motivlar boshqa bir motiv bilan almashtirish mumkin bo'lgan nobarqaror bo'lgan motivlar [8].

Epik asarlarda sinov, safar, uylanish, tug'ilish, tirilish, qaytish, farzandsizlik, evrilish, ta'qiq, homiy, tush, xatar, o'lim, sarxushlik va tutqunlik, sehrlil ko'zgu, nodon xotin obrazi, malikaning o'g'irlanishi kabi motivlar mavjud.

Bitta motiv bir nechta konnotativ ma'nolarga ham ega bo'lishi mumkin. Masalan, o'gay ota yoki ona, o'gay aka yoki singil motivlari ham ijobiy, ham salbiy ma'noda ishlatilishi mumkin.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, motivlar zamonlar va makonlar osha qo'shimcha yoki yangi ma'nolarni ham kasb etishi ham mumkin. O'zbek folklorshunos olimi G'.Jalolov motivlar tashkil etgan syujetlardagi o'xshashlik haqida yozar ekan, ularning interpretatsiya yo'li bilan boshqa xalqlar folkloriga kirib kelish nazariyasini ilgari suradi. Uning fikricha, ertaklar qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilinmaydi, balki ularning ba'zi motivlari qabul qilinib, juda katta o'zgarishlar (interpretatsiya)ga uchraydi. Xalqlar bu ertaklar motivlarini o'z hayoti, madaniyati, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlar, orzu-istaklari zaminida qayta

ishlab chiqadi, o'z talabiga javob beradigan o'rnlarni qoldirib, ba'zilarini esa batamom qayta ishlab, original ertaklar darajasiga ko'taradi[9].

Sehrlil ertaklardagi motivlarni anglash qiyin bo'lib, sabab va oqibatlarini o'rtasidagi bog'liqlik tushunarsiz bo'ladi. Masalan, ertak qahramoni hech bir sababsiz uyni tark etib, yo'lga o'tlanishi mumkinki, bu ko'pchilik xolatlarda biror-bir motiv bilan asoslanmaydi. Yoki bosh qahramon ma'lum bir ta'qiqni buzadi

V.Ya.Propp motivlarni faqat syujet tizimida tadqiq etish lozimligi haqidagi fikrni ilgari suradi[10]. B.N.Putilov ham ushbu tushunchani "syujetning asosi" ekanini ta'kidlaydi[11].

N.Hotamov hamda B.Sarimsaqovlar motivni syujet tarkibidagi xalqalardan biri, deya ta'riflashadi[12]. J.Eshonqul ham syujet asar mazmunini tashkil etuvchi voqealar tizimi ekani, motiv esa ana shu voqealarni harakatga keltiruvchi asosiy unsur ekanini ta'kidlaydi [13].

Motivlarning yana bir xususiyati uning vujudga kelishi tezligi va kuchida o'z aksini topadi. Bu xususiyat o'quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o'quv faoliyati bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi. O'qituvchining diqqat markazida o'quv motivlarining namoyon bo'lish shakllari turishi kerak. Bu asosda o'qituvchi o'quvchi faoliyatining motivlari haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi.

Motiv masalasiga nazariy aniqlik va qarashlarning bir xilligi hanuzgacha mavjud emas, bu muammoga mavjud qarama qarshi yondashuvlar bilan mazkur tushunchaning ko'p qirrali ekanligi bog'liq. Bir tomondan, motiv xulq-atvoriga yo'naltirilgan va uni qo'llab-quvvatlovchi omillar majmui singari ko'rib chiqilsa, boshqa tomondan - organizm faolligini chaqiruvchi va uning yo'nalishini aniqlovchi uyg'unish yoki motivlar singari majmua, ya'ni inson xulq atvorini uyg'otuvchi va yo'naltiruvchi harakat majmui sifatida ko'rib chiqiladi.

Muhokama. O'zbek folklorshunosi G'.Jalolov turli xalqlar ertaklaridagi mushtarak syujetlarning vujudga kelish sabablarini quyidagi ikki jihat bilan bog'lab izohlaydi:

a) birinchidan, xalqlarning qadimdan bir-biriga yaqin hududda yoki qo'shni bo'lib yashashi, tarixiy-tadrijiy rivoji, yashash tarzi va dunyoqarashidagi yaqinlik ertaklar syujetidagi o'xshashlikni keltirib chiqaradi; b) ikkinchidan, "ertaklardagi ayrim mashhur syujetlarning bir xalqdan ikkinchisiga, bir o'lkadan boshqasiga ko'chib yurishi, o'tib turish hollari ham mavjud bo'lib, bu xalqlar orasidagi...iqtisodiy, savdo, madaniy va turli-tuman o'zaro aloqalar bilan bog'liqdir" [14].

G'.Jalolovning fikricha, "o'zbek xalq ertaklari syujetining xalqimiz hayoti, dunyoqarashi, urf-odati, milliy xususiyati va yashash sharoiti bilan chambarchas bog'liqligi uning o'ziga xos xususiyatlaridandir. Shuning uchun ham bu ertaklarning syujeti xalqaro ertak syujetiga monand bo'lishi, ko'chib yuruvchi syujet deb nomlanishidan qat'i nazar, ular o'zbek xalqining uzoq asrli juda qadimiy madaniyati bilan bog'liq holda vujudga kelgan [15].

K.Imomov o'gay qiz tipidagi turkum ertaklarning o'ziga xos xususiyatlari tahliliga doir bir maqolasida «bu xil ertaklar o'gaylik mavzui, an'anaviy motivlar, mungli ko'lami va lirik ohangi bilan» boshqa tip syujetlardan farqlanib turishini qayd qilgan edi [16].

P.A.Grintser yovuzlik timsoli - mifologik maxluqlarga qarshi kurash qahramonning jasoratini namoyish etuvchi bir sifat bo'lib, bu jahon episodagi asosiy motivlardan biri ekanligini ta'kidlaydi [17].

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, motivlarning rivojlanishi, motivlashgan yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o'zgarishlar tufayli amalga oshiriladi. Motiv mexanizmi shaxs sifatlarini qayta qurish, ularni rivojlantirish jarayonining faollashuvi tarzida yuzaga

chiqadi, shu bilan birga inson kamol topish jarayoniga, faoliyat muhiti va sharoiti asta sekin yoki tez o'zgarishi – motivlarning takomillashuvi, barqarorlashuvi kabi omillarga ta'sir etadi. Insonni mehnat faoliyatida qayta tarbiyalash va muayyan fazilatlarini shakllantirish yuqoridagi mulohazalar mohiyatidan iboratdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi namunalari turli motivlar zanjiridan iboratki, bir motiv

o'zidan keyin keluvchi motivlar paydo bo'lishiga turtki bo'ladi; ularni semantik va shakily jihatdan to'ldiradi. Motiv tushunchasi 20-asrdan beri ko'plab adabiyotshunos olimlar tomonidan o'rganilib, turli nazariyalar asosida talqin qilinib kelinmoqda va zamonaviy adabiyotshunoslikda ham epik asarlardagi motivlar tadqiq qilinmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati// 5jildlik. II jild- T: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" DIN,2006.
2. Фрайденберг О.М. Поэтика сюжета и жанра. – М.: Лабиринт, 1997. – С.108
3. Шкловский В.Б. О теории прозы. – М.: Федерация, 1929. – С. 27.
4. Лотман Ю.М. Об искусстве. Санкт-Петербург: Искусство-СПБ, 2005. – С.222.
5. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л.: Высшая школа, 1940. С.494.
6. Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – М.: Аспект-Пресс, 1993. -334 с.
7. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Большой толковый словарь. – М., 1992. – С.340.
8. Эшонкул Жаббор. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талкини. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 2011. – Б.154.
9. Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi.- Toshkent: Fan,1976. 43-bet.
10. Пропп П.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л.: ЛГУ, 1946. – С.8
11. Путилов Б.Н. Мотив как сюжетобразующий элемент // Типологические исследования по фольклору. – М.: Наука, 1975. С.142-143.
12. Хотамов Н., Саримсақов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.190-191.
13. Эшонкул Жаббор. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талкини. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 2011. – Б.132.
14. Жалолов Ф. Ўзбек халқ эртақлари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976. 41-бет.
15. Жалолов Ф. Ўзбек халқ эртақлари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976. 40-бет.
16. Имомов К. Ўғай қиз типидаги туркум эртақларнинг айрим хусусиятларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. – 3-сон. – Б.33-37.
17. Гринцер П.А. Эпос древнего мира // Типология и взаимосвязи литературы древнего мира. - М.: Наука, 1971. - С.157 - 158.



UDK:811.512

Nigora RUZMATOVA,

Ph.D. student of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

E-mail: perfectgirl29@mail.ru

Based on the review of PHD A.Jabborova.

DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPLEXITY IN J. K. ROWLING'S HARRY POTTER NOVELS

Annotation

J.K. Rowling created his famous book series about Harry Potter. The first book is about the main character who is only eleven years old and this book is written as a children's book. According to the stories the main character Harry grows older, and in the last book he is seventeen years old. At this point, the book is not only for children but rather for readers with parallel age to the main character, changing the target audience from being around the age of eleven to the age of seventeen. This development is clearly described in the themes and topics of the books, with a great amount of violence and death, however, the question of this article is what affected it has on the linguistic issues of the texts.

Key words: Children's literature, Linguistic complexity, syntactic structure.

J. K. ROULINGNING GARRI POTTER ROMANLARIDA TIL MURAKKABLIGINING RIVOJLANISHI

Annotatsiya

J.K. Roulning Garri Potter haqidagi mashhur kitoblar seriyasini yaratdi. Birinchi kitob endigina o'n bir yoshli bosh qahramon haqida bo'lib, bu kitob bolalar kitobi sifatida yozilgan. Hikoyalarga ko'ra, bosh qahramon Garri ulg'aygan va oxirgi kitobda esa u o'n yetti yoshda. Ayni paytda, kitob nafaqat bolalar uchun, balki asosiy qahramonning yoshiga parallel bo'lgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, o'n bir yoshdan o'n yetti yoshgacha bo'lgan auditoriyani jalb qila oladi. Ushbu rivojlanish kitoblarning mavzulari va mavzularida juda ko'p zo'ravonlik va o'lim bilan aniq tasvirlangan, ammo bu maqolaning savoli matnlarning lingvistik masalalariga qanday ta'sir qilganligi.

Kalit so'zlar: Bolalar adabiyoti, lingvistik murakkablik, sintaktik tuzilma.

РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОВОЙ СЛОЖНОСТИ В РОМАНЫ ДЖОАН РОУЛИНГ О ГАРРИ ПОТТЕРЕ

Аннотация

Дж.К. Роулинг создала свою знаменитую серию книг о Гарри Поттере. Первая книга о главном герое, которому всего одиннадцать лет, и эта книга написана как детская. По сюжету главный герой Гарри взрослеет, и в последней книге ему исполнилось семнадцать лет. На данный момент книга предназначена не только для детей, но и для читателей того же возраста, что и главный герой, а целевая аудитория меняется с одиннадцати до семнадцати лет. Это развитие четко описано в темах и темах книг, с большим количеством насилия и смертей, однако вопрос этой статьи заключается в том, какое влияние оно оказывает на лингвистические проблемы текстов.

Ключевые слова: Детская литература, Лингвистическая сложность, синтаксический строй,

Introduction. Studies on translation typically compare translations at the word or phrase level. To allow for the comparison of complete sentences in translations, I will broaden the definition of the term "translation unit" in this essay. Since linguistic complexity is evaluated at the sentence level to gauge degrees of complexity, the idea of translation units has been expanded. The actual meaning of the source and target texts is typically a focus of traditional translation studies, however, in this work, the presentation is in focus.

As previously indicated, the word was expanded to take into account the linguistic complexity of the texts, with aspects such as grammatical structure, phrases, and clauses included in the translation unit.

Materials and methods. Children's Literature. Given that everyone has a basic knowledge of what children's literature is, defining it should not be too difficult. However, there isn't a single definition that everyone can agree on, therefore many meanings are available and have a variety of options (Thomson-Wohlgemuth 1998, 5-7). Given the wide range of possibilities for what constitutes children's literature, any claim about it must include a definition.

According to Thomson-Wohlgemuth, literature can be categorized into three categories: children's literature, adolescent literature, and adult literature. The first two

categories are referred to as children's literature in English-speaking countries, but the third category is classified as adult literature (1998, 10). The Harry Potter book series is categorized as children's literature because of this divide. The definition offered by Klingberg, "all literature intended and produced for children" (1998, 7), corresponds with the purpose of this essay among those provided by Thomson-Wohlgemuth. The concept underlines the author's intended audience, and this essay places special attention on J.K. Rowling's imagined audience.

Children's literature often makes use of young readers' weak reading skills.

Puurtinen found that Finnish children's fiction typically has and is anticipated to have a dynamic style (1994, 85) after reviewing a corpus of children's novels, book reviews, and linguistic studies. The most common use of simple syntactic structures in literature is known as the dynamic style. Unlike static style, which favors complex non-finite formations, finite verbs are in children's literature, this is typically discouraged (Puurtinen 1994, 85). Syntactically, static style Moreover, it is complicated and linked to a low level of redundancy, which activates the short-term memory of the reader and demands a greater capacity of it than dynamic style (Puurtinen 1994, 85). Children have a limited capacity

for referential information, but pronouns are frequently chosen by children to have internal reference but external reference by adults, according to Clahsen and Felser's study of reading abilities in children and adults (2006, 16).

4 Children's literature has the unique characteristic of having a dual readership, with children and adults as the two target audiences. Editors, translators, librarians, and parents are examples of adults who read and make children's literature available to children (Alvstad 2010, 24). It can be challenging to accurately translate writings that have an obvious dual address and characteristics meant for an adult reader that is too sophisticated for young readers (Alvstad 2010, 24). Adults undervalue children's comprehension, says Resch, and since they require

She rejects the division of text based on age and sex in order to be challenged and grow (Thomson-Wohlgemuth 1998, 9). A generalization regarding children's book language is that it must have increasing complexity while remaining understandable and practical for younger children. Older words have a higher register, and sentences should have the same conditions vocabulary, and sentence patterns (Thomson-Wohlgemuth 1998, 11). Adults, however, should keep in mind that children's competency is higher than their performance, which understand language that is more complicated than they are able to produce (Thomson-1998, Wohlgemuth, 11). Children's books are typically translated with language and cultural adaptations. target language's literary system, which fits

However, as Resch noted, adults frequently underestimate children's comprehension, so it might be helpful to distinguish between foreign linguistics and foreign content. Due to their frequent exposure to foreign content and the fact that they are largely ignorant about the rest of the world, children may be highly skilled at doing so. Children's limits must be taken into account in a text, and since the original text's author has done so, Klingberg asserts that translators merely need to adopt this text's organization and refrain from making any additional alterations in their own texts (Puurtinen 1994, 84). In addition, Puurtinen notes that although Klingberg employs a child-focused strategy, this is in stark contrast to the acceptability theory of translation and matches the word more accurately.

Results and Discussion. Linguistic complexity. Linguistic complexity can be described in a variety of ways and has a wide range of characteristics; it should be assessed using linguistic theories (To 2015, 25). For this essay, classical grammar, transformational-generative grammar, and (systemic) functional grammar (SFG) are the linguistic theories that are pertinent. These ideas span the centuries, beginning with the classical grammar of the ancient Greek philosophers Plato and Aristotle, moving through Chomsky's transformational generative grammar of the 1950s and 1960s, and ending with Halliday's functional grammar, which was first proposed in 1985 (To 2015, 25–37). Assuming that the English language had the best grammar, traditional grammar detailed the Greek and Latin languages and used these as a standard against which to judge the English language (To 2015, 25). Due to this, classical grammar became a prescriptive system that determined what was appropriate and inappropriate. Linguistic complexity is based on conventional grammar is an issue of "markedness", where grammar structures are deemed as increasingly difficult on a scale from

unmarked to marked on several bases (To 2015,27) The following are the unmarked features of a clause: main, declarative, affirmative and active clause. The marked features are: subordination, interrogative, imperative, negative, and passive clauses (To 2015,27).

Lower degree of frequency, greater structural complexity, and increased mental processing in contrast to the unmarked ones were the criteria utilized to classify these traits and their subcategories as more complicated (To 2015, 27). The non-finite clauses are classified as subcategories of subordination into finite and non-finite clauses, and similar distinctions are made for additional subcategories (To 2015, 28–29).

Noam Chomsky's transformational-generative grammar, which can be classified into three categories (finite state grammar, phrase structure grammar, and deep structure grammar), emphasizes syntactic structure rather than semantics (To 2015, 30-35). While syntactic structures can produce larger, equally well-formed structures, finite-state grammar takes a mathematical approach to grammar.

Linguistic complexity is defined to rise with the length of sentences (To 2015, 31). Language complexity is calculated from tree structures, and phrase structure grammar and destructure grammar follow with the increasingly complex interpretations of syntactic structure (To 2015, 32–36).

Halliday also uses the six categories of the theory of functional grammar: density, nominalization, grammatical intricacy, thematic structure, grammatical metaphor, and text periodicity (To 2015,42).

Linguistic complexity is also related to lexical density because it is utilized to clarify how densely packed the text is with data on a percentage scale. According to Johansson (2008), 65, lexical density is "the ratio of content words (nouns, verbs, adjectives, and frequently also adverbs) to the total number of words"; the remaining words in the text are function words. Lexical items, which Halliday defined as words that belong to an open collection that can grow as new words are generated, are another name for content words (Johansson 2008, 66). Adverbs can be included in the set when they are formed by adjectives because they are in an open set, and this definition of lexical objects is adopted in this paper.

Conclusion. From the first book to the last book of the Harry Potter series, linguistic complexity was developed, in light of this sample. Longer sentences, more finite verb phrases, more referential content that taxed the reader's short-term memory, and a higher lexical density suggested a more complicated grammatical structure. Even though some aspects changed, it's possible that this was due to linguistic barriers. It is more likely that the translator chose to stress this aspect of the translation process because translation often concentrates on the meaning of the source material. The quantity of data collection, the techniques for analyzing linguistic complexity, and the amount of time are all constraints on this small-scale research of linguistic complexity. Any results are therefore only indicative of a potential larger picture. In a wider corpus analysis, future research might examine and compare the language of the entire book series. Instead of conducting a complete analysis of a smaller sample of data, I would advise concentrating on a few aspects of linguistic complexity and making comparisons between the novels.

REFERENCES

1. Alvstad, Cecilia, 2010, "Children's literature and translation". In Handbook of Translation Studies, edited by Luc van and Yves Gambier, 22-27. John Benjamin's Publishing Company.
2. Bonifacio, Rene Marquez "Stylistic analysis of J.K. Rowling's Harry Potter" 506-522, Central Mindanao University, Philippines, Accessed May 13, 2019.

3. Brondsted, Katrine and Cay Dollerup, 2004. "The Names in Harry Potter", Perspectives: Studies in Translatology, 12 (1): 2-41. University of Essex.
4. Clahsen, Harald and Claudia Felser. 2006. "Grammatical processing in language learners". Applied Psycholinguistics 27 (1): 2-41. University of Essex.
5. Johansson, Victoria. 2008. "Lexical diversity and Lexical density in speech and writing: a development perspective".
6. Puurtinen, Tiina. 1994. "Dynamic style as a parameter of acceptability in translated children's books". In Translation studies: An Interdiscipline



UDK: 81-114.2

Dilobar SULAYMANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktranti,
E-mail: dilobar7796@gmail.com

JDPU, f.f.n., dotsent S. Soyipov taqrizi asosida

SODDA GAPNING LISONIY STRUKTUR TAHLILIDA AKTANTLAR IYERARXIYASI

Аннотация

Mazkur maqolada sodda gaplarda markaz qurshovlilik munosabatining voqelanishi, gapning lisoniy-sintaktik qurilishida so'zlar valentligini tahlil qilish orqali aktantlarning gap qurilish sathidagi vaziyati aniqlashtiriladi. Tilshunoslikdagi pog'onaviylik tamoyiliga asosan dastlabki bosqichda qurshov vazifasini bajargan bo'lak, ya'ni markaziy bo'lak sanalgan kesimning morfologik ko'rsatkichi [Pm] bilan valentlik hosil qilgan gap kengaytiruvchisi yoki kesim leksemasi [W]ga bevosita tobelangan so'z kengaytiruvchisining keyingi bosqichda mos ravishda o'z so'z kengaytiruvchilari bilan kengayib markaz mavqeyida kelishi shajara daraxti (UD)da o'zbek nutqidagi gaplar misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Substansiallik, valentlik, aktant, gap kengaytiruvchisi, so'z kengaytiruvchisi, modal gap kengaytiruvchisi.

ИЕРАРХИЯ АКТАНТОВ В ЛИНГВОСТРУКТУРНОМ АНАЛИЗЕ ПРОСТОГО ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается реализация отношений центра и окружения в простых предложениях, а также уточняется положение актантов на уровне построения предложения посредством анализа валентности слов в лингвистико-синтаксической структуре предложения. Согласно принципу ступенчатости в лингвистике, на начальном этапе морфологический показатель компонента, выполняющего функцию окружения, то есть сказуемого, являющегося центральным элементом [Pm], образует валентность с распространителем предложения или распространителем слова, непосредственно подчиненным лексеме сказуемого [W]. На следующем этапе эти элементы расширяются соответствующими распространителями слова и приобретают центральное положение. Данный процесс анализируется на примере предложений узбекской речи в виде древовидной структуры.

Ключевые слова: Субстанциональность, валентность, актант, распространитель предложения, распространитель слова, модальный распространитель предложения.

THE HIERARCHY OF ACTANTS IN THE LINGUISTIC STRUCTURAL ANALYSIS OF A SIMPLE SENTENCE

Annotation

This article clarifies the position of actants at the sentence construction level by analyzing the realization of center-periphery relationships in simple sentences and examining the valence of words in the linguistic-syntactic structure of the sentence. According to the principle of hierarchy in linguistics, the analysis focuses on sentences in Uzbek speech within the Universal Dependencies (UD) tree structure. Initially, the part that functions as a center is the morphological indicator of the predicate [Pm], which is considered the central element. This forms valency with either the sentence expander or the word expander directly subordinate to the predicate lexeme [W]. In the subsequent stage, these elements expand with their respective word expanders and occupy the central position in the hierarchy tree.

Key words: Substantiality, valency, actant, sentence expander, word expander, modal expander of a sentence.

Kirish. Hozirgi davr tilshunosligining salmoqli yutuqlaridan biri sifatida til va nutq hodisalarini idrok etish, farqlash borasidagi tadqiqotlarni alohida ta'kidlash lozim. Zamonaviy tilshunoslikda sistemaviy tadqiqotlarga jiddiy e'tibor berilishining samarasi natijasida lisoniy faktlarga avtonom holda yondashilmay, balki har bir lisoniy hodisaning tub mohiyati ochilishiga e'tibor berilishi, lisoniy hodisalar mazmun-mohiyatining yoritilishi asosiy o'rin egallamoqda. Izlanishlarning biri sifatida ushbu tadqiqotda tilshunoslikning formal-funksional yo'nalishidagi dolzarb masalalardan biri sanalgan markaz qurshovlilik munosabatining sintaktik sathda voqelanishi tadqiq qilinadi.

Tilshunoslikda valentlik nazariyasi tadqiqi va tavsifi.

So'zning so'zga birikish qonuniyatlari tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlar o'tgan asrning 40-yillaridan sovet lingvisti S. D. Katsnelson fanga valentlik tushunchani olib kirishi bilan diqqat markazidagi masalaga aylandi [1]. Substansial yondashuv talqiniga ko'ra ushbu tushuncha so'zning ichki semantik- sintaktik potentsiali sanaladi. Nutqiy

jarayondagi har bir hosila: tushuncha ifodalovchi yasalmalardan tortib fikrni shakllantiruvchi sintaktik birliklarning yuzaga kelish asosi aynan ushbu qonuniyat – valentlik hodisasi bilan bog'liqdir.

So'zlar valentligi qonuniyatining asosini substansiallik tashkil etadi. Ushbu tushuncha mohiyatiga ko'ra so'zlar o'rtasidagi mantiqiy munosabat dastlab til birliklarining semantik imkoniyati asosida yuzaga keladi va ushbu mantiqiy aloqaning natijasi sifatida sintaktik munosabat hosilasi sintaktik konstruksiyalar paydo bo'ladi. Demak, ichki potentsiya – valentlik sintaktik sathda reallashadi. Til va nutq birligi bo'lgan so'zlarning o'zaro semantik-sintaktik aloqalari aslida ularning o'zida, substansiyasida (mohiyatida) valentlik imkoni shaklida jamlangan [2] bo'lib, ushbu nazariyaga asosan shartli ravishda til "birligi" sanaladigan valentlik va nutq "birligi" bo'lib keladigan sintaktik aloqa UMIS va AHVO (umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik, sabab-oqibat)ni yuzaga chiqarish uchun zidlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'zlararo mantiqiy munosabat dastlab til birliklarining semantik imkoniyati asosida yuzaga keladi va ushbu aloqaning natijasi o'laroq sintaktik munosabat hosilasi sintaktik konstruksiyalar quriladi. Til birliklari ega bo'lgan semantik potentsiya nutqiy jarayonda u qamrab olgan ma'nolarni bilan yuritiladi [4]. Aktantlar an'anaviy imkoniyatini beradi [3]. Bu esa o'z navbatida til birligi ifodalagan ma'nolar to'ldirish zarurati bo'lgan o'rinlarni, mazkur bo'sh o'rinlar esa semantik jihatdan mos aktantlarga ehtiyojni paydo qiladi. Mazkur tobe-hokimlik munosabatida nisbiy markaz vazifasini bajaruvchi hokim so'zga bog'lanib kelayotgan nomustaqil bo'lak bo'sh o'rinni to'ldiruvchi, aktantlarni atamali bilan yuritiladi [4]. Aktantlar an'anaviy sintaktik tahlildagi kabi ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, (kirish bo'lak) deb nomlansa-da, biroq ushbu konstruktiv bo'lak voqelantiruvchilari gapning lisoniy struktur kengaytiruvchilari nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda butkul farqli holat yuzaga keladi. Kengayuvchi so'z mutlaq markaz (kesim) vazifasida kelganda, kesimlik kategoriyasiga aloqador aktant gap kengaytiruvchisi vazifasida keladi va bevosita gapning lisoniy strukturasi tarkibiy qismiga aylanadi. Bunday munosabatning samarali shakllaridan biri fe'l valentligi sanaladi. Fe'l so'z turkumi V.V. Vinogradov ta'kidlaganidek, "...boshqa barcha so'z turkumi kategoriyalariga nisbatan eng konstruktiv turkumdur. Fe'li konstruksiyalarning xarakterli xususiyati shundan iboratki, ular nominativ (otli) birikmalar va gaplarga faol ta'sir qilish kuchiga egadir" [5].

Verbosentrik nazariya vakillarining (L. Tener va izdoshlari) keltirishicha, gap tuzilishining negizi fe'l sanaladi. Fe'l turkumiga mansub birliklarning gapning yaxlit konstruksiyasini belgilashi uni predikat vazifasida kela oluvchi boshqa birlik (turkum)lardan farqlovchi asosiy mezon bo'lib, "Semantik sathda fe'l predikat sifatida ham lug'aviy ma'nodan tashkil topgan birlik, shuningdek, o'zida ehtimoliy gap maketini saqlaydigan fikriy mundarija sifatida mavjud bo'ladi" [6].

Sodda gaplarda gap va so'z kengaytiruvchilari.

Gapda fikriy mundarijani voqelantiruvchi asosiy bo'laklar grammatik asoslar sanalsa, ya'ni muayyan fikr haqidagi dastlabki tushunchalar majmuyining nutqiy voqelikdagi in'ikosi konstant bo'laklar orqali yuzaga kelsa, nutqiy gapning qanday tarkibiy qismlardan tashkil topishini fikriy markaz, hukmni ifodalovchi konstant bo'lak (kesim)ni shakllantiruvchi atov birlik va kesimlik kategoriyasining valentligi belgilaydi. Muayyan aktantning mutlaq markaz (kesim)ning [Pm] shakli [NMTP] ni yoki nisbiy markaz (kesim) leksemasi, ega, fakultativ bo'lak)ning lug'aviy valentligini to'ldirib kelishiga ko'ra 2 turi farqlanadi: gap kengaytiruvchisi va so'z kengaytiruvchisi.


Gap tarkibidagi mustaqil so'zlik mavqeyini saqlagan holda kengayish qobiliyatiga ega barcha so'zlarning ana shu qobiliyatini yuzaga chiqishini ta'minlovchi leksik birlik so'z kengaytiruvchilari deb ataladi [7]. So'z kengaytiruvchisi ma'lum bir so'zga bevosita, gapning markazidagi kesimlikni shakllantiruvchi grammatik vositalarga bilvosita

bog'lanadigan bo'lak, muayyan so'zning ma'noviy xususiyatini ochib berishga, kengaytirishga xizmat qiladigan, o'ziga nisbatan hokim bo'lgan so'z bilan semantik valentlik hosil qiladigan tarkibiy qismdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Darslik va qo'llanmalarda so'z kengaytiruvchisiga berilgan ta'riflarda "gapda ishtirok etayotgan ma'lum bir so'zning ma'noviy valentligini to'ldiruvchi so'z" ekanligi ta'kidlanadi [7]. Ushbu ta'rifga qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, bizningcha, aynan kesim vazifasida kelayotgan so'zning lug'aviy ma'no anglatuvchi [W - atov birlik] qismi bilan bevosita yoki bilvosita valentlik hosil qiladigan har qanday bo'lak (leksik birlik)lar so'z kengaytiruvchisi sanaladi. Gapda kesimlik ko'rsatkichidan anglashilgan ma'noni muayyanlashtirgani bois subyekt va temporalis butun gapga aloqador konstruktiv bo'lak sifatida gap kengaytiruvchisi vazifasida kelsa, [Pm] qismiga bog'lana olmaydigan, kesimlik leksemasiga to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita bog'lanuvchi nomustaqil, ichki bo'laklar so'z kengaytiruvchisi maqomida kelishini aytish mumkin. Demak, fikriy mundarijani ifodalashda, gap qurilishida zaruriy tarkibiy qism sanalmaydigan va muayyan fikrni to'ldirib, aniqlab, izohlab keluvchi, harakat-holat (voqea-hodisa)ning o'rni, payti, son-sanog'i, tartibi, miqdori, darajasi, sharti, sababi, maqsadi, qurol-vositasi, to'siqsizlik holati va h.k. ma'nolarni ifodalovchi aktantlar so'z kengaytiruvchilari vazifasida keladi.

Tahlil va natijalar. Ayrim manbalarda payt holi (temporalis- lotincha, "vaqt" ma'nosini anglatadi [8]) gap kengaytiruvchisi sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Hozirgi o'zbek adabiy tili darsligida sodda gapning formal-funksional talqinida temporalis kesimlik kategoriyasi shaklining zamon qismiga bog'lab tahlil qilinadi va gap kengaytiruvchisi sifatida keltiriladi [7]. Vaholanki, temporalis gap tarkibida nafaqat kesimlik kategoriyasi [Pm] tarkibidagi [T] zamon ko'rsatkichi, balki gap markazini tashkil etuvchi so'zning leksik qismi [W] bilan ham valentlik hosil qiladi. Masalan, Siz bugun va ertaga azim Samarqandda qolasizmi? gapida uyushiq temporalislar (bugun va ertaga) kesimning [W] qismiga ham, grammatik kategoriyasi [Pm]ning [T] zamon ko'rsatkichiga ham aloqador. Payt hollarining kelasi zamon ko'rsatkichi bilan nisbiy moslashuvi quyidagicha: ertaga temporalisi va -a kelasi zamon qo'shimchasi nutq so'zlanib turgan vaqtdan keyingi hodisaga ishora qilsa, bugun so'zi va zamon shakli nutq yuzaga kelayotgan vaqtni bildirishi nuqtayi nazaridan bog'lanadi. (-a zamon ko'rsatkichi bugun temporalisi bilan moslashganda, zamonlar uslubiyati yuzaga keladi, ya'ni kelasi zamon shakli hozirgi zamon ma'nosiga ko'chadi). Bundan aytish mumkinki, temporalisning kesimlik shakli bilan hosil qilgan valentligida subyekt singari gap kengaytiruvchisi sifatida qaraladi hamda kesimning lug'aviy shakliga kiritilgan o'zgartirishlar ushbu valentlik munosabatiga ta'sir qilmaydi, ya'ni fikriy mundarijada lug'aviy ma'no ifodalovchi qism [W]da o'zgarishga uchrasa-da, kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichi [Pm]ning zamon ko'rsatkichi [T]da bunday holat voqelanmaydi:

1-rasm.



Temporalisning so'z kengaytiruvchisi mavqeyida ham kela olishini quyidagicha izohlash mumkin: payt holi o'zi bog'langan hokim so'z bilan birgalikda so'z birikmasiga aylantirilib, kesim harakat nomi shaklida [NMTP] ko'rsatkichsiz shakllantirilsa ham, ushbu valentlik

munosabati (bugun qolmoq, ertaga qolish) saqlanadi. Gap va so'z kengaytiruvchilari valentligi hamda shajara daraxti (UD – Universal Dependency [9])da o'rinishuvini quyidagicha ifodalash mumkin:


2-rasm

[W _{Pm}]	S (Subyekt)	Adv ¹ (temporalis)	Adv ² (temporalis)	Attr	Adv ³ (lokalis)	W	N	M	T	m
	Siz	bugun	ertaga	azim	Samarqandda	qol	.	-a, -siz	-a	-siz

1. So'z kengaytiruvchilari valentligi [10]

$\overbrace{\text{bugun qolmoq}}$
 $\overbrace{\text{ertaga qolmoq}}$
 $\overbrace{\text{azim Samarqand}}$
 $\overbrace{\text{Samarqandda qolmoq}}$


3-rasm.



2. Gap kengaytiruvchilari valentligi

$\overbrace{\text{Siz qol+a+siz+mi?}}$
 $\overbrace{\text{Bugun qol+a+siz+mi?}}$
 $\overbrace{\text{Ertaga qol+a+siz+mi?}}$

4-rasm.



Modal gap kengaytiruvchilari

Ma'lumki, muayyan gapni bo'laklar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan, biroq mazmunan to'ldiradigan birliklar – kiritmalar bilan kengaytirish hodisasi gapga modal

ma'nolar (gumon, achinish, tasdiq, ishonch, istak va boshqa ma'nolar)ni qo'shish yoki kuchaytirish imkonini beradi. Masalan,

5-rasm.

Modallik ma'nosini o'zgartirish	Modallik ma'nosini kuchaytirish
Taxmin, gumon ma'nosi	
Namuna №1	Namuna №2
Natija, ehtimol, bugun e'lon qilinadi.	Natija, ehtimol, bugun e'lon qilinadi.


Natija, ehtimol, bugun e'lon qilinadi gapi (namuna №1) tarkibidagi kirish bo'lak tushirilsa, [Pm] -a,-di ko'rsatkichlari orqali ifodalanadigan aniqlik, qat'iylik ma'nosi gapda muayyanlashadi: Natija bugun e'lon qilinadi. Biroq gap tarkibiga kiritilgan kirish so'z taxmin gumon ma'nosini qo'shish uchun xizmat qiladi, ya'ni natijaning e'lon qilinishi haqidagi ehtimoliy fikrini yuzaga keltiradi. Demak, bunday holatda kirish bo'lak [Pm]da dastlab mujassamlashgan aniqlik, qat'iyat modallik ma'nosini taxmin, chama ma'nosiga o'zgartirish vazifasini bajaradi.

2-namunada keltirilgan gapda farqli hodisa kuzatiladi: Kirish so'zsiz shakllangan gapning o'zidayoq (Pm, –ar

morfologik shakli orqali) taxmin, gumon, istak ma'nosi voqelanadi: Natija bugun e'lon qilinadi.

Gap tarkibiga kiritilgan modal bo'lak esa ushbu ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Natija, ehtimol, bugun e'lon qilinadi. Demak, kirish bo'lak [Pm]da ifodalangan ayni ma'noni muayyanlashtirsa, kuchaytirishga, bizningcha, kirish so'z va kesimlik shakli ko'rsatkichi o'rtasida ma'noviy valentlik yuzaga keladi va ushbu valentlik munosabati aynan kesimlik kategoriyasi bilan bog'liq ekanligi uchun ham kirish bo'lak modal gap kengaytiruvchisi mavqeyida keladi. Ushbu gapdagi aktantlarning barchasi gap kengaytiruvchisi vazifasida kelganligi bois bo'laklar valentligi (UD) hodisasi bo'yicha shajara daraxtida quyidagicha ifodalanadi:

6-rasm.



Xulosa. Ushbu maqolada tilshunoslikning formal-funksional yo'nalishidagi dolzarb masalalardan biri – markaz qurshovlilik munosabatining sintaktik sathda, xususan, soddalarda namoyon bo'lishi ochib berildi. O'zbek nutqida gapning lisoniy struktur tahlilida gap bo'laklari ierarxiyasi

tahlilga tortildi, sodda gaplarning lisoniy sintaktik qurilishida so'zlar valentligini tahlil qilish orqali aktantlarning joylashuvi, ya'ni gap va so'z kengaytiruvchisining maqomi aniqlashtirildi.

ADABIYOTLAR:

1. Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности/Вопросы языкознания. - Москва, 1987. - №3. - С. 20-32.
2. Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. – T.: Fan, 1989. – B. 13
3. Виноградов В.В. Русский язык. (Грамматическое учение о слове), - М.: 1972. – С. 337.
4. Ne'matov H.G., Sayfullayeva R. Zamonaviy o'zbek tili. II jild. Sintaksis. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. – B. 190
5. Виноградов В.В. Русский язык. (Грамматическое учение о слове), - М.: 1972. – С. 337.
6. Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. – Л. 1972. – С.88.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Abuzalova M., Boqiyeva G., Yunusova Z. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 335, 336.
8. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/>
9. Marie-Catherine de Marneffe, Christopher D. Manning, Joakim Nivre, Daniel Zeman. Universal Dependencies. Computational Linguistics: Volume 47, Issue 2, 2021. <https://direct.mit.edu/coli/article/47/2/255/98516/Universal-Dependencies>
10. Qurbonova M. M. O'zbek tilshunosligida formal-funksional yo'nalish va sodda gap qurilishining talqini. Filologiya fanlari doktori (DSc)... diss. – Toshkent, 2001. – B. 120.



UDK:1072

Nargiza SULEYMANOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasida dotsenti
E-mail: nargizasulimanova@gmail.com

SamDCHTI dotsenti, PhD L.Abdullayeva taqrizi asosida

PREDIKATIVLIK VA PROPOZITIV NOMINATSIYA HODISALARI MUNOSABATI

Аннотация

Mazkur makolada predikativlik hodisasi mustaqil gaplarning (fe‘lli so‘z birikmalarning ham) voqelikka munosabatini bildiradi va bu jarayonda propozitsiyaning abstrakt ma‘noli ekanligi bilan hisoblashmaydi. Boshqacha aytganda, gap abstrakt ma‘noli bo‘lmaydi, unda biz mazmuniy jihatdan nisbiy tugallanganlikni ko‘ramiz.

Kalit so‘zlar: predikativlik, sintaktik struktura, modallik, propozitsiya, tilshunoslik.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ЯВЛЕНИЙ ПРЕДИКАТИВНОСТИ И ПРОПОЗИТИВНОЙ НОМИНАЦИИ

Аннотация

В данной статье явление предикативности указывает на отношение самостоятельных предложений (также глагольных словосочетаний) к действительности, при этом не учитывается, что предложение имеет отвлеченное значение. Иными словами, предложение не имеет абстрактного значения, в котором мы видим относительную завершенность с точки зрения содержания.

Ключевые слова: предикативность, синтаксическая структура, модальность, пропозиция, языкознание.

THE RELATIONSHIP BETWEEN THE PHENOMENA OF PREDICATIVITY AND PROPOSITIONAL NOMINATION

Annotation

In this article, the phenomenon of predicativeness indicates the relationship of independent clauses (also verb phrases) to reality, and in this process it is not considered that the proposition has an abstract meaning. In other words, the sentence does not have an abstract meaning, in which we see a relative completeness in terms of content.

Key words: predicativity, syntactic structure, modality, proposition, linguistics.

Kirish. An‘anaviy grammatik tadqiqotlarda gap va uning sintaktik strukturasi haqida fikr bildirilganda, albatta predikativlik kategoriyasi xususida ma‘lumot berilishini ko‘ramiz. Biroq shunday bo‘lishiga qaramay, mazkur kategoriya doirasida bildirilgan va bildirilayotgan tilshunoslar fikrlari o‘rtasida mushtaraklik kuzatilmaydi. Bu haqda mulohaza yuritishdan oldin, mazkur kategoriyaga lingvistik terminlar izohli lug‘atlarida bag‘ishlangan lug‘at maqolalariga to‘xtab o‘tishni lozim topdik.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

O.S.Axmanovning “Lingvistik terminlar izohli lug‘ati”da predikativlik hodisasi quyidagicha izohlanadi: “Предикативность (сказуемость) англ.predicativity. Выражение отношения содержания высказывания к действительности как основа предложения” [1].

A.Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da ham shunga o‘xshash fikr bayon qilinadi: “Gap mundarijasining real voqelikka munosabatining til vositalari bilan ifodalanishi. Zamon, shaxs-son va modallik kategoriyalari predikativlikni ifodalovchi grammatik vositalar bo‘lib, xabar intonatsiyasi bilan birga gapning umumiy xarakterli belgilari hisoblanadi” [2].

Ko‘rinadiki, eslatib o‘tilgan lug‘atlarning har ikkida ham predikativlik gap mundarijasining (unda ifodalanayotgan ma‘noning) real voqelikka munosabatini ifodalovchi grammatik kategoriya sifatida izohlanadi. Hozirgacha mavjud tadqiqot ishlarining aksariyatida ham predikativlik kategoriyasi grammatik zamon, shaxs-son va modallik tushunchalari qurshovida tavsiflanadi. Fikr dalilini, masalan, V.V.Vinogradov ta‘limotida kuzatishimiz mumkin. Olimning qayd etishiga ko‘ra, predikativlik tushunchasi faqat gap bilan

bog‘lanadi va u gapda ifodalanayotgan ma‘noning gap bilan bog‘lanadi va u gapda ifodalanayotgan ma‘noning voqelikka munosabatini bildiradi. Bunda modallik, zamon, shaxs-son kategoriyalari ustuvor ahamiyat kasb etadi [3]. V.V.Vinogradov zamon, modallik, shaxs-son kategoriyalari ichida modallik muhim mavqega ega ekanligini, zotan, u gapning doimiy hamrohi sifatida faollik ko‘rsatishini alohida ta‘kidlaydi [2].

Ravshanki, propozitsiya tushunchasi mantiqiy tadqiqotlar doirasida vujudga kelgan bo‘lib, u bugungi kunda tilshunoslikda ham qo‘llanilmoqda.

Ammo bu orqali uni sof lingvistik tushunchaga aylangan deb bo‘lmaydi. Uning vositasida gapning dastlabki mantiqiy shakllanishi vujudga keladi. Fikr dalilini hozirgi mantiqiy tadqiqotlarda predikat terminining propozitsion funktsiya termini bilan sinonimik ma‘noda qo‘llanishida ko‘ra olamiz.

Natijalar. Predikativlik aslida mantiqiy tushunchadir. U predikat so‘zi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, keyinchalik undan tilshunoslikda ham foydalana boshlandi. Ammo tilshunoslarning ba‘zilari, yuqorida eslatib o‘tilganidek, uni mantiqiy hodisa deb, ayrimlari esa mantiqiy-grammatik hodisa deb tushunmoqdalar. Taniqli tilshunos T.P.Lomtevning fikriga ko‘ra, predikativlik mantiqiy tushunchadir. Gap orqali beriladigan xabarning voqelikka munosabati ham mantiqiy nuqtai nazaridan o‘rganilmog‘i lozim. Bu haqda so‘z yuritganda T.P.Lomtev quyidagilarni ta‘kidlaydi: “Predikativlik grammatik tushunchani taqozo etmaydi.

Predikativlik voqelanishining belgisi shaxs yoki zamon tushunchalari emas, balki berilayotgan xabarning rost yoki yolg‘onligidir. Bu esa predikativlik gapning grammatik

xususiyati emas, balki mantiqiy xususiyati ekanligini dalillaydi.”

T.P.Lomtev predikativlik hodisasi bilan nominativlikni bir – biriga qarama – qarshi hadisalar sifatida talqin etadi. Bunda olim xabar ifodasi talqinini Стол стоит gapi misolida ko'rsatib beradi. Ayni paytda, albatta, predikativlik orqali voqelikka munosabat bildirilmoqda. Demak, predikativlik – bu atov ma'nosini anglatmaydigan, xabar ifodasini beradigan hodisadir.

G.N.Manaenoning tadqiqot ishlarida ham T.P.Lomtevnin fikriga yaqin mulohaza kuzatiladi. G.N.Manaenko propozitsiyani nominasiyaning natijasi sifatida tavsiflaydi va predikatsiya tushunchasi propozitsiya shakllanishida qatnashmasligini, bu ikki hodisa bir-biriga zid ekanligini alohida uqtiradi. Olimning fikriga ko'ra, “Lingvistik ensiklopedik lug'at”da (–M.:1990) predikatsiya propozitsiyani shakllantiruvchi vosita ekanligi haqida berilgan ma'lumot ilmiy asosli emas .

“Lingvistik ensiklopedik lug'at”da berilgan maqola Yu.S.Stepanov tomonidan yozilgan bo'lib, unda predikatsiya hodisasi ikki bosqichga bo'linishi ta'kidlanadi. Birinchi bosqichni muallif noto'liq (tugallanmagan) predikatsiya shakllanishi deb ataydi va bunda predikatsiya propozitsiyani shakllantiruvchi vosita sifatida tavsiflanadi. Ikkinchi bosqichda predikatsiya hodisasining to'liq shakllanishi qayd etiladi. Ayni paytda, ya'ni ikkinchi bosqichda tasdiq, inkor (rostlik, yolg'onlik) kabi propozitiv ma'nolar hosil bo'lishi aytiladi .

G.N.Manaenko gapning propozitiv strukturasi shakllanuvchi tasdiq, inkor ma'nolari va ularning voqelikka munosabatini o'rganish predikatsiyaning emas, balki referensiyaning vazifasi ekanligini eslatib o'tadi. Bundan tashqari, predikatsiya propozitsiyani shakllantiruvchi akt emasligini ham alohida ta'kidlaydi. Lug'atda ko'rsatilgan ikkinchi bosqich predikatsiya hodisasining emas, balki predikativlik hodisasining vujudga kelishi bilan bog'liqdir .

Bugungi kunda tilshunoslikda predikativlik hodisasini propozitsiya tushunchasi bilan bog'lab talqin etish holatlari ham kuzatilmogda.

V.B.Kasevich predikativlik hodisasi tadqiqiga semantik sintaksis nuqtai nazaridan yondashadi va predikativlik predikatning o'z argumenti bilan qiyoslanishidan boshqa narsa emasligini va qaerda propozitsiya bo'lsa, u yerda predikativlik hodisasi ham shakllanishini ta'kidlaydi . Ammo shuni ham aytish kerakki, propozitsiya tushunchasi talqini bobida ham tilshunoslar fikrlari bir xil emas. Masalan, N.D.Arutyunova uni gapning modallik, kommunikativ hamda shu gapning hosila qurilmalari uchun umumiy bo'lgan semantik invariant deb tushunsa, S.D.Kasnelson propozitsiyani relyasion predikat tushunchasi bilan bog'laydi va uni ichki nutq mahsuli sifatida talqin etadi . Darhaqiqat, propozitsiyaning ifodalanishida relyasion predikat muhim rol o'ynaydi, zero, propozitsiya ana shu relyasion predikatning bo'sh o'rinlarini to'ldirish orqali voqelanadi. H.Usmonovning qayd etishiga ko'ra, propozitsiya muayyan sintaktik qurilma vositasida ifodalangan ob'ektiv voqelikni aks ettiradi. Ammo, bizningcha, bu o'rinda propozitsiya tushunchasining tavsifi mubolag'ali berilgan ko'rinadi. Chunki ob'ektiv voqelik gap orkali ifodalanadi, propozitsiya esa gap shakllanishining mazmuniy sinchini tashkil etadi, xolos. Buni N.A.Arutyunova keltirgan quyidagi misollar orqali izohlash maqsadga muvofiqdir: «Men ta'kidlaymanki (shubha qilamanki, o'ylaymanki, bilamanki, inkor etamanki), shaharda tartibsizliklar boshlangan. «Men so'rayapman: shaharda tartibsizliklar boshlanmadimi? Va hokazo».

N.D.Arutyunovning to'g'ri qayd etishiga ko'ra, bu gaplarning barchasi asosida «shaharda tartibsizliklar boshlanishi» tarzida izohlanishi lozim bo'lgan semantik invariant yotganligini ko'ramiz. Aynan ana shu narsa

propozitsiya tushunchasini taqozo etadi va u bir paytning o'zida gapning nominativ aspektini ham belgilaydi .

Ko'rinadiki, propozitsiya berilayotgan xabar ifodasining markazini tashkil etuvchi insonning kognitiv salohiyati bilan uzviy bog'lanadi. Bu o'rinda J.Andersenning quyidagi mulohazasini keltirish o'rindir: “...Propozitsiya bilish hodisasining eng kichik elementidir, yohud boshqacha aytganda, u chin yoki yolg'onligini tahlil etish mumkin bo'lgan eng kichik ta'kididir” . Predikativlik hodisasi ham, avval qisman eslatib o'tilgani kabi, mantiqiy tushunchadir. Tilshunoslar unga grammatik maqom berish maqsadida o'z tadqiqotlarida, sun'iy ravishda bo'lsa-da, zamon, shaxs-son tushunchalarni iste'molga kiritmoqdalar. Modallik esa aslida mantiqiy tushunchadir. Biroq shuni ham aytish kerakki, ba'zi tilshunoslar predikativlik hodisasi grammatik tushuncha emasligini, u sof mantiqiy xarakterga ega ekanligini ham ro'yirost aytmoqdalar. masalan, prof. T.P.Lomtev tadqiqotlarida buni kuzata olamiz. Bu haqda olim quyidagi fikridadir: “Предикативность есть общее глобальное логическое свойство всякого высказывания, выраженного любым предложением” [4]

T.P.Lomtev ham fe'lnin zamon va shaxs-son kategoriyalari predikativlik ifodalovchi vositalar emasligini qayd etadi, zotan, predikativlik grammatik hodisa bo'lolmaydi. Bu xususda olimning fikri qat'iydir: “Предикативность есть логическое, а не грамматическое свойство предложения” [4]. Shu bois olim predikativlikni ko'rsatuvchi omillar shaxs va zamon tushunchalari emas, balki haqqoniylik yoxud yolg'ondir, degan xulosaga keladi [5]. Predikativlik xabar ifodasi bilan bog'liq bo'lib, nominativlik tushunchasiga qarama-qarshi turadi. Masalan, stol so'zi alohida olinganda muayyan buyumning nomini bildiradi va tinglovchi uni shu tarzda tushunadi. Baland stol stolning oyog'i deganimizda ham uning nominativ ma'nosi o'zgaraydi. Biroq Stol turibdi deyidigan bo'lsak, ma'lum bir ifodasini bergan bo'lamiz. Demak, predikativlik xabarni anglatadi va bu orqali nominativ ma'noga qarama-qarshi turadi. Predikativlikni kesimlilik tarzida izohlab bo'lmaydi. Chunki u holda predikativlik gapning kesimi bilan ifodalangan bo'ladi.

Predikativlik gapning umumiy shakli orqali ifodalanadi va bunda muayyan xabar tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi [6]. Ammo xabarning tasdiq yoki inkor shakllarda berilishi nuqtai nazaridan masala tavsifiga yondashdigan bo'lsak, u holda tasdiq yoki inkor ma'nolari alohida sintaktik strukturalarda berilishini ko'ramiz. Mazkur hodisani esa grammatik maqomda deya olamiz.

Ko'rinadiki, T.P.Lomtevnin fikriga ko'ra, predikativlik grammatik hodisani emas, balki mantiqiy hodisani taqozo etadi.

Muhokama. Shunday qilib, gapning nominativ ma'nosi predikativlik hodisasi bilan mushtarak emasligini prof. T.P.Lomtev ham alohida ta'kidlaganini kuzatamiz. Darhaqiqat, gapning nominativ ma'nosi propozitiv struktura zamirida, aniqrog'i, propozitsiya hodisasi tayanuvchi situatsiya zamirida vujudga keladi. Bunda, albatta, inson omili muhim ahamiyat kasb etadi. V.A.Zveginsevnin to'g'ri qayd etilishiga ko'ra, situatsiya kommunikativ jarayon mazmuni e'tibori markazida turadi. Ana shu ma'noda situatsiya global xarakter kasb etadi. Biroq real voqelik o'zicha hech qanday situatsiyani anglatmaydi, zotan, u inson tushunchasidan tashqaridadir. Situatsiya haqida inson omili ishtirok etgandagina so'z yurita olamiz. Real voqelikni inson omilisiz tasavvur etadigan bo'lsak, u holda hech qanday situatsiya xususida fikr qila olmaymiz [3].

Ko'rinadiki, situatsiya real voqelik bilan bog'liq bo'lsa-da, inson omilining ishtirokisiz u faqat abstrakt tasavvuriligicha qoladi. Mazkur haqiqat bilan hisoblashmas ekanimiz, predikativlik, nominatsiya va propozitsiya hodisalari

tavsifini to'g'ri bera olmaymiz. Bu hususda so'z yuritilganda G.N.Manayenkoning quyidagi fikrini aynan keltirish, nazarimizda, foydadan xoli bo'lmaydi: "...представляется необходимым, во-первых, прояснить содержание предикации как логической категории, во-вторых, установить релевантность понятия предикации задачам исследования языка и речи, и, в-третьих, внести, если потребуется, коррективы в содержание лингвистических понятий пропозиции и предиката, обусловленные их совместным использованием с понятием предикации при построении синтаксической теории" [7].

Propozitsiya gap strukturasiining markazida turuvchi semantik invariant maqomida ekanligi eslatib o'tilgan edi. Aynan ana shunga ko'ra propozitsiya gapning nominativ ma'nosi bilan uzviy bog'lanadi. Bu esa, o'z navbatida, propozitsiya predikativlikdan keskin farqlanishini ko'rsatadi. Bu xususda so'z yuritganida G.N.Manayenko tubandagilarni alohida ta'kidlaydi va bunga biz to'liq qo'shilamiz: "...

предикация не столько акт создания пропозиции, сколько закономерный акт её «разрушения»" [7].

Xulosa. G.N.Manayenkoning mazkur fikriga to'liq qo'shilish mumkin, zotan, propozitsiya hodisasi mazmuniy salmog'iga ko'ra abstrakt strukturasi taqozo etadi va, garchi uning ortida muayyan situatsiya tursa ham, ushbu situatsiya to'liq gapning nominativ ma'nosi bilan bog'liq situatsiyadan birmuncha farq qiladi. Boshqacha aytganda, propozitsiya bog'liq situatsiya ham abstrakt xususiyatli bo'ladi. Buning boisi shundaki, propozitsiya to'liq shakllangan gaplar transformalarining semantik sinchi, invariant hisoblanadi. Predikativlik hodisasi esa mustaqil gaplarning (fe'lli so'z birikmalarning ham) voqelikka munosabatini bildiradi va bu jarayonda propozitsiyaning abstrakt ma'noli ekanligi bilan hisoblashmaydi. Boshqacha aytganda, gap abstrakt ma'noli bo'lmaydi, unda biz mazmuniy jihatdan nisbiy tugallanganlikni ko'ramiz. Demak, propozitsiya va predikativlik hodisalarning har biri o'zicha mustaqildir.

ADABIYOTLAR

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969.- С.346.
2. Арутюнова Н.Д. Пропозиция // Лингвистический энциклопедический словарь. – М, 1990. - С. – 401
3. Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М., 1975.-С.266.
4. Дешериева Т.И. О соотношении модальности и предикативности// Вопросы языкознания, 1987. №1 – С.36.
5. Звегинцев В.А. Мысли о лингвистике.-М., 1996 –С. 186.
6. Кацнельсон С.Д. Речемыслительные процессы // Вопросы языкознания, 1984. №6. - С. 3-8.
7. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent, 1985, 69-70-betlar.
8. Касевич В.Б. Семантика. Синтаксис. Морфология. –М., 1988.-С.69.
9. Ломтев Т.П. Предложение и его грамматические категории.- М., 1972.- С.27.
10. Манаенко Г.Н.Предикация, предикативность и пропозиция в аспекте «информационного» осложнения предложения// Филологические науки, №2, 2004. –С. 62-63.



Alisher TURAYEV,

Teacher of English Translation Theory Department of Uzbekistan state world languages university

E-mail: myusufbek661@gmail.com

UzSWLU DSc, professor O.Akhmedov's review

ENGLISH AND UZBEK MUSICAL LEXICAL UNITS AND ITS PROBLEMS OF STUDY

Annotation

This article explores the musical vocabulary of English and Uzbek languages, highlighting the unique characteristics and cultural significance embedded within each. It examines the similarities and differences in terminology, reflecting the diverse musical traditions and practices of both cultures. The study identifies key challenges in the comparative analysis of musical vocabulary, including issues of translation, cultural context, and the influence of globalization on musical terminology. By addressing these problems, the article aims to contribute to a deeper understanding of how language shapes musical expression and the importance of preserving linguistic diversity in the realm of music.

Key words: English musical vocabulary, Uzbek musical vocabulary, cultural significance, translation challenges, globalization, linguistic diversity, comparative analysis.

INGLIZ VA O‘ZBEK MUSIQAGA OID LEKSIK BIRLIKLAR VA ULARNI O‘RGANISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarining musiqiy leksik birliklarini o‘rganib, har birining o‘ziga xos xususiyatlari va madaniy ahamiyatini yoritadi. Maqolada har ikki madaniyatning turli musiqiy an‘analari va amaliyotlarini aks ettiruvchi terminologiyadagi o‘xshashlik va farqlarni o‘rganiladi. Tadqiqotda musiqiy lug‘atning qiyosiy tahlili, jumladan, tarjima masalalari, madaniy kontekst va globallashuvning musiqiy terminologiyaga ta’siri kabi asosiy muammolar aniqlashga harakat qilingan. Ushbu muammolarni hal qilish orqali maqola tilning musiqiy ifodani qanday shakllantirishini va musiqa sohasida til xilma-xilligini saqlash muhimligini chuqurroq tushunishga hissa qo‘shishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Ingliz tilining musiqiy lug‘ati, o‘zbek musiqa lug‘ati, madaniy ahamiyati, tarjima muammolari, globallashuv, til xilma-xilligi, qiyosiy tahlil.

АНГЛИЙСКИЙ И УЗБЕКСКИЙ МУЗЫКАЛЬНЫЙ ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ПРОБЛЕМЫ ЕГО ИЗУЧЕНИЯ

Аннотация

В этой статье рассматривается музыкальный словарь английского и узбекского языков, подчеркивая уникальные характеристики и культурное значение, заложенные в каждом из них. В ней изучаются сходства и различия в терминологии, отражающие разнообразные музыкальные традиции и практики обеих культур. В исследовании определяются основные проблемы сравнительного анализа музыкального словаря, включая вопросы перевода, культурного контекста и влияния глобализации на музыкальную терминологию. Рассматривая эти проблемы, статья стремится внести вклад в более глубокое понимание того, как язык формирует музыкальное выражение, и важности сохранения языкового разнообразия в сфере музыки.

Ключевые слова: Английский музыкальный словарь, узбекский музыкальный словарь, культурное значение, проблемы перевода, глобализация, языковое разнообразие, сравнительный анализ.

Introduction. The study of musical vocabulary serves as a vital intersection between language and culture, revealing how societies articulate their musical experiences and traditions. In the context of English and Uzbek, two languages with rich musical heritages, the exploration of musical lexical units unveils not only the unique characteristics of each language but also the broader cultural narratives they embody. English, with its global influence, has absorbed a myriad of musical terms from various cultures, while Uzbek, deeply rooted in its historical and cultural context, reflects the rich tapestry of Central Asian musical traditions.

The study of musical lexical units serves as a vital intersection between language and culture, revealing how societies articulate their musical experiences and traditions. In the context of English and Uzbek, two languages with rich musical heritages, the exploration of musical lexical units unveils not only the unique characteristics of each language but also the broader cultural narratives they embody. English, with its global influence, has absorbed a myriad of musical terms from various cultures, while Uzbek, deeply rooted in its

historical and cultural context, reflects the rich tapestry of Central Asian musical traditions.

Scholars have long recognized the importance of understanding musical vocabulary as a means of cultural expression. For instance, linguist John Blacking emphasized that music is a form of communication that transcends linguistic barriers, yet it is deeply embedded in the cultural fabric of a society[1]. Similarly, Uzbek scholar Gulnora Khamraeva highlights the significance of preserving musical terminology as a means of safeguarding cultural identity in the face of globalization[2]. However, the comparative study of musical lexical units between English and Uzbek presents several challenges, including issues of translation, cultural context, and the evolving nature of musical terminology in a globalized world.

This article aims to delve into the complexities of English and Uzbek musical vocabulary, examining the lexical units that define each language's musical discourse. By integrating insights from various scholars, it seeks to

illuminate the challenges faced in this field of study and propose avenues for further research.

Methodology. This study employs a qualitative research approach to investigate the musical lexical units of English and Uzbek. The methodology consists of several key components, including literature review, comparative analysis, and expert interviews.

A comprehensive review of existing literature on musical vocabulary in both English and Uzbek languages is conducted. This involves analyzing scholarly articles, books, and theses that address the intersection of linguistics and musicology. Notable works from linguists like John Blacking and Uzbek scholars such as Gulnora Khamraeva are highlighted to establish a theoretical framework for understanding the cultural implications of musical vocabulary [1].

Following the literature review, a comparative analysis of selected musical lexical units from both languages is undertaken. This process involves identifying common themes and distinctive features in the musical terminology. Lexical units are categorized into various domains, including instruments, genres, and performance styles, facilitating a systematic examination of the differences and similarities in the two languages.

To enrich the study, interviews with scholars and practitioners in the field of musicology and linguistics are conducted. These conversations aim to gather insights on the challenges faced in the study of musical vocabulary, including translation difficulties and cultural nuances. The perspectives of experts from both English and Uzbek backgrounds contribute to a more comprehensive understanding of the subject matter.

The findings from the literature review, comparative analysis, and expert interviews are synthesized to draw conclusions regarding the complexities of musical lexical units in English and Uzbek. This synthesis allows for a holistic view of the challenges in the study and the implications for preserving musical terminology in both cultures.

This methodology not only highlights the richness of musical vocabulary but also addresses the broader challenges of cultural expression and identity preservation within the realm of music.

To enrich the study, interviews with scholars and practitioners in the field of musicology and linguistics are conducted. These conversations aim to gather insights on the challenges faced in the study of musical vocabulary, including translation difficulties and cultural nuances. The perspectives of experts from both English and Uzbek backgrounds contribute to a more comprehensive understanding of the subject matter.

The findings from the literature review, comparative analysis, and expert interviews are synthesized to draw conclusions regarding the complexities of musical lexical units in English and Uzbek. This synthesis allows for a holistic view of the challenges in the study and the implications for preserving musical terminology in both cultures. This methodology not only highlights the richness of musical vocabulary but also addresses the broader challenges of cultural expression and identity preservation within the realm of music.

Literature review. The exploration of musical vocabulary has garnered significant attention in linguistic and musicological studies, particularly in understanding how language reflects cultural identity and musical practices. This literature review synthesizes key scholarly contributions that address the musical lexical units in English and Uzbek, as well as the challenges associated with their study.

One of the foundational texts in this field is John Blacking's *How Musical is Man?* where he posits that music is

Ushbu mavzuni o'rganishda, bevosita qiyosiy-tarixiy tahlil, chog'ishtirish, struktur-semantik tahlil, bevosita ishtirokchilarga ajratish kabi metodlarga murojaat qilindi.

Muhokamalar. So'nggi yigirma yil ichida ushbu tushunchani o'rganish tilsunoslikda sezilarli darajada keng ko'lamga yoyildi. Amsterdam universiteti professori T.Van Deyk diskurs tushunchasini eng ko'p tadqiq qilgan tilshunos olim sifatida bu atamaga keng ma'noda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muayyan vaqtdagi muloqot jarayoni deb, tor ma'noda esa muloqot jarayonining yozma yoki nutqiy verbal mahsuli deb ta'riflagan. Matn va diskurs o'rtasidagi farqni esa quyidagicha izohlagan unga ko'ra diskurs bu nutqqa, aktual nutqiy harakatga taalluqli tushuncha bo'lsa, "matn" esa til tizimiga yoki rasmiy lingvistik bilimlarga, lingvistik kompetentsiyaga taalluqli tushunchadir.

Zamonaviy tadqiqotchilar diskurs tushunchasini ontologik belgilar asosida talqin qilmoqdalar. V. G. Borbotko ta'rifiga ko'ra, diskurs - bu matn, lekin tilning kommunikativ

birliklari - jumlarlar va ularning uzluksiz semantik aloqada bo'lgan katta birliklarga birlashmasidan iborat bo'lib, uni integral shakllanish sifatida qabul qilish imkonini beradi. Yu. S. Stepanov diskursni lingvistik va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning aksi sifatida ko'rib, mentalitetni ifodalash uchun maxsus grammatika va leksik qoidalarni aks ettirib tildan foydalanish deb ifodalaydi [9,38-39 betlar]. V.V. Krasnix diskurs bu –og'zaki nutqiy fikrlash faoliyati, lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon va natijaning umumiyliigi deb xulosa qiladi [10]. Bu fikr M.Fukoning diskurs bu bir vaqtning o'zida ham jarayon ham natija degan qarashini qo'llab quvvatlaydi [11]. N. Gorelov va K. F. Sedovlar diskurs shaxslarning o'zaro ta'sirining in'ikosi ekanligini ta'kidlaydilar va bu hodisani "jonli nutq" segmenti va kognitiv va ijtimoiy xususiyatlarni o'zida jamlagan "nutq mahsuli" sifatida belgilaydilar [12]. Sotsiolingvistika nuqtai nazaridan, V.I Karasik diskursga u yoki bu ijtimoiy guruhga mansub odamlar o'rtasidagi muloqot yoki u yoki bu tipik nutqiy-xulq-atvor vaziyatiga nisbatan ko'rib chiqiladigan aloqa, masalan, institutsional aloqa deb ta'rif beradi [13].

O'zbek tilshunosligida diskurs bo'yicha tadqiqotlar tilshunos Sh.Safarov matn va diskurs muammolari to'g'risida quyidagilarni qayd etadi: "Agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo'lsa, ularni faqatgina zohiriy – formal ko'rsatkichga asosan "og'zaki" va "yozma" sifatlari bilan farqlash imkoniga gumonim bor". Tilshunos olim A.Pardaev fikriga ko'ra diskurs bu so'zlovchi va tinglovchining o'zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o'zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni. Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turi.

Tilni pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarda diskurs atamasi sakkiz xil ma'noda qo'llangan: 1) so'z muqobili; 2) frazalardan o'lchami bo'yicha ortadigan birlik; 3) nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta'siri; 4) suhbat; 5) nutqda so'zlovchi pozitsiyasi; 6) lisoniy birliklardan foydalanish; 7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi; 8) matn hosil bo'lish shartlarini tadqiq etishga mo'ljallangan nazariy qurilmalar

Diskursning asosiy universal xususiyatlari uning yaxlitligi va izchilligidir. Diskursning yaxlitligi uning tarkibiy qismlarining uzluksiz semantik bog'lanishida namoyon bo'ladi va diskursiv hodisani kompleks sifatida idrok etish natijasida aniqlangan ayrim mazmun-struktura komponentlaridan iborat. «Yaxlitlik» va «tugallanganlik» biri ikkinchisini taqozo etuvchi xususiyatlardir, ammo ularning har ikkalasining talqini har xil. Tadqiqotchilar diskursning yaxlitligini aniqlashda ikki xil yondashmoqdalar. Bu xususiyatni «pastdan yuqoriga» tamoyiliga binoan aniqlayotganlar nazarida yaxlitlik quyi bosqich (sath)lar birliklari va ularning xususiyatlarining birikishidan hosil bo'ladigan majmuadir. Elementar birliklarning o'zaro birikishi va yaxlitlik hosil bo'lishini ta'minlovchi vosita bo'lmog'i dardor.

Xulosa. Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, diskurs - bu umumiy ma'noda nutq, lingvistik faoliyat jarayonlari va ularni nazarda tutuvchi tushunchalar tizimini anglatuvchi polisemantik atama. Demak, uni turli xil rakurslarda, turli xil yondashuvlar asosida tadqiq qilish bugungi kun tilshunos olimlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Kelgusi ishlarda ehtimol diskursni klassifikatsiyasi qilish orqali ham yanada aniqroq ta'rifga ega bo'lish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева М., Абдурашидов М., Абилов У. Фалсафа қисқача изоҳли луғат.–Тошкент, Шарқ нашриёти, 2004
2. Карасик В.И. Этнокультурные типы институционального дискурса // Этнокультурная специфика речевой деятельности: Сб. обзоров. - М.: ИНИОН РАН, 2000.
3. Николаева Т.М. Краткий словарь терминов лингвистики. – М.: Прогресс, 1978.
4. Дейк Т.А. ван. Язык, познание, коммуникация. - М.: Прогресс, 1989.
5. Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону, Феникс, 2008.
6. Гурочкина А.Г. Понятие дискурса в современном языкознании // Номинатсия и дискурс. -Рязан, 1999.
7. Остман Ж., Виртанен Т. Диссоурсе анализис // Ҳандбоок оф Прагматисс: Мануал. -Амстердам, Пхиладепхиа, 1995.
8. Димарский М. Я. Проблемы текстообразования и художественный текст (на материале русской прозы XIX —XX вв.). — СПб.: Издательство С.-Петербургского университета, 1999.
9. Степанов, Ю. С. Альтернативный мир, дискурс, факт и принцип причинности, Язык и наука конца 20 века, – М.: Ин-т языкознания РАН, 1995.
10. Арутюнова, Н. Д. Дискурс, язык-знание. Большой энциклопедический словарь' Гл. ред.В. Н. Жарсева, 2-э изд. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998.
11. Красных, В. В. Основы психолингвистики и теории коммуникации: Курс лекций – М.: ИТДГК «Гнозис», 2001.
12. Горелов, И. Н., Седов К. Ф. Основы психо-лингвистики, – М.: Издательство «Лабиринт», 2001,



Saidmurad KHOLBEKOV,
Researcher of Chirchik state pedagogical University
E-mail: s_xolbekov79@mail.ru

O‘zMU professori f.f.d N.Rahmonov taqrizi ostida.

НОВЫЙ УРОВЕНЬ АНТИЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

В этой аннотации представлена новая шкала оценки древней литературы, направленная на улучшение нашего понимания ее культурного, исторического и художественного значения. Традиционные оценки часто опираются на ограниченные критерии, такие как сохранение текста и лингвистический анализ, которые могут упускать из виду более широкий контекст, в котором эти работы были созданы и получены. Наша предлагаемая шкала включает в себя несколько измерений, включая тематическую глубину, стилистические инновации, историческое влияние и интертекстуальные связи.

Ключевые слова: Палиндром, маклуби мустави, художественно-изобразительный инструмент, аллитерация, тавзе, ташбех, повтор звука, новый художественно-изобразительный инструмент.

A NEW SCALE OF ANCIENT LITERATURE

Annotation

This abstract introduces a novel scale for evaluating ancient literature, aimed at enhancing our understanding of its cultural, historical, and artistic significance. Traditional assessments often rely on limited criteria, such as textual preservation and linguistic analysis, which may overlook the broader context in which these works were created and received. Our proposed scale incorporates multiple dimensions, including thematic depth, stylistic innovation, historical influence, and intertextual relationships.

Key words: Palindrome, maqlubi mustavi, stylistic devices, alliteration, tavze, tashbeh, repetition of sound, new stylistic device.

QADIMGI ADABIYOTNING YANGI DARAJASI

Annotatsiya

Ushbu referat qadimiy adabiyotni baholash uchun uning madaniy, tarixiy va badiiy ahamiyatini tushunishni kuchaytirishga qaratilgan yangi shkalani taqdim etadi. An'anaviy baholashlar ko'pincha matnni saqlash va lingvistik tahlil kabi cheklangan mezonlarga tayanadi, bu asarlar yaratilgan va olingan kengroq kontekstni e'tiborsiz qoldirishi mumkin. Biz taklif qilayotgan masshtabimiz tematik chuqurlik, stilistik innovatsiya, tarixiy ta'sir va matnlararo munosabatlarni o'z ichiga olgan bir nechta o'lchovlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Palindrom, uslubiy vositalar, alliteratsiya, tavze, tashbeh, tovush takrori, yangi uslubiy vosita.

Introduction. In the West as well as in the Islamic East, there is a commonality of stylistic devices. In the East the art of the soul while in the West, palindrome which uses a word in such a way that a certain meaning emerges even when it is read upside down" are among such devices [1]. If the lines of "A roza upala na lapu Azora" are read up to a certain line and beyond, the letters fall "symmetrically one on top of the other". And in the East, maqlubi mustavi of the art of the soul is one of the "overlapping" types of stylistic devices.

Literature review. There is a stylistic device called tavze in the East and alliteration in the west. But now we aim to have a different approach to the subject of tavze, and we are moving towards this goal step by step [2].

Rauf Parfi's two-volume "Selection" includes a poem entitled "Cho'li Irok

Уфк ёнар, Уфк. Уф-ф!
Карвон борар қумликда. Қум. Қум...
Туяларда ҳазин қўнғироқ,
Чўли Ироқ, чўли Ироқ
Тун... Кун... Тун...
Поёни йўқ мунгли бу сахро
Узра хурмо
Ўсадир танҳо.
Хурмо ости ложувард булоқ.
Чўли Ироқ. Чўли Ироқ.

Юрак чапак чалади чанқоқ.
Беҳуда севинар Карвон.
Карвон учун
Энг ширин армон –
Улуғ Турон –
Ўша булоқ...
Қуриган бирок...
Чўли Ироқ, Чўли Ироқ.
Йўли йироқ кўп ёмон...
Тун... Кун... Тун...":

If the attention is given to the text of the poem, it gives such feeling that the slowly moving of the camels in the caravan over the sand dunes (Letters "u", "f", "q" in the lines "Ufq yonar, Ufq. Uf-f"), and the melodious sound of the caravan bell (The letters "q", "g", "ch", "l", "r" in the lines of "Туяларда ҳазин қўнғироқ, Чўли Ироқ, чўли Ироқ" and the "ting-ting" sound of a bell in the system of noun phrases "Tun... Kun... Tun...") can be heard weather the Rauf Parfi thought about giving whisper of described events in this poem or not. The same tone in Rauf Parfi's work can be found in the famous poem "Томчилар томчилар сочимга" and is very aptly analyzed in the school literature textbook. So, in this poem, with the repetition of the "ch" sound, it is as if the sound of a drop is heard. The skill in poetry, in our opinion, should not be more than that.

Research Methodology. An appropriate question may arise whether such events are also found in our Uzbek classical literature. Vadud Mahmud, a literary critic who lived and worked at the beginning of the 20th century, wrote in his article "Today's Poems and Artists": "Look, what did Navoi do? In the description of Majnun's grief:

Кўнглига ўтулди кўхи андух,
Андухи йиғилди кўх то кўх.

In this stanza, the sound of "o", the rumble of "g", the scattering of "h" and the repetition of these sounds are really like the mountain falling, scattering on it, crumbling, and the filling up and shouting of valleys after falling, aren't they?"

Bahodir Karimov, a literary scholar, draws attention to the analysis of Vadud Mahmud based on Navoi's verse, which is a phenomenon of alliteration ("tavze" in oriental classical poetics)[4].

True, the repetition of sounds is important in tavze. If the nature of the event is taken into account, it is not wrong to call it tavze. But the repetition of sounds in the verses quoted from Navoi and Saiqali is not just tavze, but is distinguished by the ability to embody the described event in front of your eyes, not only to embody, but also to "make you hear The sounds of the stones of the crushed and scattered mountains (Navoi), the clashing of swords, and the image of the state of the warriors (Saiqali) can be basis for what we call a new stylistic device. If we look at the essence of this stylistic device, it is necessary to pay attention to the fact that it is emerged from the repetition of several sounds, not just one sound [6].

It is not difficult to notice the influence of the above-mentioned observations of Vadud Mahmud in the analysis of Khayridin Sultanov's short story "Kongil Ozodadur" in the article called "Elegance in Prose" by Bahodir Karimov, who prepared these selected works of Vadud Mahmud for publication. "Гулом Кундуз билан танишган, уни хар куни дорилфунун йўлақларида кутишга одатланган. Ёзувчи Кундузнинг бошқаларга ўхшамаган табиати, латиф назокатини Гулом тилидан шундай беради: "Фаранг-румо бўлимидаги хою-хаваслар, ёлгон ҳашамлар унга зигирча ҳам юкмаган эди, киз бола боши билан бу оҳанграбо таъсирдан мусаффо қолгани мени мудом ҳайратга соларди". Бу кўчирманинг маълум қисмида "б" товушининг, умуман, гапнинг ўзида "х" товушининг ҳукмронлиги сезилади. "Х" товушининг талаффузида майинлик, нозиклик, ҳар томонлама гўзал кизларга хос лафоз бор. Товушдаги ўша хусусият Кундузнинг табиати билан уйғунлашиб кетган". ("Ghulam met Kunduz and he used to wait for her every day in the corridors of the university. The writer describes the unrepeatable character, the subtle tenderness of Kunduz in Ghulam's language as follows: The wildest desires and false luxuries of the French-roman department did not affect her even a single bit, and I was constantly amazed that as a girl how she kept herself free from the influence of this magnificence." The dominance of the sound "b" in certain part of this excerpt and the sound "h" in the sentence itself can be felt. In the pronunciation of the sound "H" there is softness, delicacy, all-round grace characteristic of beautiful girls. That feature in the sound is combined with the nature of the Beaver" [Karimov; 2011: 509].) [7]

Both wajhi shabih and vositai tashbih is omitted in Sabir Saiqali's work called "Ravzat ush-shuhado" and only a stylistic device called "tashbihi muyaqqad", which consists only of mushabbih and mushabbihunbih is used.

Қирор эрди, қаро кунлар қилиб ул,
Қалам қоши қаролар бўлдилар тул.

In the cited passage, the word "қалам қоши" is used as a tashbihi muyaqqad, in it, as a result of the repetition of sounds like alliteration from the letters "q", "r", "l", it is as if

the noise of the battle in the battle scene [swords clashing ("q"), bows and spears thundering through bodies ("r"), and warriors falling to their deaths ("l")] seems to be heard. In this place, it proves the level of Saiqali's skill in description, and it is necessary to think about a new stylistic device that grew out from tavze.

In one interview, the literary scholar Vahab Rahmanov spoke about the development of stylistic devices and said that he himself created some of them. But he did not mention which of them are inventions in any place of the book "She'r Sanatlari", which was ordered by the scientist himself. It can be said that this is the unique humility of a scientist. However, it should be noted here that Navoi and Babur also noted that they created something new. For example, in the work "Devoni Foni" Navoi classified certain types such as "Na't", "Tatabbu", "Tavr", "Javobiya", "Mukhtara (or "Ikhtira) [Sirojiddinov et al.; 2018: 334]. In his time, Zahiriddin Muhammad Babur also noted that some of the bahrs of Aruz were his own inventions ("mukhtare) and created special verses worthy of the bahr. This should not be attributed to modesty, but to self-respect, in our opinion. If the scientist's contribution to science is not mentioned also by himself, the proofs may wither away like a leaf and be condemned to non-existence. Therefore, we believe that it is necessary to confess that it is an invention.

As a proof of our word, we cite another fact. Yakubjon Ishakov's treatise "Dictionary of the Art of Words" gives information about the stylistic device of "Tashabih ul-atrof" and says that it is a rather complex device of words, and therefore it is rarely found in the works of Alisher Navoi and: "Мумтоз поэтикага доир қатор асарларда, чунончи, "Талхис ул-мифтоҳ" (Саққокий асари асосида, XIV аср), "Таржимон ул-балоға" (XI аср), "Ҳадоиқ ус-сеҳр фи дақоик уш-шеър" (XII аср), "Арузи Ҳумоюн" (XV аср), "Жамъи мухтасар" (XV аср), "Раҳнамои адабиёти форсий" (XX аср), "Санъати суҳан" ва "Луғати истилоҳоти адабиётшуносӣ" сингари китобларда нима учундир (Таъкид бизники. – С. Х.) бу санъат ҳақида маълумот берилмаган. Ташоих ул-атроф тўғрисидаги маълумот ва бу санъат қўлланилган форсий шеърлардан намуналарни фақатгина Сайид Муҳаммадризо Дойи Жовиднинг "Зебоихои суҳан ё илми баде дар забони форсий" (Исфаҳон, 1956) номли асариде учратамиз. Бироқ бу муаллиф ўз тадқиқотларида қайси манбаларга асосланганини кўрсатмайди (Таъкид бизники. – С. Х.)" [Исҳоқов; 2006: 89]. (For some reason the information about this device is not given in a number of works on classic poetics, for example, "Talkhis ul-miftah" (based on the work of Sakkoki, XIV century), "Tarjiman ul-baloga" (XI century), "Hadoiq us-sehr fi daqiq us-she'r" (XII century), "Aruzi Humayun" (15th century), "Jami mukhtasar" (15th century), "Rahamoi adabiyoti forsi" (20th century), "San'ati suhan" and "Lug'ati istilohoti adabiyotshunos" (Ta'kid is ours. – S.Kh.). Information about Tashabih ul-atrof and examples of Persian poems in which this art is used can be found only in the work of Said Muhammadreza Doi Javid named "Zeboihoi suhan yo ilmi bade dar zaboni forsi" (Isfahan, 1956). However, this author does not indicate which sources are based on his research (Emphasis is ours. - S. Kh.). Maybe, like Vahab Rahmanov, Doi Javid invented tashabih ul-atrof and did not mention its "mukhtare in his treatise [3].

But the device used in the fragment of the battle image taken from the epic "Ravzat ush-shuhado" of Sabir Sayqali, might be a differentiation of tavze, which is utilized in Navoi's gazals (O'TIL; 2006: 63). The word "Differentiation" is defined in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language" (lat. differentia – difference, differentiation) as "Separation, division, stratification of a whole thing into different parts, forms, stages; mutual differentiation. At this

point, the stylistic device used in the excerpts from the poems of Navoi and Saiqali, may be a new device that derived from tavze.

This is reminiscent of the process by which sciences create new branches during their development. This may seem strange at first. But over time, the public can accept. An example of this is our views on the new stylistic device [8].

This poetic device also can be found in Russian poetry, in particular, in the poem "Шуршащая песня" by Andrey Usachyov. If you pay attention to the image in it, the sound of rustling reeds, the elegant sound of gurgling water, the sound of the splashing rain are emerged from the several recurrence of the sound of "sh" in some places and a whole scene appears before your eyes like a large canvas [Usachyov]:

Шуршат на дереве листья.
Шуршит камыш,
И дождь шуршит,
И мышь, шурша,
В нору спешит.

А там тихонечко шуршат
Шесть шустрых маленьких мышат...
Но все вокруг возмущены:
– Как расшуршались шалуны!
Шуршат на малышей кусты.
Шуршат им с дерева листья.
Шуршит рассерженный камыш.
И дождь шуршит,
И мама-мышь,
Весь лес шуршит им:
– Шалуны,
Не нарушайте тишины!
Но их не слышат шесть мышат.
Давно мышата не шуршат.
Они легли пораньше спать,
Чтоб не мешать
Большим шуршать!

Conclusion. We consider that this should be brought into science as a type of stylistic devices. And we propose to name it as "tavze'i mohirona" ("tavze'i skillfully spoken").

REFERENCES

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати / ф.ф.д. Д. Куроновнинг умумий тахрири остида. – Т.: Академнашр, 2010.
2. Рауф Парфи. Сайланма. 2 жилдлик. 1-жилд. / Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи: Олим Олтинбек. – Тошкент: Мухаррир, 2022.
3. Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б. Каримов). – Тошкент: Маънавият, 2007.
4. Каримов Б. Насрдаги назокат. // Ўзбек адабий танқиди ("XX аср адабиётшунослиги" антологияси 1-китоби). – Тошкент: "TURON-IQBOL", 2011.
5. Ҳожиаҳмедов А. Шеърини санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ, 1998.
6. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik (1-kitob). – Toshkent, Tamaddun, 2018.
7. Ёқубжон Исҳоқов. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (А.Мадвалиев таҳрири остида) 1-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006.



Nosir SHERBOEV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: sherboevlinguist@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor X.Samigova taqrizi ostida

TRADING RHETORIC AS A TYPE OF SPEECH

Annotation

The article investigates the rhetoric as a type of speech in English and Uzbek. Trade rhetoric plays an important role in types of speeches, because this type of speech utilizes variety of stylistic and linguistic devices. The history of rhetoric comes back to the Ancient Greek linguists who conducted several basic researches that clarify main peculiarities of rhetoric. Trade rhetoric is characterized by its main functions that attract consumers with various types of meanings in linguistics. Knowing and researching commercial speech and its specifics when learning a language and translating it from a language iikala helps to know the similar and different aspects between the language. The skill of being able to speak beautifully, the generally recognized moral and aesthetic norms of attracting people are cited by the opinions of various scientists.

Key words: rhetoric, word, consumer, trade, trade rhetoric, influence, the influence of speech, linguistic features, consumer.

ТОРГОВАЯ РИТОРИКА КАК ВИДЫ РЕЧИ

Аннотация

В статье исследуется риторика как вид речи в английском и узбекском языках. Торговая риторика играет важную роль в типах выступлений, поскольку в этом типе речи используются различные стилистические и лингвистические приемы. История риторики восходит к древнегреческим лингвистам, которые провели несколько фундаментальных исследований, проясняющих основные особенности риторики. Торговая риторика характеризуется своими основными функциями, которые привлекают потребителей различными типами значений в лингвистике. Знание и изучение коммерческой речи и ее специфики при изучении языка и переводе с языка iikala может помочь вам узнать как сходства, так и различия между языком. Умение красиво говорить, общепризнанные морально-эстетические нормы влечения к людям приводятся мнениями различных ученых.

Ключевые слова: риторика, слово, потребитель, торговля, торговая риторика, влияние, влияние речи, лингвистические особенности, потребитель.

SAVDO RITORIKASI NUTQ TURLARI SIFATIDA

Аннотация

Maqolada ritorika ingliz va o'zbek tillarida nutq turi sifatida ko'rib chiqilgan. Nutq turlarida savdo ritorikasi muhim rol o'ynaydi, chunki nutqning ushbu turida turli xil stilistik va lingvistik texnikalar qo'llaniladi. Ritorika tarixi ritorikaning asosiy xususiyatlarini aniqlaydigan bir necha fundamental tadqiqotlar olib borgan qadimgi yunon tilshunoslariga borib taqaladi. Savdo ritorikasi tilshunoslikda turli xil ma'nolarga ega iste'molchilarni jalb qiladigan asosiy funksiyalari bilan ajralib turadi. Til o'rganishda va biror tildan tarjima qilganda tijorat nutqi va uning o'ziga xos xususiyatlarini bilish va ularni tadqiq qilish iikala til o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni bilishga yordam beradi. Chiroyli so'zlay olish mahorati, odamlarni o'ziga jalb qilishning umumiy tan olingan ahloqiy va estetik normalari har xil olimlarning fikrlari bilan keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ritorika, so'z, iste'molchi, savdo, savdo ritorikasi, ta'sir, nutqning ta'siri, lingvistik xususiyatlar, iste'molchi.

Kirish. Kasb-hunarlar orasida savdo xodimlarining savdogarlik kasbi eng nozigi hisoblanadi. Chunki ular bevosita inson va xaridorlar bilan ishlaydilar. Binobarin, bu ikki tomon nutq vositasi orqali muomala qiladilar. Bu o'rinda "nutq madaniyati" yoki "nutq odobi" iboralarini izohlashni joiz deb bildik. Ma'lumki, "madaniyat" so'zi Madina shahri nomidan kelib chiqqan. Madaniyat – o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifatli bo'lib jamiyatni ishlab chiqarishda, ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlari majmuidir. Endi odob tushunchasining mohiyatini eslaylik. Aslida, bu so'z "adab"dir. Adab-jamiyatda, kishilar bilan muomalada o'zini tuta bilish, axloq, tarbiya va uning normalaridir. Demak, biz ko'zda tutgan nutq tabiiyki, ma'rifat, ma'naviyat bilan va albatta, tib ilmi bilan, "odob" tushunchasi axloq, tarbiya, uning normalari bilan bog'liqdir. "Madaniyat" so'zi esa o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifat kabi tushunchalarni o'zida mujassam etgan. Fikrimizni asoslash uchun ADABLI so'zining izohini ham

keltiramiz. Uning ma'nosi odob-axloq normalariga rioya qiladigan, tarbiyali, axloqli demakdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadimdan so'z buyuk shifobaxsh kuch-qudratga ega bo'lib kelgan. So'z odamzod zabonidagi eng aziz gavhardir. Mashhur yunon hakimi Buqrot: "Inson ruhini davolamay turib, tanga shifo berib bo'lmaydi", deb ta'kidlaganida aynan «so'z»ni nazarda tutgan. Darhaqiqat, turli xarakterdagi savdo xodimlari u yoki bu o'zgarishlarni vujudga keltiradi, bu esa xaridorlar bilan bo'lgan muloqotda o'z ifodasini topadi. Inson aqliy va fiziologik faoliyatining mevasi - nutq orqali bu muloqot namoyon bo'ladi. Zamonaviy savdo-sotiq jarayonida daromad omili sifatida so'zning ahamiyati yanada ortdi. Turli davrlarda nutq madaniyatiga doimo katta e'tibor bilan qaralgan. Nutq madaniyatiga, xaridor bilan muloqot san'atiga bekamu ko'st, mohirona amal qilish oson emas. Bu savdo xodimidan yuksak ruhiy manbani, yuqori madaniyatni, o'ta nozik darajadagi sezgirlikni, bilimni, matonatni va hatto ba'zida aktyorlik darajasidagi mahoratni talab qiladi.

Qadimgi hind tabibi Sushruta: "So'z muloyim, yoqimli va umidvor qila oladigan, ruhga taskin berguvchi bo'lmog'i lozim", deb yozgan edi. Bu fikrlar hozirgi zamonda ham dolzarbdir.

Denis Shevchuk o'zining "Talamoq har doim yomon mag'lubiyatdir" degan kitobida va shu kabi bir qator savdo va taqdimot kitoblari mualliflari samarali sotuvchilarni sehrigar, afsungar yoki eng yomoni sehrigar-illyuzionist sifatida tasvirlashni yaxshi ko'radilar. Keling, bunday tasvirlarga adabiy qurilma sifatida qaraylik. Zero, yozuvchilarning o'zlari har qanday tasavvuf va g'ayritabiiy mo'jizalardan yiroq satrlar orasidagi fikrlarni ifoda etadilar:

"Savdo jarayoni shunchalik oddiy deb o'ylashingizni xohlamayman, lekin shuni bilishingiz kerakki, savdo doimiy kurash yemas. Ba'zan sotish uchun faqat savol berish kerak, men uni beg'ubor savol deb atayman va keyin yopaman."

Zigmund Freyd birinchi marta tilning arxetip tabiatiga e'tibor qaratdi va diskursning savdoda muhim rol o'ynashini ta'kidlab o'tdi. U xabarning fonini bilmasak, har qanday bayonotni biz to'liq tushuna olmaymiz, deb hisoblagan. Suhbatning, aslida, aysbergning faqat ko'rinadigan qismi mavjud. Butun aysberg haqida biror narsa bilish uchun buyuk psixanalist transformasion hikoya deb atagan narsani qayta qurish kerak. Har bir so'z bizni avvalgi xabarga ishora qiladi, unda ma'lumotni boshqa jo'natuvchi va qabul qiluvchi mavjud. Har qanday so'z cheksiz estafeta poygasi bo'lib, uning davomida adresatlar va adresantlar o'zgaradi. Shuning uchun har bir og'zaki murojaatda "boshqa o'zi" ni aktuallashtirish mavjud. Ko'zgul tizimida bo'lgani kabi, har bir alohida og'zaki manzilda boshqasining son-sanoqsiz aks etishi va sinishi amalga oshiriladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Ritorikada nutq qoidalarini - umumiy madaniy va professional ko'rinishda tasvirlaydi. Professional savdo muhitida nutq axloqi, bir qancha davlatlarda iqtisodiyot kodeksida bayon etilgan. Unga ko'ra, ommaviy axborot vositalari orqali mahsulotni targ'ib qiluvchi savdogar o'z harakati orqali xaridorlar va biznes hamjamiyati uchun mas'uldir. Savdogar xaridorning barcha xususiyatlarini inobatga olib, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi kerak. Mahsulotning sifati haqida xolisona ma'lumot berish, mahsulot instruksiyasini tushunarli shaklda tushuntirish, savdogar-xaridor o'rtasidagi munosabatlar o'zaro ishonchga va o'zaro javobgarlikka asoslangan bo'lishi kerak. Savdogar uchun bu prinsiplar yosh xaridor va ularning otionalari bilan muloqot qilishda ham muhimdir.

Til - bu obyektlar va hodisalarni ramziy qilishning umumiy tizimi. Ramzlashtirish jarayonida so'zning haqiqiy ma'nosi talqin va tadqiq qilishni talab qiladigan yangi ma'no bilan almashtiriladi. Hokimiyat uchun kurash til uchun kurash bilan bog'liq bo'lib, unga gapirish harakati, ob'yektlar va hodisalarni ma'lum so'zlar bilan nomlash harakati, shuningdek, ramzni talqin qilishning monopol huquqi kiradi. Zamonaviy inson dunyosining voqea tasviri ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoaviy mahsulot sifatida yaratilgan ikkinchi voqelikdir.

Qadimgi Yunoniston davridan beri ikkita ritorika mavjud bo'lib kelgan: ulardan biri falsafa tomonidan yaratilgan va notiqlik sifatida tuzilgan mutlaq haqiqatga ishonish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi mutlaq haqiqatlarni tan olmagan holda, haqiqat g'alaba natijasidir, deb hisoblaydi.

Savdoda ritorikaning ushbu funksiyalarini ajratish qiyin bo'lishi mumkin, chunki buning uchun biz agonal kommunikatorning ongiga kirib, uning asl niyatlari haqida bilib olishimiz kerak, bu munosabatlarni ta'lim maqsadlari uchun turli strategiyalar deb hisoblash juda foydali.

So'nggi o'n yilliklarda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda iste'molchilarning xulq-atvoriga qiziqish ortib borayotgani va bunday xatti-harakatlarni tadqiq qilishning yangi g'ayrioddiy shakllarini izlashni ta'kidlash lozim.

Shunday qilib, 1986-yilning yozida matbuotda "Iste'molchilarning xatti-harakatlarini o'rganuvchi Odisseya" deb atagan qiziqarli voqea sodir bo'ldi. "Bir guruh olimlar bir necha hafta davomida Amerikaning ko'plab shaharlari bo'ylab sayohat qilib, oddiy odamlar kundalik hayotda tovarlar va xizmatlarni qanday sotib olishlari va iste'mol qilishlarini kuzatdilar. Etnografik va entopsixologik usullarning keng kirib kelishi bu muammolarni yaqindan kuzatish imkonini berdi. Keng ko'lamlı tadqiqotlar bilan bir qatorda, savdo va taqdimot bo'yicha mutaxassis har kuni mikro darajada o'nlab shunga o'xshash operatsiyalarni o'tkazadi. Bunday vaziyatlarni tavsiflovchi ko'plab mualliflar sotuvchi va mijozning ritorik roziligini kommunikativ harakatning asosiy sharti sifatida topishiga guvoh bo'ldilar.

O'sha paytdagi savdo ritorikasini tadqiq etgan Tomas Ber shunday deb yozgan edi: "Bitimdagi samimiylik ba'zan g'ayritabiiy vaziyatni yuzaga keltiradi. Agar biz haqiqatan ham mijozlarimizga g'amxo'rlik qilsak, ular bizga g'amxo'rlik qilishga harakat qilishadi. Biz ularga qanchalik faol g'amxo'rlik qilsak, ularning ijobiy reaksiyasi shunchalik aniq bo'ladi."

Tadqiqot natijalari. Savdo ritorikasi bo'yicha mutaxassislarning ta'kidlashicha, ritorik rozilikka erishgan sotuvchi "mijoz bilan bir vaqtning o'zida" yoki "mijoz uchun" harakat qilishi, ya'ni mijoz uchun yon bosishi mumkin.

Zamonaviy ritorika nuqtai nazaridan suhbatdoshga berilgan barcha savollar ma'lumot olishga qaratilgan bo'lishi kerak emas. Ularda so'rov, nutq odobi normasi, suhbat ishtirokchisining niyatlarini tushunish istagi bo'lishi ko'proq maqsadga muvofiqdir. Savol turlarini erkin boshqarish - bu ritorik ish jarayonida mutaxassisning eng muhim vazifalaridan biridir.

Savdo va taqdimotlarning ritorikasi muzokaralar ritorikasidan sezilarli darajada farq qiladi. Bu farqlar umumiy maqsadlar va vazifalar, shuningdek, o'ziga xos texnikalar bilan bog'liq. "Muzokaralar ritorikasi" kitobi muzokaralar jarayonida "ha, lekin" formulasining ahamiyati haqida gapiradi. Bu formula savdo va taqdimot jarayoni uchun oz foydalaniladigan so'z birikmasi hisoblanadi. "Savdo Tao" kitobining muallifi haqli ravishda ta'kidlaganidek, "agar biz "ha, lekin ...", degan iborani ishlatsak, mijoz avvalgi hamma narsa so'f bema'nilik ekanligini tushunadi." Qarama-qarshi qurilish o'rniga "ha, lekin ...", ulanish qurilishidan foydalanishga harakat qiling "ha va ..." ko'pincha mijoz bilan muloqotda suhbatdoshning tasavvurida salbiy his-tuyg'ular bilan bog'liq qaysi tasvirlar va rasmlar paydo bo'lishini idrok etadigan so'zlardan foydalanishdan saqlanish juda muhimdir.

Mijozlar ko'pincha ular uchun qaror qabul qilish uchun sotuvchilardan deyarli hamma uchun umumiy bo'lgan savollarni berishadi. Shu bilan birga, ular: "Menga 100% ishlashiga kafolat bering va bu mahsulot men uchun hech qanday xavf tug'dirmaydimi?", deyishadi... "Men bu mahsulot ba'zi sharoitlarda ishlaganini tushunaman, lekin u boshqa hollarda ishlashiga ishonchingiz komilmi?" "Balki bu mahsulot hozir yaxshidir, lekin siz bu men bu uyda va keyinchalik ham ishlashiga kafolat berasizmi?"

Zamonaviy iqtisodchilar savdo va ritorikani bog'lagan holda sotuvchilarga quyidagicha tavsiyalar beradilar: O'zingizni mijozingizda boshqa biron sifatida ko'rishga harakat qiling va darhol sizning oldingizda ijtimoiy-madaniy va psixologik sabablarga ko'ra hissiy va mantiqiy farqlar tizimi paydo bo'ladi. Mijoz bilan aniq va yaqindan muomalaga kirishing va uning pozitsiyasi sizga barcha dalillar bilan ko'rinadi va keyin harakatning o'ziga o'ting.

Tasavvur qiling-a, siz savdogarsizsiz va velosipedlarni - uch g'ildirakli va ikki g'ildirakli velosipedlarni yovvoyi Afrika qabilasiga sotish uchun olib keldingiz. Sizningcha, xaridorlar uchun qaysi velosipedlar afzalroq bo'ladi?

Mijozning nutqiga ta'sir qilishning yana bir muhim usuli - bu ikki qismli javobdir. Savdo va taqdimot bo'yicha mutaxassislar tez-tez va adolatli ravishda savol berish san'ati haqida yeng muhim aloqa vositasi sifatida yozadilar. Shu bilan birga, mijozning savollariga javob berish san'ati ularni so'rash kabi deyarli muhimdir. Javobning noaniqligi shuni ko'rsatadiki, informatsion qismning o'zi bilan birga unda tasdiqlash elementi bo'lishi shart. Tasdiqlash - bu biz bilan muloqot qilish istagini bildirgan odamlarning xizmatlarini tan olishdan iborat bo'lgan kommunikativ texnikadir.

Shuni ham unutmaslik kerakki, nutq so'z bilan, balki intonatsiya eng muhim bo'lgan og'zaki vositalar bilan ham yaratiladi.

Mahsulotni sotishdan oldin mahoratli sotuvchi o'z xizmatini emas, balki "o'zi" ni sotadi. Bir necha daqiqada u xaridorni oldida eng malakali va eng yaxshi maslahatchini ko'rishiga ishonitiradi. Ko'rinishlarning bunday aksi, ehtimol, sotuvchining tasvirining tashqi tomonlari ikkilamchi hodisa ekanligini ko'rsatadi. Haqiqiy sotuvchi va havaskor o'rtasidagi farq oltin uzuklar va boshqa zargarlik buyumlari soniga bog'liq emas va hatto xulq-atvor odobiga ham bog'liq emas (agar ular, albatta, umumiy qabul qilingan doiradan tashqariga chiqmasa). Samarali sotuvchi va samarasiz o'rtasidagi tub farqlar butunlay boshqa sohalarda - fikrlash va nutq xatti-harakatlarida yotadi. Har safar samarali sotuvchi aloqa jarayoniga kirganda, u rasmiy mantiq qonunlarini rad etadi va ob'yektlar va hodisalarning xususiyatlarini boshqa, nostandart tushuntirishlarni topadi.

Samarali sotuvchi - bu tadqiqot turidagi ijodiy shaxs va tadqiqot ob'yekti, bir necha bor ta'kidlanganidek, mahsulotning jismoniy yemas, balki iste'mol xususiyatlarini ochib beradi. So'ralgan sotuvchilarning 55% dan ortig'i savdo bilan shug'ullanish qobiliyatiga ega yemas, 25% bu qobiliyatlarga ega, lekin hech kimga kerak bo'lmagan tovarlar yoki xizmatlarni sotadi. Qolgan 20% savdogarlar kompaniyalari uchun juda keraklidir, aynan ular 80% savdo bilan shug'ullanadilar va xaridorlarni mahsulot bilan ta'minlaydilar.

Ko'pgina sotuvchilar suhbatni savol berishdan ko'ra, o'z mahsulotlari haqida gapirishdan boshlaydilar. Sizningcha, nima uchun savdo mutaxassislari savollardan boshlashingiz kerakligini ta'kidlaydilar?

Shunday qilib, samarali sotuvchining ritorik xatti-harakati tinimsiz uchrashuvlar va dialoglar rejimida amalga oshiriladi. Har qanday odam hayot stolidagi bilyard to'piga o'xshaydi-u doimo bir uchrashuvdan ikkinchisiga uchadi. Ammo ko'pincha biz o'zimiz kerakli ko'nikmalarga, uchrashuvlarni voqealarga aylantirish san'atiga ega emasmiz. Odamlarning uchrashuvlari sotuvchilar va xaridorlarning uchrashuvlariga o'xshaydi. O'z fikrlarini baham ko'rishni istagan har bir kishi uchun har doim tinglashni xohlaydigan kishi bor. Agar siz o'z fikringizni hech kimga sota olmasangiz, unda siz noto'g'ri xaridorni topdingiz. Izlang va, albatta, topasiz!

Xulosa va takliflar. Olimlar mijoz bilan suhbatning 2 ta namunasini solishtirishni va ikkita bayonot o'rtasidagi ritorik farqlarni ko'rsatishni tavsiya qiladilar hamda ushbu suhbatlarning mijoz uchun oqibatlarini tasvirlashga harakat qilishni maslahat beradilar:

1-namuna: "Bizdagi qiyinchilik shundaki, turli xil mahsulot va xizmatlar mavjud, shuning uchun qaysi biri sizga foydali bo'lishi mumkinligini aniqlash deyarli mumkin emas. Sizga mos kelmaydigan xulosa bilan yakunlanishingizni xohlamayman. Keling, sizga qaysi mahsulotni taklif qilmoqchi ekanligimni ko'rib chiqaylik."

2-namuna: "Sizning talablaringizga imkon qadar javob beradigan mahsulot va xizmatlarni topish men uchun sharafli masala deb bilaman. Bu borada sizga yordam berishdan judayam xursand bo'laman. Birgalikda biz sizni to'liq qondiradigan dasturni to'g'ri tanlaganingizni aniqlaymiz. Shuning uchun avval ushbu tovar yoki xizmatdan nimani kutayotganingizni aniqlash juda muhimdir. Keyin men sizga darhol bu yerda tekshirishingiz mumkin bo'lgan eng munosib mahsulotni tavsiya qilaman. Xo'sh, Sizning to'lov dasturingiz qanday talablarga javob beradi?"

Haqiqiy mohir sotuvchi har doim mijozning istaklari va ehtiyojlarini ajrata oladi. Istak bu biz boshdan bajarishni istaydigan qoniqish hisoblanadi. Ehtiyojlar - bu biz ega bo'lishga loyiq deb hisoblagan qoniqishdir. Samarali sotuvchi - bu mijozning xohish-istaklarini uning ehtiyojlariga moslay oladigan tabiiy tarjimon. Mijoz bilan muloqotga kirishib, u o'z yo'nalishini mohirona boshqaradi, lekin mijozni o'z xohish-istaklari kanaliga olib kirishga intilmaydi. Shuning uchun muloqot uchun ijobiy fon yaratish mutaxassisning asosiy muhim vazifasidir.

Demak, Mahoratli savdogar quyidagi sifatlarga ega bo'ladi:

- Mahoratli sotuvchi-bu maxsus ritorik vositalar yordamida yaratilgan tasvir figurasi. Ushbu raqamning asosiy farqlari tashqi ko'rinish bilan yemas, balki sotuvchining fikrlash va nutq xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

- Mahoratli sotuvchi - bu tadqiqot ob'ekti jismoniy yemas, balki mahsulotning iste'mol xususiyatlari va ushbu xususiyatlarining mijozga ta'sir qilish qobiliyatidir.

- Mijoz bilan ishlashda mahoratli sotuvchi jonli ritorikaning umumiy qonunlaridan ham, "maslahatlar", "qarmoq tashlash" yoki "kamroq yovuzlik" kabi o'ziga xos texnikalardan foydalanadi.

- Mahoratli sotuvchi nafaqat mahsulotning iste'mol xususiyatlarini, balki o'zini ham lingvistik shaxs sifatida joylashtiradi.

- O'zini lingvistik shaxs sifatida joylashtirish yangi obrazli iboralarni faol ixtiro qilish, nostandart dalillarni izlash, shuningdek og'zaki bo'lmagan ritorik vositalardan faol foydalanishni o'z ichiga oladi.

- Jonli ritorika qonunlaridan foydalanish bilan bir qatorda, samarali sotuvchi nutq xatti-harakati sohasida improvizatsiya qilishga doimiy tayyorligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Aripova A.H. Notiqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari: Filol. fan. nomz. ...dis. - Toshkent: O'zR FA, Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, 2002. - 170 b.
2. Античная поэтика. Риторическая теория и литературная практика. М., "Наука", 2001. с.345
3. Баранов А.Н. Политический дискурс: прощание с ритуалом? // Человек. 1997. № 6. с.121
4. Баранов А.Н. Словарь политических метафор. - М., 1994. - с.233
5. Бобожонов Ф. Шахс имижги. -Т.: Янги аср авлоди, 2017. -с.110.
6. Бобровская Г.В. Об особенностях современного политического языка//Культура речи. 2004. № 4. С.58
7. Габуния З., Башиева С. Риторика как часть традиционной культуры. - Нальчик, ЭЛЬФА, 1993. С. 377.



UDK:811.11

Baxora ERGASHOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: ergashova.baxoram@gmail.com

O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti dekani, f.f.n., dotsent U.Yo'ldoshev taqrizi asosida.

ITALYAN VA O'ZBEK TILLARI LEKSIKASIDA SINONIMLIK HODISASI

Аннотация

Ushbu maqolada italyan va o'zbek tillari leksikasining umumiy va o'ziga xos jihatlari tadqiq qilinadi. O'zbek tilidagi so'zlarning sinonimlik xususiyatlari, ularning matnlarda qo'llanilishi, ijobiy va salbiy mazmunlarni ifodalashi taqqirot ishining bir tomoniga qo'yilsa, ikkinchi tomonda italyan tilida sinonimlarning hosil bo'lishi, qo'llanilishi va ahamiyati tavsiflanadi. Italyan va o'zbek tillari bir til oilasiga mansub bo'lmaganligi sababli taqqirot ishi, asosan, chog'ishtirma va statistik metodlar yordamida olib boriladi.

Kalit so'zlar: Sinonimiya hodisasi, sof sinonimlar, dominant so'z, kontekstual sinonimlar.

THE PHENOMENON OF SYNONYMY IN THE LEXICON OF THE ITALIAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article includes the analysis of the general and specific aspects of the lexicon of the Italian and Uzbek languages. Synonymous features of Uzbek words, their use in texts, expressing positive and negative meanings are placed on one side of the research work, and on the other side, the formation, use and importance of synonyms in Italian are described. Since Italian and Uzbek languages do not belong to the same language family, the research work is mainly conducted using cross-sectional and statistical methods.

Key words: The phenomenon of synonymy, pure synonyms, dominant word, contextual synonyms.

ФЕНОМЕН СИНОНИМИИ В ЛЕКСИКОНЕ ИТАЛЬЯНСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются общие и специфические аспекты лексики итальянского и узбекского языков. Синонимические особенности узбекских слов, их употребление в текстах, выражающие положительные и отрицательные значения, помещены с одной стороны исследовательской работы, а с другой стороны описываются образование, употребление и значение синонимов в итальянском языке. Поскольку итальянский и узбекский языки не принадлежат к одной языковой семье, исследовательская работа ведется в основном с использованием перекрестных и статистических методов.

Ключевые слова: Феномен синонимии, чистые синонимы, доминирующее слово, контекстуальные синонимы.

Kirish. Italyan tili Hind-Yevropa tillar oilasining roman tillari turkumiga kirib, uning paydo bo'lishi, rivojlanishi bevosita lotin tili bilan bog'liq sanaladi ya'ni bugungi kunda italyan tili leksikasining asosiy qismini lotin tilidan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi. Masalan: rosa-atirgul, aurora-tongi shafaq, mare-dengiz, aquila-burgut, luna-oy kabilar bo'lsa, ba'zi so'zlar esa, fonetik o'zgarishlar bilan o'zlashtirilgan: pater(l)-padre(i)-ota, mater(l)-madre(i)-ona, historia(l)-storia(i)-tarix. Italyan tili o'zbek tilidan grammatik, leksik, sintaktik jihatdan ancha farq qiladi. Masalan, o'zbek tilida gap qurilishi "ega+ikkinchi darajali bo'laklar+kesim" ko'rinishida bo'lsa: "Men har kuni maktabga boraman"(ega+hol+hol+kesim), italyan tilida "ega+kesim+ikkinchi darajali bo'laklar" tartibida keladi: "Io vado a scuola ogni giorno" (Soggetto+predicato+complimento). Ikki tilning bu kabi o'ziga xos xususiyatlarini boshqa turkumlar va bo'laklarda ham uchratish mumkin. Sinonimiya hodisasi har ikki o'rganilayotgan tilde mavjud bo'lib, ushbu taqqirot ishida ularning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib chiqamiz. Sinonim atamasi yunonchadan olingan bo'lib, syn-o'xshash va ónoma-ot degan ma'nolarni anglatadi [dal gr. synónymos (lat. tardo synónymos), comp. di syn- "sin-" e ónoma, ónyma "nome"] hamda bir ma'noni bir nechta so'z orqali ifodalash ma'nosini bildiradi. "Sinonimlar ma'nosining birxilligi ularning o'zaro farqli xususiyatlarga ega bo'lishini inkor

etmaydi. Aksincha, tilda bir ma'noni ifodalash uchun bir necha so'zning mavjudligi sinonimlarning bir-biriga har jihatdan to'la mos kelmasligini, ulardan har biri o'ziga xos belgi-xususiyatlarga egaligini ko'rsatadi. Sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar qaysidir jihatlari bilan bir-birlaridan farqlangani uchun tilda alohida leksik birlik sifatida yashash imkoniyatiga ega bo'ladi"[2], akademik Hojiyevning sinonimlar to'g'risida keltirib o'tgan mazkur ta'riflari, keying o'rinlarda aniq misollarda o'z isbotini namoyish qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunoslik sohasida sinonimiya hodisasini o'rganish uzoq davrlarga borib taqaladi. Birinchilardan bo'lib, sinonimlar to'g'risida Aristotel o'z asarlarida ilmiy va falsafiy fikrlarni keltirib o'tgan: Sinonimlar umumiy nom va xususiyatga ega bo'lgan narsalardir. Tilshunoslik sohasida sinonimiya so'z va iboralar ma'nosini o'rganuvchi bo'lim bo'lgan semantika doirasida o'rganiladi. Muhim jihatlardan biri funksional sinonimiya bo'lib, u sinonimlarning turli kontekstlarda bir-birini qanday o'zgartirishi va o'zgarishi mumkinligini tekshiradi. Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida sinonimlar o'zgarishlarga uchraydi. Misol uchun, sinonimiya ijtimoiy, madaniy yoki texnologik o'zgarishlar tufayli o'zgarishi mumkin. Vilgelm fon Gumboldt tizim sifatida til va turli lingvistik elementlarning, shu jumladan sinonimlarning o'zaro ta'siri haqidagi fikrlari bilan mazkur taqqirot obyektiga hayotiylik bag'ishlaydi. Keyinchalik rus olimlaridan V.Kuznesev,

Yu. Apresyan, L. Baranova va boshqa bir qator olimlar so'zlardagi semantik maydon, unda sinonimlarning ishtiroki va tahlili xususida ko'plab tadqiqot ishlarini olib borishadi.

O'zbek tilshunosligida sinonimik qator va ularning qo'llanilish doirasi xususida A. Navoiy o'zining "Muhokamatul lug'atayn" asarida ma'lumotlar keltirib o'tadi. Keyinchalik bu mavzu ko'plab tadqiqotchilar tomonidan umumiy va tavsifiy o'rganilgan bo'lib, ayniqsa o'tgan asrning 50-70 yillarida S. Usmonov, N. Rajabov, U. Tursunov, A. Hojiyev, S. Isamuhamedova kabi tilshunoslar tadqiqotlarining asosiy mavzusiga aylangan. Qolaversa, professor S. Karimov ham "O'zbek tilining badiiy uslubi" nomli monografiyasida sinonimlar va ularning darajalanishi to'g'risida ilmiy asoslarga ega qator fikrlarni keltirib o'tadi. O'zbek tilshunosligida sinonimik qatorlar anchayin batafsil va ziyraklik bilan tavsiflangan lug'atni A. Hojiyev yaratgan. Uning "O'zbek tili sinonimlari izohli lug'ati" (Toshkent: O'qituvchi, 1974)da o'zbek tilidagi sinonimlarni izohlashda mazkur parametrlarning aksariyati o'z aksini topgan [1].

Italyan tilshunosligida XX asrning mashhur tilshunoslaridan biri Tullio De Mauro semantikada sinonimiya hodisalarini eng ko'p tadqiq qilgan olimlardan biri sanaladi. B. Migliorini, A. Monti, F. Lo Piparo, C. D'Angelo singari tilshunoslar sinonimlarni stilistik va morfologik tahlil etgan holda, bir nechta qo'llanmalar yaratishadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishida ikki bir-biridan turkum va oila jihatdan farq qiluvchi tillardagi sinonimiya hodisasini ko'rib chiqish, tahlil qilish uchun tavsifiy, chog'ishtirma va statistik tahlil metodlaridan keng foydalaniladi. Chog'ishtirma metod orqali sinonimlarning strukturaviy va ma'nosiga ko'ra turlari kengroq yoritib beriladi. Masalan, italyan tilida sinonimlar ma'no jihatdan asosan uch guruhga ajratiladi: Asl sinonimlar (sinonimia pura), maxsus sinonimlar (sinonimi specialis) hamda qisman sinonimlar (sinonimi parziali). O'zbek tilida esa, sinonimlar gaplarda qo'llanilishiga ko'ra ma'no sinonimlari, nutqiy sinonimlar, uslubiy sinonimlar kabi turlarga ajratilsa, tuzilishiga ko'ra esa, affiksial, sodda, juft, takror, qo'shma, aralash, so'z birikmalari sinonimiyasi, gap sinonimiyasi kabi turlarga ajratiladi. Biz chog'ishtirma metod orqali ushbu ikki tildagi sinonimlarning turlari, yasalishi va qo'llanilishi yanada tushunarli va aniqroq yoritib beramiz. Tadqiqot ishida tavsifiy metoddan ham keng foydalaniladi, ya'ni bir tildagi sinonimiyaning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash, tasniflash maqsadida ushbu metod qo'llaniladi.

Tahlil va natijalar. Ikki leksema bir xil ma'noga ega bo'lsa, sinonim bo'ladi. Aslida, ko'pchilik nutq uslublariga xos bo'lgan polisemiya tufayli leksemalar, to'liq sinonimiya (= to'liq semantik ekvivalentlik har doim bir-biri bilan almashtirilishi mumkin bo'lgan ikkita so'z o'rtasida hosil bo'lib, o'rin almashishganda ham, gapning mazmunini o'zgartirmaydi), qisman sinonimiyaga (masalan: tra ~ fra) ajratilishi mumkin, ayniqsa, bir ma'noli leksemalar hamda tor doiralarda qo'llaniluvchi atamalar uchun aynan to'g'ri tushadigan sinonimlarni topish juda murakkab sanaladi. Shuning uchun sinonimiya ko'pincha qisman bo'ladi (bu leksemalar orasida asosiy ma'noni yoritish maqsadida qo'llaniladi) yoki kontekstual bo'lib, so'zlar faqatgina ma'lum kontekstda bir-birini almashtirish mumkin. Masalan: ricco-boy, benestante-o'ziga to'q: Lo zio di Anvar è ricco-Anvarning amakisi boy; Lo zio di Anvar è benestante-Anvarning amakisi o'ziga to'q. Har ikkala gap ham Anvarning amakisi kambag'al emasligini tasdiqlaydi, ammo ba'zan o'ziga to'q sifati, boy sifatiga qaraganda pastroq darajani ko'rsatadi: kambag'al-o'rtahol-o'ziga to'q-boy. Sinonimlar har doim bir xil grammatik kategoriya tegishli bo'ladi: velocemente/celermente (tezda, zudlik bilan) ravish so'z turkumiga kirsam, dire/riferire (demoq, ifodalamoq) fe'l so'z turkumiga kiradi. Ikki turkum bir-biriga sinonim bo'la

olmaydi. Sinonimlar turli ijtimoiy qatlamlar va til qatlamlariga qarab o'zgarishi mumkin (til registrlari), masalan, fandonia, bugia, palla so'zlarining barchasi umumiy yolg'on tushunchasini ifodalaydi, ammo turli ijtimoiy qatlamlarda turlicha foydalaniladi. Fandonia-ertak, cho'pchak ma'nosini ifodalab, ko'proq yuqori qatlam tomonidan qo'llaniladi, bugia-yolg'on ma'nosini ifodalaydi va umumiy so'zlashuvda, adabiy nutqda keng qo'llaniladi, palla esa lof, uydirma ma'nolarini ifodalab, odatda xalq tilida yolg'on so'zi o'rnida keladi.

Sinonimlarning qisman va to'liq holatda bir-birini to'ldirib kelishi haqida yuqorida fikrlar keltirib o'tdik va hozir buni abitare va vivere fe'llari misolida ko'rib chiqamiz. Abitare-istiqomat qilmoq, yashamoq, vivere-yashamoq ma'nolarini ifodalab, ular "abita in campagna"-qishloqda yashaydi va "vivere in campagna"-qishloqda yashaydi gaplarida to'liq sinonim bo'lib keladi, ammo "vive tranquillamente-tinch yashaydi", "vive bene-yaxshi yashaydi" kabi gaplarda vivere fe'lining o'rniga abitareni qo'ya olmaymiz chunki abitare ko'proq istiqomat qilmoq ma'nosini ifodalaydi va uning qo'llanilish darajasi cheklangan.

Bundan tashqari, sohaviy sinonimlar (sinonimi settoriali) ham mavjud bo'lib, ular faqatgina ma'lum bir sohaga tegishli so'zlar sanaladi: "mal di testa (so'zlashuvda) - emicrania (tibbiyotda)" - bosh og'rig'i ma'nosida, "casa (so'zlashuvda) - abitazione (rasmiiy uslubda)" - uy, yashash joyi ma'nolarida turli nutq uslublarida qo'llaniladi.

Italyan tilida ham boshqa tillarda bo'lgani kabi turli shevalar mavjud bo'lib, ular fonetik, leksik, semantik jihatdan bir-birlaridan farq qiladi. Aynan o'sha shevalardagi so'zlarda ham sinonimiya hodisasi ko'zga tashlanadi. Masalan, adabiy tildagi avere fretta-shoshilmoq birikmasi Toskana shevasida avere furia shaklida kelib birikmaning ma'nosini kuchaytirib keladi. Aslida, furia so'zining lug'aviy ma'nosi darg'azab bo'lmoq, jahli chiqmoq kabi tarjimalarni beradi. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarining nomlari hududlararo o'zgarishlarga uchrab boradi: adabiy tildagi "fagiolini"-loviyalar so'zi Veneto shevasida "tegoline" va Lombardiya shevasida "cornetti" shakliga o'zgaradi.

Xulosa va takliflar. Italyan tili leksikasi o'ziga xos qiziqarli tadqiqot obyekti hisoblanib, unda o'rganilishi foydali bo'lgan mavzular talaygina. Italyan va o'zbek tillari leksik, semantik, grammatik, fonetik jihatdan bir-biridan ancha farq qilsa-da, ularni qiyosiy tadqiq qilish ushbu tillar rivojida amaliy ahamiyat kasb etadi. Ikki tildagi sinonimiya hodisasini o'rganish jarayonida shunga amin bo'ldikki, ikki oilaga mansub bo'lgan tillar aslida, tarixan bir-biriga o'xshash rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi, dunyo tilshunosligida amalga oshirilgan har qanday yangiliklar ularga ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Qadimgi hind tilshunoslari, Aristotel, Zamaxshariy, A. Navoiy, rus tilshunoslari va yuqorida nomlari keltirilgan qator o'zbek tilshunoslari tomonidan tadqiq etilgan sinonimiya hodisasi hamon yangi bilimlarni egallashda asos bo'lib kelmoqda.

"Italyan va o'zbek tillari leksikasida sinonimlik hodisasi" mavzusidagi ushbu tadqiqot natijalaridan kelib chiqib bo'lajak tadqiqotchilarga bir qancha tavsiyalar berilishi mumkin. Birinchidan:

Italyan tilida sinonimlarni tadqiq etish ushbu tilni o'rganayotgan auditoriya uchun juda muhim ma'lumotlarni yetkazish imkonini beradi, ya'ni ular o'z lug'atlaridagi sinonimik qatorlarni kengaytirish orqali og'zaki va yozma mulohotda takrorlardan holi bo'lishga erishadilar. Ikkinchidan: Ilmiy izlanuvchilar tomonidan italyan va o'zbek tillarida sinonimlarning tor doirada va keng doirada qo'llanilishini o'rganish ahamiyatli sanaladi. Bu esa, ikki tilda yaratiladigan sinonimik lug'atlar uchun asos vazifasini bajaradi, yangi tadqiqotlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Nemis yozuvchisi Gyote ta'biri bilan aytganda, "Kimki chet tillarini bilmas ekan, demak o'z tili haqida ham yetarli bilimga ega emasdir". Shunday ekan, o'z ona tilimizni

boshqa tillar bilan qiyoslab o'rganish, nafaqat, o'z tilimiz balki, o'rganilayotgan chet tili rivojida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati: / N.Mahmudov tahriri ostida. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
2. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
3. Dizionario dei sinonimi e contrari, Daniela Ratti: Zanichelli, 2012.
4. Italiano facile, manuale-Novara, 2009.
5. Parole, Serena Ambroso- Roma: Bonacci Editore, 2022.
6. www.treccani.it
7. <https://aulalettere.scuola.zanichelli.it/>
8. <https://dizionari.repubblica.it/>



UO'K:805.28

Shohista ESHANKULOVA,
ToshDO'TAU tayanch doktranti
E-mail:shohistaxon.eshankulova1990@gmail.com

F.f.d, prof. N.Xusanov taqrizi asosida.

MAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA ASPEKTDAGI LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada maqollar xalq amaliy san'ati va xalq milliy-madaniy o'ziga xosligining eng qimmatli manbai va tashuvchisi sifatida e'tirof etiladi. Xalq og'zaki ijodi turli xil ijod turlarini o'z ichiga oladi, maqol va matallar an'anaviy ravishda uning kichik janrlari sifatida tasniflanishining ilmiy va ijtimoiy asoslari haqida, maqollarning xilma-xilligi hayratlanarli: sevgi va do'stlik, mehmondo'stlik, oila va nikoh, ish va dam olish, qayg'u va quvonch kabi har qanday mavzuda juda ko'p sonli iboralar orasida qidiruv va foydalanish oson bo'lishi uchun asrlar davomida to'plangan maqollarni tasniflashi zaruriyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Maqollar, tasniflash, xalq og'zaki ijodi, etnik an'analari va qadriyatlar, tezauriya va ensiklopediyalar.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОСЛОВИЦ В СРАВНИТЕЛЬНЫХ АСПЕКТАХ

Аннотация

В статье народное творчество пословиц признается ценнейшим источником и носителем национально-культурной самобытности народа. Фольклор включает в себя различные виды творчества, пословицы и поговорки традиционно относятся к поджанрам по научной и социальной основе. Разнообразие пословиц поражает: любовь и дружба, семья и брак и т.д. Речь также пойдет о необходимости классификации пословиц, для удобного поиска и использования среди огромного количества выражений на любую тему, собранных на протяжении веков. например, работа и отдых, грусть и радость.

Ключевые слова: Пословицы, классификация, фольклор, этнические традиции и ценности, тезаурусы и энциклопедии.

LINGUOCULTUROLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROVERBS IN COMPARATIVE ASPECTS

Annotation

The article recognizes folk art of proverbs as the most valuable source and bearer of the national and cultural identity of the people. Folklore includes various types of creativity; proverbs and sayings are traditionally classified as subgenres on a scientific and social basis. The variety of proverbs is amazing: love and friendship, family and marriage, etc. We will also talk about the need to classify proverbs for easy search and use among the huge number of expressions on any topic collected over the centuries. for example, work and rest, sadness and joy.

Key words: Proverbs, classification, folklore, ethnic traditions and values, thesauri and encyclopedias.

Kirish. Har bir xalqning til madaniyati og'zaki va yozma nutqda uchraydigan turg'un iboralarni o'z ichiga oladi. Ular ixchamligi, bir ma'noli emasligi va turli nutqiy vaziyatlarda qo'llanishi bilan ajralib turadi. Tilning obrazli ifodalari aforizm va frazeologik birliklar, idioma va matal va maqollar kiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, xalqning milliy madaniyati til prizmasi orqali o'rganiladi, unda uning mentaliteti, tarixiy va madaniy taraqqiyotining asosiy bosqichlari, umume'tirof etilgan g'oyalari va qadriyatlar abadiylashtiriladi. Maqol va matal kabi frazeologik birliklar etnik guruhning ko'p yillik tajribasi va bilimining yaqqol ko'rinishi bo'lib, uning milliy-madaniy o'ziga xosligini o'z ichiga oladi.

Maqollar ba'zan naql, hikmat, tanbeh, hikmatli so'z, zarbulmasal, mashoyixlar so'zi, matal, hikmatli maqol, donishmandlar so'zi, otalar so'zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g'oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi, maqolda esa to'la tugallangan fikr-xulosa ifodalaniadi. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy. Vatan, hushyorlik, ahillik, do'stlik, donolik, mehnat, ilm-hunar, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shu qatorda, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklining dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p ma'nolilik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar

harakterli. Maqollarda antiteza, qarama-qarshilik hodisasi ko'p uchraydi. Maqollar ming yillar davomida yaratilgan va ishlatilgan va oqsoqollardan hikmat va haqiqat ifodasi sifatida yoshlarga o'tgan. Shu boisdan ham turli davr va qit'a olimlari bu til hodisasi qiziqib, uni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqishga kirishdilar. Ushbu tadqiqot sizga til haqidagi bilimingizni boyitish, yangi madaniyatlar bilan tanishish va ularning etnik an'analari va qadriyatlar bilan tanishish imkonini beradi.

Filologiya fanlari doktrori V.M.Mokienko "Zamonaviy paremiologiya (lingvistik aspektlar)" maqolasida tilshunoslik hozirda "paremiologik bum"ni boshidan kechirayotganini ta'kidlaydi, bunga so'z erkinligi, tsenzura chegaralarini yo'q qilish, reklama va ommaviy kommunikatsiya sohasidagi talab yordam berdi. , Internetga kirishni oching. Ushbu omillar tufayli maqol iboralari Uyg'onish davridan beri kuzatilmagan mashhurlik va keng qo'llash cho'qqisini boshdan kechirmoqda[9].

K. K. Garsia-Kaseles o'zining «Ingliz va rus maqollarining o'zaro bog'liqligi. Ikki tili tarjimaning ayrim xususiyatlari» maqolasida ta'kidlanganidek, maqollar bo'yicha olib borilgan ko'p tadqiqotlarga qaramay, ularning ilmiy ta'rifi hanuzgacha tilshunoslik doiralarida nazariy munozaralar mavzusi bo'lib qolmoqda [5].

Darhaqiqat, turli olimlar, jumladan, V.S.Vinogradov, V.S.Modestov, T.S. Bu frazeologik birliklarning asosiy

belgilarini aniqlash uchun lug'atlar talqini va turli tadqiqotchilarning yondashuvlarini tahlil qilish muhim ko'rinadi. Buyuk Sovet Entsiklopediyasiga ko'ra, maqol - bu ritmga ega va xalq nutqida mustahkam o'rnatilgan lakonik majoziy maqoldir [4], gap esa hukmning emotsional ekspressiv xususiyatini oshirishga xizmat qiluvchi metafora ifodasidir [4]. S. I. Ozhegovning izohli lug'ati maqolni ibratli xususiyatga ega bo'lgan xalq ifodasi va maqolni rus va sovet tilshunosi D. N. Ushakovning rus tili va imlosining shakllanishiga qo'shgan hissasi sifatida belgilaydi. tezaurusning yig'ilishi bebahodir, maqolni ritimli va tuzatuvchi mazmunga ega bo'lgan to'liq jumla sifatida tavsiflaydi, maqol esa xalq orasida keng tarqalgan, to'liq gapni ifodalaydigan ekspressiv iborani bildiradi [15].

F. A. Brokxauz va I. A. Efronning ensiklopedik lug'ati maqolni hayotning ma'lum bir sohasini tavsiflovchi qisqa kanonik ibora va maqolni maqolga «o'smagan» metaforik ibora sifatida talqin qiladi. Bir nechta lug'atlar va ensiklopediyalardagi «maqol» va «aytish» tushunchalarining talqinlarini taqqoslash asosida, ta'riflarning manbagan manbaga tafovutlari va lakonik, ammo shu bilan birga hamma narsani o'z ichiga oladigan aniq va aniq ta'rifning yo'qligi. bu maqollarning o'ziga xos xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rus folklorining taniqli yig'uvchisi A. N. Afanasyevning fikricha, rus tilining turli idiomalari, jumladan, maqol va matallar, maqol va hazillar og'zaki xalq nutqining shakllanishida alohida o'rin tutadi. Tilshunos olimning fikricha, til rivojlanib, o'zgarib borar ekan, xalq og'zaki ijodining kichik janrlari eng kam o'zgarishlarga uchragan, bu esa ajdodlarimiz xotirasi saqlanib qolganidan, ularning ko'p yillik tajribasi va donishmandligidan dalolat beradi [2].

Binobarin, rus tilidagi maqollar, xususan, maqol va maqollar xalqning madaniy va tarixiy asoslari bilan uzviy bog'liqdir. Maqollarning eng yorqin o'ziga xos xususiyatlari bu ularning tarbiyalash xususiyati va odamlarning ko'p asrlik tajribasini aks ettirishdir. Bu til birliklari to'g'ri va esda qolarli iboralar bo'lgani uchun ularning shakli bugungi kungacha imkon qadar saqlanib qolgan. Bu atamaning turli talqinlaridan kelib chiqqan holda, maqol biror narsa, hodisa yoki harakatni tasvirlash uchun xizmat qiluvchi ko'chma va ifodali xarakterdagi qisqa, to'liq bo'lmagan gapdir, degan xulosaga kelish o'rinli ko'rinadi.

Inson va uning xulq-atvori, tabiat hodisalari, tevarakatdagi har xil hodisalar haqida to'g'ri va ta'sirchan ta'rif bera oladigan maqoldir.

Folklor janri sifatidagi «maqol» va «so'z» tushunchalarining ravshanligini oshirish uchun chet ellik tadqiqotchilarning nuqtai nazariga murojaat qilish kerak. Turli tilshunos olimlar tomonidan yozilgan 15 bobdan iborat 2014-yilda ingliz tilidagi «Paremiologiya: Hikmatlarni o'rganish bo'yicha to'liq qo'llanma» alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Nashrning birinchi bobida nemis tilshunosi N.R.Norrik maqollar turli fanlar, jumladan, folklor, tilshunoslik va leksikografiyani o'rganish ob'ekti bo'lganiga e'tibor qaratadi. Shuning uchun ham maqollar turli nuqtai nazardan o'rganilib, xilma-xil tadqiqot an'analari ta'rif va qiyoslashni talab qiluvchi turli atamalarning keng doirasini yuzaga keltirdi [7].

Asosiy qism. Tilshunos va nemis professori Tamas Kispal maqolning muammoli xususiyatiga ishora qiladi va boshqa maqollar ko'pincha uning ta'rifiga to'g'ri kelishini ta'kidlaydi. Olim maqol tushunchasining o'zi prototip ekanligiga ishonchi komil, shuning uchun didaktik mazmundagi yoki elliptik tuzilishga ega bo'lgan metaforik va ritmik bo'lmagan gaplar ham maqol turkumiga kirishi mumkin.

Muallif ko'p hollarda maqollar to'plamida idiomalar va boshqa frazeologik birliklar mavjud degan xulosaga keladi.

Asosan maqollarni o'z ichiga olgan to'plamlar, ba'zilari bundan mustasno, ko'pincha ularning ma'nosi va qo'llanilishi haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan oddiy ro'yxatlaridir.

Fransuz tadqiqotchisi Stefan Vielyard «Kirish: paremiografiyadan paremiologiyaga» maqolasida frantsuz tilida «maqol» atamasi polisemantik ekanligiga e'tibor qaratadi, chunki u bir vaqtning o'zida bir nechta gaplarni bildiradi. Muallif paremiologiya sohasida ko'plab tadqiqotlarga sabab bo'lgan turli xil maqollarni (maqol, maqol, maksim, maksim, apotegma va boshqalar) ta'kidlaydi [7].

Bugungi kunda ham har bir tilda maqol va shu kabi paremiologik birliklarni topishingiz mumkin. Ular ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan og'zaki va yozma nutqda qo'llaniladi: masalan, yaqinlar va hamkasblar bilan kundalik muloqotda, adabiy, musiqa va kino asarlarida, radio va televideniya va Internetda. Maqollar kattalar ham, bolalar ham ogohlantirish yoki hazil qilish, shaxsni yoki uning xarakterini to'g'ri tasvirlash, hayotiy vaziyatni rang-barang tasvirlash uchun ishlatiladi.

Mavjud tasniflash turlarini tahlil qilib, biz zamonaviy tilshunoslikda eng keng tarqalganlarini aniqlashimiz mumkin:

Alifbo tartibida tasniflash. Bu alfavit tartibida joylashtirish tamoyiliga asoslangan maqol iboralarni tartibga solishning eng qadimiy va eng oddiy usuli. Masalan, N. I. Tolstoy va I. V. Fedosovlarning to'plamlari va nashrlari shu asosda yaratilgan;

mos yozuvlar so'zlari bo'yicha tasniflash. Bu tamoyil maqollarni ko'chma ifodani tashkil etuvchi tayanch so'zlarga ko'ra taqsimlashga asoslanadi. Bu tasnifning kamchiligi shundaki, bitta maqolda bir nechta tayanch so'z bo'lishi mumkin va shu bilan turli semantik guruhlariga kiradi. Qo'llab-quvvatlovchi so'zlarga ko'ra, A. M. Jigulev, V. M. Mokienko va T. G. Nikitina asarlarining mazmuni joylashtirilgan;

monografik tasnif maqol va matallarning to'planish joyi yoki vaqtiga ko'ra qo'shilishiga asoslanadi. Agar tarixiy qiziqish birinchi o'ringa chiqsa, bu usul eng mos keladi. Monografik tasnifning salbiy tomonlari takrorlash va materialning mantiqiy tuzilishining yo'qligi;

genetik tasnif materialni kelib chiqishi bo'yicha taqsimlaydi. Asl til va uni yaratgan odamlarga alohida e'tibor beriladi. Genetika tushunchasi monografik tushuncha bilan kesishadi, uning kamchiliklarini takrorlaydi

V. M. Mokienko lug'ati shu tizim yordamida yaratilgan.

Maqollarni mavzuga oid tasniflashda gap mavzulariga bo'linishi asos qilib olingan. Ushbu guruhlash tizimi eng keng tarqalgan va paremiologlar orasida qo'llaniladi. V.I.Dahl, A.S.Spirin va V.I.Ziminlarning ishlari yorqin misoldir. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu tasnifning ma'lum kamchiliklari mavjud. Masalan, ba'zi maqol va matallar bir nechta mavzular bilan tavsiflanadi va ularni bitta bo'limga bo'lish mumkin emas. Bundan tashqari, lug'at tuzuvchisi maqollarni mavzu bo'yicha mustaqil ravishda tarqatadi, shuning uchun uning individual tanlovi har doim ham o'quvchi tomonidan taxmin qilinmaydi [8].

G. L. Permyakov har bir tizimning ijobiy va salbiy tomonlari borligiga ishonch hosil qiladi, ammo ularning hech biri maqollarning tabiatiga asoslanmagan. Tadqiqotchining fikricha, maqol va matallarning mohiyatini to'g'ri aniqlash uchun ularga til hodisasi, tafakkur hodisasi va xalq og'zaki ijodi hodisasi sifatida qarash kerak. Birinchidan, u maqol va matallarni boshqa frazeologik birliklardan farqlash maqsadida talqinini taklif qiladi.

Tasniflashning bunday turi mantiqiy-semiotik, juft so'z birliklari esa o'zgarimas mavzuli juftliklar deb atalar edi. Bunday juftliklar qatoriga «Yaxshi - Yomon», «Boy - Kambag'al», «Oziq - Och», «Ko'p - Kichkina» va boshqalar kiradi [8]. Masalan, «Bobolar qiyinchilikni bilmas, nevaralar

azobi ko'p bo'lgan" [9] maqolining mavzusi oila, muammo emas va hokazo emas, balki "O'tmish – kelajak" o'zgarimas juftligidir. Keyinchalik, muallif o'zgarimas juftlarning to'liq ro'yxatiga e'tibor qaratadi, ularning har birini aniq ajratib turadi. Masalan, "Boshlanishi – oxiri" narsalarning boshlanishi va oxiri, tug'ilish va o'lim, faslning boshlanishi va oxiri, kun haqida: "Hamma narsa non va o'lim atrofida aylanadi" degan ingliz maqolida. «Kuchli - zaif» kuchli va zaif narsalar haqida, shuningdek, kuchli va ahamiyatsiz odamlar haqida: «Parler est bien, mais faire est encore mieux» degan frantsuz maqoliga ko'ra. «Mavjud - kirish mumkin emas» - oson yoki aksincha, olish qiyin bo'lgan narsalar haqida: «Bir kambag'al yigit buzilib ketdi: u qizga mis uzuk sotib oldi.»

Maqol va matallar bajaradigan vazifalarni o'rganishdan oldin ularning til tizimidagi o'rni aniqlash kerak. Tilshunos va paremiolog O. S. Anisimova "Maqolning til-nutq tizimidagi o'rni" maqolasida maqollarning til-nutq tizimiga mansubligiga oid to'rtta yondashuvni atroflicha o'rganib chiqdi. Tadqiqotchi quyidagi guruhlarini aniqlaydi:

- 1) supralingvistik semiotik darajali maqollar;
- 2) paremiologik darajadagi maqollar;
- 3) maqollar kommunikativ frazeologik birliklar sifatida;

- 4) maqollar til birliklari va nutq birliklari sifatida [1].

So'ngra muallif har bir yondashuvga to'xtalib, u yoki bu nuqtai nazarga amal qilgan tilshunoslarning misollarini keltiradi. Shunday qilib, M.A.Cherkasskiy ifoda rejasi va mazmun rejasi o'rtasidagi tafovut tufayli maqollar tildan yuqori semiotik darajaga kiradi, deb ta'kidlagan. Paremiolog G.L.Permiyakov maqollarni tilning paremiologik darajasiga bog'lagan, bu boshqa barcha darajalardan yuqori. Nihoyat, O. S. Anisimova maqollarning til-nutq tizimiga mansubligi haqida A. G. Grigoryan va G. D. Sidorkovanning nuqtai nazariga qo'shiladi. Ularning gipotezasi maqollarning til birliklari - frazeologik birliklar, shuningdek nutq birliklari - matnlar sifatida namoyon bo'lishi va shu bilan ularning funktsiyalarini birlashtirganligi bilan izohlanadi [1].

Maqollardagi funktsiyalarning bajarilishini ko'rsatadigan misollar sifatida biz rus, ingliz va frantsuz tillarining turli to'plamlaridan V. I. Kogut [6], S. S. Kuzmin [7], Gregori Titelman, V.S. Modestov [kabi maqollarni tanladik. 8] va V.M.Mokienko [9], O. S. Anisimova ta'kidlaydiki, eng katta ahamiyatga ega bo'lgan kognitiv yoki gnoseologik funktsiya, buning yordamida maqollar odamga atrofda voqelikni tushunishga yordam beradi. «On connaît l'ami dans le besoin». – «Do'st qiyinchilikda bilinadi» [6].

Keyinchalik, maqolning asosiy maqsadi - ob'ektiv ma'lumotlar, ko'p asrlik tajriba va to'plangan donolikdan foydalanish orqali insonga kerakli ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kommunikativ funktsiya ta'kidlangan. «Don't count your chickens before they hatch». – «Tovuqlaringizni tuxumdan chiqmasdan oldin hisoblamang» [7].

Xulosa. Maqollar kommunikativ funktsiyani bajarib, odamlarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy

funktsiyani ham amalga oshiradi, bu jamiyatni tartibga solish va odamlarga nasihat qilish imkonini beradi. «Repos est demi-vie». – «Hech narsasiz yashash osmonni chekishdir» [8].

Maqollar bajaradigan so'nggi vazifa madaniy vazifa bo'lib, buni har bir maqolda xalqning o'ziga xos xususiyatlari, mentaliteti, e'tiqodi, turmush tarzining aks etishi bilan izohlash mumkin. Maqollarda xalqning ko'p yillik tajribasi, yillar davomida o'tib kelgan donoligi mavjud. «God helps those who help themselves». – «Xudoga ishonib, lekin o'zingiz xato qilmang» [1].

Keling, O. S. Anisimova ta'kidlagan maqollarda amalga oshiriladigan to'rtta nutq funktsiyasini ko'rsatamiz:

1) nominativ - paremiyada fikrlash ob'ektini o'rnatishga imkon beradi («Olma hech qachon daraxtdan uzoqqa tushmaydi.» - «Olma daraxtdan uzoqqa tushmaydi» [6]);

2) hissiy-ixtiyoriy - inson his-tuyg'ulari va his-tuyg'ularining namoyon bo'lishi uchun mas'uldir («Va'dani tanladi, to'g'rini tanladi» - «Va'da qilingan - bajar!» [8]);

3) signal berish - harakatga undaydi yoki aksincha ogohlantiradi («Dans le doute, abstiens-toi!» – «Agar shubhangiz bo'lsa, tiyil!» [6]);

4) etnik - suhbatdoshning madaniy va etnik xususiyatlari haqida ma'lumot beradi («Rus uchun sog'lom narsa - nemis uchun o'lim» [3].

Tilshunos-paremiolog O. S. Anisimova maqollarning keng va tez-tez qo'llanilganligi sababli ularning ma'lumotlar mazmuni ahamiyatsizligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi, ammo ma'lumotlarning etishmasligi maqol iboralarida amalga oshiriladigan bir qator pragmatik funktsiyalar bilan qoplanishiga ishonch hosil qiladi. Ushbu pragmatik funktsiyalar I. Yu. Moiseeva va E. V. Chudinaning «Maqol va maqollarning pragmatik funktsiyalari» tadqiqotida batafsil tavsiflangan. Tilshunoslar maqol va matallarning "pragmatik zaryadlangan" gaplar sifatida uchta pragmatik vazifasiga e'tibor berishadi.

1) Diqqatning urg'usi: neytral lug'at fonida tarbiyalovchi xarakterdagi obrazli iboralardan foydalanish so'zlovchiga nutq ta'sirini kuchaytirishga imkon beradi.

2) Muloqot jarayoni uchun zarur bo'lgan nutq elementlarini aniqlash: diqqatni urg'ulash funktsiyasi bilan bog'liqlik mavjud, chunki maqollarning asosiy xususiyatlari birinchi o'ringa chiqadi.

3) Axborotni siqish: ixchamligi va metaforasi tufayli maqol va maqollar to'g'ri tuzilgan fikrni qabul qiluvchiga ixcham shaklda etkazish imkonini beradi [1].

Yuqoridagilarni umumlashtirib, maqol va matallar lingvistik va nutqiy funktsiyalarni amalga oshirganligi sababli til-nutq tizimiga tegishli degan xulosaga kelishimiz mumkin. Maqol paremiyalarining xilma-xilligini tasniflash uchun turli tilshunos-paremiologlar o'z asarlarida qo'llagan guruhlar har xil turlari mavjud. Sovet olimi G.L.Permiyakovning hissasini eslatib o'tmaslik mumkin emas, uning o'zgarimas tematik juftliklar bo'yicha tasnifi mahalliy va xorijiy ilmiy doiralarda alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Anisimova, O. S. Maqolning til-nutq tizimidagi o'rni [Elektron resurs]: XXI asr o'qituvchisi. 2013 yil. № 3. / O. S. Anisimova. – Kirish rejimi: [www.url: https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-poslovitsy-v-sisteme-yazyk-rech](https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-poslovitsy-v-sisteme-yazyk-rech). - 2019 yil 20 noyabr.
2. Dal, V. I. Rus xalqining maqollari [Elektron resurs]: V. I. Dal. – M.: Rus kitobi, 2003. – Kirish rejimi: [www.url: https://dslov.ru/txt/t81.htm](https://dslov.ru/txt/t81.htm). – 14.03.2020.
3. Katta Sovet Entsiklopediyasi [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: [www.url: http://biblioclub.ru/?dict_id=63&page=dict](http://biblioclub.ru/?dict_id=63&page=dict). - 2019 yil 25 noyabr.
4. Garsia-Kaseles, K. K. Ingliz va rus maqollarining o'zaro bog'liqligi. Ikki tilli tarjimaning ba'zi xususiyatlari [Elektron resurs]: RUDN universiteti axborotnomasi. Seriya: Tilshunoslik. 2012. 1-son / Konchita Karlovna Garsiya-Kaseles. – Kirish rejimi: [www.url: https://cyberleninka.ru/article/n/korrelyatsiya-angliyskiy-i-russkiy-poslovits-nekotorye-osobennosti-bilingvalnogo-perevoda](https://cyberleninka.ru/article/n/korrelyatsiya-angliyskiy-i-russkiy-poslovits-nekotorye-osobennosti-bilingvalnogo-perevoda). - 2019 yil 24 noyabr.

5. Kogut, V. I. Proverbs et dictons de France et leurs equivalents russes: Fransuz maqollari va maqollari va ularning ruscha ekvivalentlari: Fransuz maqollari va matallari lug'ati [Matn]: V. I. Kogut. – Sankt-Peterburg: “Antologiya” nashriyoti, 2015. – 240 b.
6. Kuzmin, S. S. Maqol va matallarning ruscha-inglizcha lug'ati [Matn]: S. S. Kuzmin. – M.: Rus tili, 2001. – 776 b.
7. Modestov V. S. [14 Modestov, V. S. Ingliz maqollari va maqollari va ularning ruscha ekvivalentlari [Matn]: V. S. Modestov - Rostov.: Media, 2007.
8. Mokienko, V. M. Zamonaviy paremiologiya (lingvistik jihatlar) [Elektron resurs]: MIRS. 2010. No 3 / Valeriy Mixaylovich Mokienko. – Kirish rejimi: [www.url: https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennaya-paremiologiya-lingvisticheskie-aspekty](https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennaya-paremiologiya-lingvisticheskie-aspekty). - 2019 yil 25 noyabr.



UDK: 811.(511)

Mamura YULDOSHEVA,
Associate professor Foreign Language
E-mail: mbaxtiyarovna@gmail.com

F. f. n. dotsent, U.Yo'ldoshev taqrizi asosida

**EXPRESSION OF THE LINGUISTIC INFLUENCE OF PORTRAIT PAINTING IN ARTISTIC TRANSLATION
TODAY**

Annotation

This article will cover the topic of the expression of the linguistic influence of the portrait image in artistic translation and reveal important features of Stylistics in the translation process. It is also scientifically substantiated in the opinion that the use of a linguistic approach in the expression of a portrait image is the main aspect of attracting a reader of a work of art.

Key words: Fine art, portrait genre, image interpretation, fayyum portrait, monumental painting, character.

**ВЫРАЖЕНИЕ ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ ПОРТРЕТНОГО ИЗОБРАЖЕНИЯ В
ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ СЕГОДНЯ**

Аннотация

В данной статье освещается тема выражения языкового воздействия портретного изображения в художественном переводе, раскрываются существенные особенности стилистики в процессе перевода. Также научно обосновано высказывание о том, что использование лингвостилистического подхода к выражению портретного изображения является основным аспектом привлечения читателя произведения искусства.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, портретный жанр, трактовка образа, фаюмский портрет, монументальная живопись, характер.

**BUGUNGI KUNDA BADIY TARJIMADA PORTRET TASVIRINING LINGVOSTILISTIK TA'SIRINI
IFODALANISHI**

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy tarjimada portret tasvirining lingvostilistik ta'sirini ifodalaniishi mavzusini yoritib, tarjima jarayonida stilistikaning muhim xususiyatlarini ochib beradi. Shuningdek, portret tasvirini ifodalashda lingvostilistik yondashuvdan foydalanish badiiy asar o'quvchisini jalb qilishning asosiy jihati ekanligi haqida fikr bildirib ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, portret janri, obraz talqini, fayyum portreti, monumental rangtasvir, personaj.

Kirish. San'at bu – har bir xalqning ma'naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini, madaniyatini, joiz bo'lsa hayotini tasvirlovchi vosita sanaladi. San'at yordamida insonlarning dunyoqarashini, hayotga qarashlarini, tasavvurini o'zgartirish va tarbiyalash ham mumkin. San'at insonning ma'naviyatini oziqlantiradi. Ijodkor ziyolilarimizning eng yaxshi asarlarini yurtimizda va chet ellarda targ'ib qilishni biz ma'naviy-ma'rifiy sohadagi siyosatimizning asosiy bir qismi sifatida davom ettiramiz. Ayniqsa, madaniyat, san'at, adabiyot va matbuot olamiga kirib kelayotgan iqtidorli yoshlarni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirishga, ularning uy-joy sharoitlarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratiladi. Tarjima ijtimoiy tabiatga egaligi bois, uning ijtimoiy mohiyati mavjudligini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim. Tarjima jamiyatdan tashqarida paydo bo'lolmaydi, mavjud bo'lolmaydi, rivojlana olmaydi. Tarjima o'z ichiga mavjud beshta asosiy funksional uslubga va uning kichik guruhlariga tegishli uslublarni qamrab oladi. Masalan, badiiy uslubni olsak, undagi nasriy, nazmiy, dramatik asarlar tarjimasi badiiy asarlar tarjimalarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ilmiy, turli sohalar bo'yicha yozilgan ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatik hujjatlar, turli ish qog'ozlari, gazeta va jurnal materiallari (maqola, ocherk, intervyu va shu kabilar) tarjimasi ham o'ziga xos til uslubiga ko'ra ish ko'radi. Bu narsa ikki til tarjima munosabati bilan aloqaga yoki muloqotga kirishganda amalga oshadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy asarlarda qo'llanadigan lisoniy birliklar orasida stilistik vositalar alohida

ahamiyatga ega. Ular badiiy matnning o'ziga xos estetik bo'yoqdorligini oshirishga yordam beradi. Badiiy matnning boshqa uslubdagi matnlardan yorqin ajratib turadigan yana bir jihat bu unda stilistik vositalarning qo'llanishidir. I.R.Galperin stilistik vositalarni quyidagi tasnifni keltirib o'tadi:

bosh lug'aviy va kontekstual ma'nolarning aloqadorligiga asoslangan stilistik vositalar: metafora, metonimiya, kinoya;

bosh lug'aviy va yasama mantiqiy ma'nolarning aloqadorligiga asoslangan stilistik vositalar: zeugma, so'z o'yini;

mantiqiy va emotiv ma'nolarning aloqadorligiga asoslangan stilistik vositalar: epitet, oksimoron, mubolag'a;

mantiqiy va nominal ma'nolarning aloqadorligiga asoslangan stilistik vosita: antonomasiya.

Badiiy asarlarda qahramon portretini tasvirlashda asar qahramonlarining tashqi qiyofasi va ichki dunyosini, ya'ni xarakterini ifodalashda turli badiiy tasviriy vositalar qo'llanadi. Ushbu badiiy tasviriy vositalar esa fonetik, leksik, sintaktik stilistik vositalar orqali badiiy matnda namoyon bo'ladi. Ushbu stilistik bo'yoqdorlikni badiiy tarjimada qayta ifodalashda odatda tarjimon uchun bir qator tarjima qiyinchiliklari yuzaga keladi.

Ushbu qiyinchiliklarning asosiy omillaridan biri – turli maqsadlarda yaratilgan qo'shimcha ma'no va uni anglab olish. Shuningdek, muallif tomonidan yaratilgan stilistik ma'noning asliyat va tarjima tillarida o'zaro o'xshatish, qiyoslash, ma'no ko'chish kabi usullar orqali bir-biridan farqlanishi hisoblanadi.

Badiiy matnda portret tasvirida stilistik vositalarning qo'llanishi masalalari bilan shug'ullangan rus olimasi V.Vishnevetskayaning xulosasiga ko'ra, metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya kabi stilistik vositalar qahramon portretini tasvirlashda, zeugma va perefraz qahramonlar kiyimini tasvirlashda faol qo'llanadi.

Biz ham olimaning fikriga qo'shilgan holda badiiy matnlardagi qahramon portretini tasvirlashda metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, mubolag'a kabi stilistik vositalar faol qo'llanadi degan xulosaga keldik.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarjimashunoslikda stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalari bir qator olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular badiiy va boshqa uslubdagi matnlar tarjimasida faol qo'llanadi. A.Qodiriy "O'tkan kunlar" romanida asar qahramonlarini statik va dinamik holatini tasvirlashda qo'llangan stilistik vositalar orasida o'xshatishlar eng keng qo'llangan stilistik vositadir.

O'xshatish lotincha ("similis", ya'ni "similar – bir xil", "like-o'xshash") "o'xshashlik" so'zidan olingan bo'lib, "o'xshashlik va analogiya" degan ma'nolarni anglatadi. O'xshatish ikki obyektini ayrim o'xshashliklari bilan solishtirish hisoblanadi. Ushbu stilistik vosita ikki narsaning bir yoki ikkita sifatidagi o'xshashligini ifodalovchi lisoniy birlikdir.

O'xshatish dunyoni tushunishning eng muhim usullaridan biridir. O'xshatish stilistik vositasi o'quvchiga hayot jarayonlari va hodisalari haqida yangi, obyektiv ma'lumot olish uchun dunyo haqiqatidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Adabiyotda o'xshatishdan foydalanish ham assotsiyativ ta'siriga ega. Olamni to'liqroq idrok etish uchun mavzuni turli assotsiatsiyalar yordamida tasvirlashga yordam beradi. Shu sabablarga ko'ra, yuzlab yillar davomida o'xshatish eng ommabop adabiy uslub bo'lib kelgan. Shu bilan birga, yetakchi faylasuf va tilshunos olimlarning o'xshatishning mohiyati va funksiyalari muammosiga katta qiziqish bildirishlariga qaramay, bir qator jihatlar hanuzgacha o'rganilmoqda.

"O'tkan kunlar" romanida o'xshatishli birikmalarning ayrimlari ingliz tili tarjima matnlarida asliyatga monand bo'lsa, ayrimlari o'zining tasviriy ifodaviyiligini yo'qotgan. O'xshatishli birikmalarni tarjima qilish strategiyalari bo'yicha ham turli nazariy qarashlar mavjud. Chunki, o'xshatish va o'xshatish obyektini tanlashda nafaqat ikki millat va xalq o'rtasida, balki bir jamiyatdagi guruh a'zolari o'rtasida ham farq bor. Bu jarayon har bir insonning olamni anglashi va idrok etishiga bog'liq. Eronlik tilshunoslar M.Shamsaifard, M.Fumani, A.Nematilar o'xshatishlarni tarjima qilish strategiyalari sifatida o'xshatish ma'nosini bayon qilish, o'xshatishni sifat so'z turkumidagi leksik birlikka o'zgartirish, o'xshatishni otli birikmaga o'zgartirish kabi tarjima strategiyalarini taklif etgan. Bu borada olimlarning ushbu xulosasiga o'xshatishlarni tarjima qilish bevosita lingvokulturologik va lingvokognitiv aspektlar bilan aloqadorligiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Chunki, o'xshatishlarda o'ziga xos madaniy va kognitiv konnotatsiya ham mavjud bo'ladi. Q.Ma'murovning "Alpomish" dostonini ingliz tiliga o'g'irgan tarjimasida "mard yigit daryoday toshib" birikmasini the brave guy flooded like a river" tarzida keltirgan. Bu tarjimada o'xshatishlar tarjimasida ekstralingvistik omillar e'tiborga olinmaganligini ko'rish mumkin. Asliyatdagi badiiy tasviriy vosita tarjima matnda to'laonli ifodalanmagan. Inson harakatidagi jo'shqinlikni uning qonida ifodalanishini daryoning suviga o'xshatilmog'unda. O'zbekiston, umuman, Markaziy Osiyo mintaqasida daryolar eng yirik suv havzalari hisoblanadi. Lekin, inglizlar, g'arbliklar uchun yirik suv havzalari dengiz yoki okean hisoblanadi. Shuning uchun bu kabi badiiy tasviriylikni ifodalashda inglizlarda "flood like wave" iborasi ishlatiladi.

Shuning uchun yuqorida olimlar taklif etgan tarjima strategiyalariga o'xshatish obyektini tarjima tilidagi obyekt bilan almashtirish va o'xshatishni metaforaga aylantirib tarjima qilish stategiyalarni ham qo'shishni taklif etishimiz mumkin.

Asliyat matni: Go'yo uxlamog'chi bo'lg'an tovuqdek hurpayib oldi.

I.To'xtasinov tarjimasida: She didn't greet him, or say anything. She pretended to be sleeping.

M.Riz tarjimasida: She seemed like a hen ruffling her feathers in contempt.

Bu yerda asliyat matnida asar qahramonlaridan biri hisoblangan "O'zbek oyim"ning dinamik holatini tasvirlash uchun o'xshatish stilistik vositasi qo'llanmoqda. "Go'yo uxlamog'chi bo'lg'an tovuqdek hurpaymoq" birikmasi o'xshatishli birikma bo'lib, muallifning individual o'xshatishli birikmasi hisoblanadi. Bizga ma'lumki, o'xshatishlarning ikki turi mavjud bo'lib, ular turg'un va individual o'xshatishli birikmalar. Turg'un birikmalar – avlodan-avlodga o'tib keladigan, tilda frazeologik birlik ko'rinishida mavjud bo'lg'an o'xshatishli birikma hisoblanadi. Bunga misol qilib, "tarvuzi qo'ltig'idan tushgandek" turg'un birikmasi misol bo'la oladi. Individual yoki muallif o'xshatishli birikmalar diskurs yoki matnda muallif o'zi tomonidan yaratilgan o'xshatishli birikmalar misol bo'la oladi. Yuqorida tahlilga tortilgan misol aynan individual o'xshatishli birikma hisoblanadi. Ushbu o'xshatishli birikma "arazlamog'", "kimdandir jahli chiqmog'", "muloqotni istamaslik" ma'nolarida qo'llangan.

Tahlil va natijalar. Ushbu birikma ingliz tiliga I.To'xtasinov tomonidan "She pretended to be sleeping (U o'zini uxlayotgandek tutmog')" tarzida tarjima qilingan bo'lsa, M.Riz ushbu birikmani "She seemed like a hen ruffling her feathers in contempt (U nafratda patlarini xurpaytirib olgan tovuqqa o'xshardi)" ko'rinishida tarjima qilgan. Bu borada M.Riz tarjimasida asliyatga yaqinroq hisoblanadi. Chunki, ingliz tilida izohli lug'atlarida "ruffle feathers" iborasi mavjud bo'lib, uning ma'nosi "to upset or offend people (odamlardan xafa bo'lmoq)" ma'nosini anglatadi. I.To'xtasinov tarjimasida esa "uxlashga taraddud ko'rmoq" ma'nosi berilgan. Asliyatda ushbu vaziyatda esa Otabekning Marg'ilonda Kumushga uylanib, ko'p vaqtini Marg'ilonda o'tkazayotgan o'g'lidan xafa bo'lg'an va shuning natijasida o'g'lidan xafa bo'lib, u bilan gaplashishni istamayotgan O'zbek oyim tasvirlanadi. Mazkur tarjimada M.Riz yuqorida biz taklif etgan o'xshatish obyektini tarjima tilidagi obyekt bilan almashtirish tarjima strategiyasidan foydalanib tarjima qilgan.

Asliyat matni: Oftob oyim boshi yanchilg'an ilondek to'lg'andi: — Qizim ustiga kundash?!

I. To'xtasinov tarjimasida: Oftoboyim waved as a trampled snake: – "Rival to my daughter?!"

M.Riz tarjimasida: Oftob Oyims head sank as if she were a snake, having its head crushed. "A second wife above my daughter?"

Mazkur matnda "boshi yanchilgan ilondek" so'z birikmasi o'xshatishli birikma hisoblanib, uning N.Maxmudov, D.Xudoyberganovlarning "O'zbek tili o'xshatishlarning izohli lug'ati"da boshi (kallasi) kesilgan (yanchilgan, ezilgan) ilonday kabi ko'rinishlari mavjud bo'lib, u "talvasaga tushmog'", "to'lg'anmog'", "qiyin ruhiy holatga tushmog'" ma'nolarini anglatadi. Mazkur matnda ushbu o'xshatishning "talvasaga tushmog'", "qiyin ruhiy holatga tushmog'" ma'nolari ifodalangan. I.To'xtasinov ushbu birikmani "Oftoboyim waved as a trampled snake (Oyoq osti qilingan ilondek chayqaldi)" tarzida, M.Riz esa "Oftob Oyims head sank as if she were a snake, having its head crushed (Oftob Oyimning boshi ezilgan ilondek ezib yuborildi)" ko'rinishida tarjima qilgan. Ko'rinib turibdiki, asliyat matnida asar qahramonining dinamik holatini, ya'ni uning o'sha

paytdagi psixologik xarakteri ikkala tarjima variantlarida ham to'liq ochib berilmagan.

Bu yerda ushbu o'xshatishlik birikmani ingliz tiliga aslyatdagidek ma'noni olib o'tishda o'xshatishli birikmani tarjima tilida xuddi shunday ma'noni beruvchi frazeologik birlik bilan almashtirish strategiyasidan foydalanib, "she is down in the mouth" tarzida o'girilsa, aslyatdagi tasviriy ifodaviylik saqlanib qolingani bo'lar edi. Ingliz tilida "down in the mouth" frazeologik birligi mavjud bo'lib, u "biror xabardan tushkunlikka tushmoq", "xafa bo'lmoq" ma'nolarini anglatadi. Mazkur frazeologik birlik insonning yuz tuzilishini labini burib, qovog'ini solish ma'nolarini anglatadi.

Metafora badiiy matnda badiiy tasviriylikni oshirishga xizmat qiluvchi yetakchi stilistik vosita bo'lib, u ikki predmet, voqea-hodisalarning ayrim tasodifiy belgilarining o'xshashligi asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chirish orqali yuzaga keladi. G.L.Abramovich metaforani o'xshatishning yashirin turi sifatida baholaydi. A.Rubaylning fikricha, metafora zamirida o'xshatish yotadi. L.T.Boboxonovanning ta'kidicha, metafora asosiy-mantiqiy va ko'chma - matniy ma'nolarning o'zaro munosabatiga asoslanadi. Odatda metaforani tarjima qilishning bir qator strategiyalari mavjud. U.Yo'ldoshevning fikriga ko'ra, "metaforani tarjima qilish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud". Olim metaforani tarjima qilish strategiyalarni taklif etgan bir qator olimlar va ularning strategiyalari borasida to'xtalib o'tgan. Ushu olimlar qatoriga Y.Nayda, Y.Gentzler, K.Meysen va P.Nyumarklarni kiritish mumkin. Metaforani aslyat tilidan tarjima tiliga olib o'tishda hamda metaforik ma'noni saqlab qolishda samarali

qo'llanadigan staregiyalar sifatida aynan P.Nyumark taklif etgan startegiylarni keltirishimiz mumkin. P.Nyumark metaforani tarjima qilishning sakkizta strategiyasini taklif etgan bo'lib, ular quyidagilar: o'ziga xos til uslubida qiyoslanish imkoniyatiga ega bo'lgan ifodani tarjima tilida qayta yaratish; aslyat tilidagi ifodani tarjima tili madaniyatiga mos tushadigan standart tarjima tili ifodasi bilan almashtirish; metaforik ifodani saqlagan holda o'xshatishdan foydalanib tarjima qilish; metaforani o'xshatish bilan ma'no uyg'unligi orqali tarjima qilish; metaforaning mohiyatini ochib berish; metaforani qisman o'zgartirish; metaforani tarjimada tushirib qoldirish mazmunidan foydalangan holatda xuddi shunday metafora yaratish. Fikrimizcha, P.Nyumark taklif etgan mazkur staregiyalari badiiy asarlarda qahramon portretini tasvirleydigan lisoniy birliklar tarjimasida faol qo'llanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, borliqni ilmiy asosda o'rganish va shu bilimlarni amaliyotda foydalanishga intilishlar portretning yangi tizimini yuzaga keltirdi. Endilikda tasvirlanuvchi noreal makon va muhitda emas, balki insonga yaqin bo'lgan tabiat qo'ynida aks etildi. Monumental rangtasvir asarlarining personajlar orasida rassom o'zining qiyofasini ham ishlay boshlaydi. Bu jarayon keyingi davr san'atida yanada shakllantirildi. Demak, portret tasvirlovchi til birliklarida metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, mubolag'a kabi stilistik vositalar keng qo'llangan bo'lib, ulardagi stilistik bo'yoqdorlikni qayta ifodalash uchun stilistik vositalarning nafaqat lingvistik, balki milliy-madaniy va kognitiv jihatlariga ham e'tiborga olish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Yuzlikayeva E.R. Teoriya i praktika podgotovki uchitelya k diagnosticheskoy deyatelnosti: Avtoref. dis. ... doktora ped. nauk. – Tashkent: TGPU, 2012. – 42 s.
2. Heath SH.B. Bilingual Education and a National Language Policy // Perspectives on Bilingualism and Bilingual Education. – Washington, 2008.
3. Lado R. Language Teaching. –New York, San Francisco, Toronto, London, 2010
4. Mamatqosimova V. 20-30 - yillar o'zbek marifatparlik adabiyotida badiiy tarjimaning o'rni (frantsuz adabiyotidan qilingan tarjimalar misolida). fil.fan.nom. disseratsiyasi. –T:2010. –145 b.